

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.221.4 (575.1)

ABDURASULOV ALISHER ABDURASULOVICH

**SOLIQ KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI O'ZARO
MUVOFIQLIKNI TA'MINLASH MASALALARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSYERTASIYA**

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori
professor Xudoyqulov Sadirdin Karimovich

Toshkent – 2025

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
1-BOB. SOLIQ YIG‘ILUVCHANLIGI, SOLIQ QARZDORLIGI VA SOLIQ XAVFI KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNI TA‘MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§. Soliq ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.....	12
1.2-§. Soliq yig‘iluvchanligi, soliq qarzdorligi va soliq xavfi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning nazariy masalalari.....	25
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	38
2-BOB. SOLIQ KO‘RSATKICHLARINING SOLIQ TIZIMIDAGI HOLATI TAHLILI.....	40
2.1-§. Soliq yig‘iluvchanligi ko‘rsatkichi tahlili va unga ta’sir qiluvchi omillar.....	40
2.2-§. Soliq qarzdorligi ko‘rsatkichi va uning amaliy holati tahlili.....	51
2.3-§. Soliq xavfi ko‘rsatkichi va uning soliq nazoratini tashkil etishdagi ahamiyati.....	65
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	79
3-BOB. SOLIQ KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUVOFIQLIKNI TA‘MINLASH ORQALI SOLIQ TUSHUMLARINI KO‘PAYTIRISHNI TAKOMILLASH-TIRISH.....	81
3.1-§. Soliq yig‘iluvchanligiga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	81
3.2-§. Soliq ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash orqali soliq tizimida samaradorlikka erishish yo‘llari.....	97
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	116
XULOSA.....	118
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	121
ILOVALAR.....	132

KIRISH (dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash milliy iqtisodiy siyosatlarni solishtirma tahlil qilish, global investitsiya muhitini yaxshilash va transmilliy moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq ko'rsatkichlarini yagona metodologiya asosida uyg'unlashtirish orqali mamlakatlar o'rtasida fiskal qiyoslash imkoniyati yaratiladi, raqobat muhiti xolis baholanadi va soliq yukining biznes hamda aholi daromadlariga ta'siri haqqoniy aks ettiriladi. Birlashgan millatlar tashkiloti va ayrim xalqaro moliyaviy institutlar¹ning ma'lumotiga ko'ra, "har yili dunyo mamlakatlarining davlat byudjetiga tushishi mumkin bo'lgan soliq tushumlari o'rtacha 30-32 trln. dollar miqdorida bo'lib, ammo ularning o'rtacha 9-12 foizi yig'ilmay qoladi, bunga asosiy sabab qilib soliq qarzdorligi va soliq xavfi yuqori bo'lgan davlatlardagi soliq ma'murchiligi takomillashmaganligi ko'rsatiladi"². Soliqlar yig'iluvchanligini ta'minlash byudjetdan qilinadigan xarajatlarni maksimallashtirishning muhim omili sifatida o'rganilishi jahon mamlakatlaridan moliyaviy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olishga sabab bo'lmoqda.

Jahon miqyosida soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar asosan hisobotlar tizimini standartlashtirish va davlatlar o'rtasida fiskal siyosatni qiyoslash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ustuvor yo'nalishlar qatorida soliq tushumlarini YAIMga nisbatan hisoblashda yagona yondashuvlarni ishlab chiqish, turli soliq turlari va imtiyozlarni uyg'un klassifikatsiya qilish, raqamli hisobot platformalari orqali ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni avtomatlashtirish singari choralar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tadqiqotlarda transmilliy korporatsiyalar faoliyatida soliq ko'rsatkichlarini uyg'unlashtirish, ESG va raqamli iqtisodiyot omillarini hisobot tizimiga integratsiya qilish, shuningdek, IHTT va XVJ singari xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan soliq statistikasi

¹ BMT, AQSh soliq xizmati (Internal Revenue Service), jahon soliq auditorlari palatasi va shu kabilar.

² <https://www.imf.org>.

standartlarini takomillashtirish masalalari dolzarb yo‘nalishlar sifatida qayd etilmoqda.

O‘zbekistonda soliq ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta‘minlashni takomillashtirish maqsadida milliy soliq statistikasini xalqaro metodologiyaga yaqinlashtirish, YAIMga nisbatan soliq yuki va tushumlar tarkibini hisoblashda yagona mezonlarni joriy etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirish hamda raqamli hisobot tizimlari orqali ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Soliq qo‘mitasi tomonidan elektron hisobot va avtomatlashtirilgan tahlil platformalarining joriy etilishi orqali soliq ko‘rsatkichlarini solishtirish imkoniyatlari kengaytirildi va xorijiy investorlar uchun ishonchli axborot muhiti yaratildi. Bu jarayon milliy fiskal siyosat samaradorligini oshirish bilan birga global hisobot standartlari³ga uyg‘unlashish imkonini ham taqdim etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida ham “soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish ko‘rsatkichlarini yaxshilash lozimligi, soliq to‘lovchilarni hisobga olish imkonini bermayotganligi, soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyati takomillashtirishni talab qilayotganligi”⁴ mamlakatda soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish masalasi moliyaviy siyosatdagi ustuvor vazifalardan biri qilib belgilanishi, bu borada hali etarlicha muammolar saqlanib qolinayotganligidan dalolat beradi. Bugunga qadar bu jabhada ma‘lum bir ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilgan bo‘lsada, soliq qarzdorligi summasi o‘rtacha 5-7 trln. so‘m miqdorida saqlanib qolinayotganligi buni ilmiy jihatdan tadqiq qilib, muammolarni aniqlagan holda soliqlarni yig‘iluvchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-iyundagi

³ <https://www.imf.org>.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli farmoni.

PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-sonli “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas‘uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotining respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soliq ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi masalalari bilan va ularning muvofiqligini ta‘minlashning nazariy-uslubiy masalalari bo‘yicha juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelingan. Xususan, D.Rikardo, U.Petti, Dj.M.Keyns, F.Kene, Dj.S.Mill, I.A.Mayburov, E.Seligman, R.Sturm, M.R.Pinskaya, S.G.Pepelyaev, P.A.Popov, N.R.Xachatryan, M.F.Ivlieva, M.M.Alekseenko, M.N.Sobolev, M.I.Fridman, D.Bogolepov, B.G.Milgauzen, I.M.Aleksandrov singari horijlik olimlar tomonidan soliq ko‘rsatkichlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, bu boradagi ayrim muammolarning echimlari bilan bog‘liq ilmiy tavsiyalar shakllantirilgan⁵.

⁵ Рикардо Д. Начала политической экономии и податного обложения. Перевод с английского под редакцией Н. Рязанова. Москва: изд. «Звено», 1910., Петти У. «Трактат о налогах и сборах. Verbum sapienti – слово

O‘zbekistonlik olim va mutaxassislar E.F.Gadoyev, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, S.K.Xudoyqulov, T.Malikov, A.Islamkulov, U.Hakimov, J.J.Urmonov, S.S.Azimov, X.N.Djamalov, Q.A.Yahyoev, B.E.Toshmurodova, N.Qurbonqulova, S.Giyasov, X.Djamalov, F.Isayev, U.Berdiyeva, M.Elbayeva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida respublika soliq siyosatining ba’zi qirralari tegishli mavzu doirasida tadqiq qilingan, ilmiy xulosalar berilgan va ayrim ilmiy tavsiyalar keltirilgan⁶.

мудрым. Разное о деньгах» (М.: Ось-89, 1997), Proudhon P. Systeme des contradictions economiques, ou Philosophie de la misere. 1846. Т. 1. Р. 27., Финансы, денежное обращение и кредит. Под редакцией проф. М.В.Романовского. Учебник. 3-е. издание. – М.: Юрайт. 2018.-523 с., Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент. Учебное пособие. – М.: Эксмо. 2016.-552 с., Тарасевич Л.С., Гребеников П.И., Леусский А.И. Теория корпоративных финансов. Учебник. – М.: Высшее образование. 2015.-237 с., Бондарева Н.А. Финансы, налоги и налогообложение. Учебник. – М.: Университет Синергия. 2018.-128 с., Майбуrow И.А. и др. Налоги и налогообложение. Учебник. 4-издание. – М.: Инфра-М. 2017. -555 с., Селигман Э. и Стурм Р. Этюды по теории обложения. – СПб., 1908, с. 9., Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения / Под. Ред. В.С.Барда: – М., 2004. -216 с., Пепеляев С.Г., Попов П.А., Хачатрян Н.Р., Ивлиева М.Ф. Правовые основы поимущественного налогообложения. – М.: Статут; 2016. 174 с., Алексеенко М.М. Взгляд на развитие учения о налоге. – Харьков, 1870. – 96 с., Соболев М.Н. Очерки финансовой науки, 1925, с. 61., Фридман М.И. Конспект лекций по науке о финансах, Налоги, Выпуск II. – СПб., с. 23., Боголепов Д. Краткий курс финансовой науки. – М.: Издательство “Пролетарий” 1929, с. 17., Мильгаузен Б.Г. Лекции по финансовому праву, 1957, с. 29., Александров И.М. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и Ко”, 2005.

⁶ Гадоев Э.Ф. ва б. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. – Тошкент: NORMA, 2011. 327 б.; Тошматов Ш.А. Қўшилган қиймат солиғи. Монография. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2004. 160 б.; Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2009. 556 б.; Азимов С.С. “Камерал солиқ текширувини ташкил этишда ташки манба маълумотларидан самарали фойдаланиш” мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, 2022 йил.; Урмонов Ж.Ж. (2018), Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. 27-38 б.; Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Т.: Академия, 2000. – 276 б.; Тошмurodova Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми: Монография. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 127 б.; Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. – Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003. – 247 б.; Ҳайдаров Н.Х. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари, и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – 2003. 34 б.; Исламқулов А.Х. Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш, и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 2020. 71 б.; Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li. Soliq qarzdorligini qisqartirishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish yo‘llari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies). 1/2024, yanvar-fevral (№ 00069).; Курбанкулова Н.Қ. Солиқлар бўйича қарздорлик сабаблари, оқибатлари, олдини олиш ва бартараф этиш йўллари. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2013, №10.; Гиясов С.А. Солиқлар ва мажбурий тўловлар бўйича қарздорликларни камайтириш муаммолари. “Миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш орқали рақобатбардошлигини ошириш йўллари” илмий семинар материаллари тўплами. – Т.: Иқтисод-молия, 2018.; Джамалов Х.Н. Eurasian journal of law, finance and applied sciences Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 4, April 2023 ISSN 2181-2853 Page 91., Исаев Ф.И. Йирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини такомиллаштириш. // Iqtisodiyot va ta’lim. 2023-yil 1-son.; Мирзаев Ф. Ўзбекистонда солиқ йиғилувчанлиги даражасини ошириш йўллари. и.ф.н., илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссерт. Автореферати. – Т., 2012. - 21 б.; Бердиева У.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида солиқларнинг йиғилувчанлигини ошириш йўллари. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019, 13-б.; Элбаева М. Солиқ riskини бошқариш

Jumladan, F.Mirzaev, F.Isaev, U.Berdieva o‘z ilmiy tadqiqotlarida soliqlarning yig‘iluvchanligi va uning darajasini oshirish masalalari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa, S.Giyasovning ilmiy ishlarida soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzдорliklarni kamaytirish muammolari tahlil qilingan, bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar N.Qurbonqulova tomonidan ham amalga oshirilgan. Shuningdek, M.Elbayeva soliq xavfini aniqlash muammolarini tadqiq qilgan. Ammo, bu ilmiy tadqiqot ishlarida soliq ko‘rsatkichlarining ayrimlari haqida alohida tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, soliq xavfi, soliq qarzдорligi va soliqlar yig‘iluvchanligining o‘zaro bog‘liqligi xususidagi yaxlit ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shu jihatdan olganda Yangi O‘zbekiston sharoitida soliq qarzдорligi va soliqlarning yig‘iluvchanligining o‘zaro bog‘liqligi bilan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirishni ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyotlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliq yig‘iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash orqali soliq tizimi samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soliq yig‘iluvchanligining iqtisodiy mohiyatini yoritib berish orqali soliq tushumlarini ko‘paytirishning nazariy asoslarini yoritib berish;

soliq qarzdorligi vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini ko'rsatib berish va uning soliq yig'iluvchanligiga ta'sirini iqtisodiy baholab berish;

soliq ko'rsatkichlarining tarkibiga kiruvchi: soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfining o'zaro bog'liqlikda amal qilishini iqtisodiy jihatdan asoslab berish;

soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfining o'zaro bog'liqlik amaliyotini ilmiy tahlil qilish;

soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfining o'zaro bog'liqligini ekonometrik tahlillar asosida soliqlar yig'iluvchanligi ko'rsatkichlarining 2030 yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfini o'zaro bog'liqligini ta'minlash yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi Soliq tizimida soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfini o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti soliq ko'rsatkichlari va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq xavfini to'g'ri baholash, soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq nazoratini samarali tashkil etish triadasidan soliq amaliyotida foydalanish orqali soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzdorligi va soliq xavfining o'zaro ta'sirini to'g'ri baholash va ularni samarali boshqarish imkoni asoslangan;

soliq qarzini qoplash bo'yicha 2 oy muddat bilan ogohlantirish berish va ijrosi ta'minlanmagan taqdirda, shuningdek, tovarlar etkazib beruvchilar ketma-ketligida kirimi mavjud bo'lmagan korxonalarga hisobvaraqa fakturalarni rasmiylashtirishni cheklash maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslab berilgan;

soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishni ta'minlash maqsadida Jahon savdo tashkilotining soliq tizimi bo'yicha tavsiyalaridan kelib chiqib, mahalliy va import

qilingan alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich birlashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

qum-shag'al aralashmasini karerda realizatsiya qilish bahosining minimal (1 kub metr uchun 20 ming so'mdan kam bo'lmagan) darajasi hamda mahalliy hokimiyat tomonidan noruda qurilish materiallari uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilash huquqini berish orqali yer qa'ridan foydalanganlik uchun foyda va qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash aniqligini ta'minlash asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

solliqlar yig'iluvchanligi, solliq qarzi va solliq xavfi iqtisodiy kategoriyalarining o'rtasidagi o'zaro ta'sir jihatlari nazariy jihatdan asoslab berilgan hamda ularga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

solliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi instrumentlarning solliq tizimiga ta'siri ko'rsatib berilgan;

solliqlarning yig'iluvchanlik xususiyatlari yoritib berilgan;

solliq xavfini kompleks boshqarish tizimi (Compliance Risk Management-CRM) dasturining iqtisodiy komponentlari"ni ishlab chiqilgan;

xodimlarni legallashtirish orqali solliq yig'iluvchanligini oshirish uslubiyoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O'zbekiston Respublikasi Solliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati solliqlarni yig'iluvchanligi, solliq qarzdorligi va solliq xavfining o'zaro bog'liqligini ta'minlash jarayonini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy va solliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston solliq tizimida byudjet-solliq siyosatining samaradorligini oshirishga, davlat byudjetiga solliq tushumlarining

oshishini ta'minlash, shuningdek, bu boradagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni tayyorlashda, hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliqlar yig'iluvchanligi, soliq xavfi va soliq qarzdorligining o'zaro bog'liqligini ta'minlash bilan bog'liq ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

soliq xavfini to'g'ri baholash, soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq nazoratini samarali tashkil etish triadasidan soliq amaliyotida foydalanish orqali soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzdorligi va soliq xavfining o'zaro ta'sirini to'g'ri baholash va ularni samarali boshqarish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan soliq amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-may kunidagi 27/2-54359-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida uchala soliq ko'rsatkichlari: soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzdorligi va soliq xavfini bir-biriga ta'sirini to'g'ri baholash ularni samarali boshqarish imkonini bergan;

soliq qarzini qoplash bo'yicha 2 oy muddat bilan ogohlantirish berish va ijrosi ta'minlanmagan taqdirda, shuningdek, tovarlar etkazib beruvchilar ketma-ketligida kirimi mavjud bo'lmagan korxonalarga hisobvaraq fakturalarni rasmiylashtirishni cheklash taklifi 2024-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1013-sonli qonunida aks ettirilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-maydagi 27/2-54359-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida soliq ko'rsatkichlari orqali soliq tizimidagi o'zgarishlar va keyingi bosqichlarda byudjet-soliq siyosatining mazmunini aniqlashtirish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda;

soliqlar yig'iluvchanligini oshirishni ta'minlash maqsadida Jahon savdo tashkilotining soliq tizimi bo'yicha tavsiyalaridan kelib chiqib, mahalliy va import qilingan alkohol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich birlashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyuldagi PF-85-sonli "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi

milliy qonunchiligini jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda 2024-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1013-sonli qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-may kuni 27/2-54359-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarga adolatli prinsiplarga asoslangan holda berilishini ta'minlash va soliq yig'iluvchanligini oshirish imkoni yaratilgan;

qum-shag'al aralashmasini karerda realizatsiya qilish bahosining minimal (1 kub metr uchun 20 ming so'mdan kam bo'lmagan) darajasi hamda mahalliy hokimiyat tomonidan noruda qurilish materiallari uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilash huquqini berish orqali yer qa'ridan foydalanganlik uchun foyda va qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash aniqligini ta'minlash taklifi Soliq kodeksining 452-moddasida va 2024-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1013-sonli qonunida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-may kuni 27/2-54359-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

I-BOB. SOLIQ YIG‘ILUVCHANLIGI, SOLIQ QARZDORLIGI VA SOLIQ XAVFI KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNI TA’MINLASHNING NAZARIY ASOSLAR


1.1-§. Soliq ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

Soliq tizimini ichki tarkibiga qaraydigan bo‘lsak, u aslida ikki qismdan iborat bo‘ladi. Birinchisi soliq elementlari bo‘lsa, ikkinchisi soliq ko‘rsatkichlaridir. Soliq ko‘rsatkichlarini to‘laroq anglash va tushunish uchun fikrimizcha, soliq elementlarining mohiyatini aniqlab olishimiz darkor. Soliq tizimini to‘laqonli amal qilishining birinchi bosqichi bu – soliqlarni joriy etish masalasi bo‘lsa, keyingi bosqichi esa uni undirish tartiblarini ishlab chiqish hisoblanadi. Soliqlarni undirish tartiblarining o‘zi ham soliqlarni undirishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish va soliqlarni undirish jarayoniga uslubiy asos bo‘luvchi va amaliy undirish jarayonini ta’minlovchi ko‘rsatkichlar (mezonlar) tizimini yaratish hisoblanadi. Bunday ko‘rsatkichlar tizimi esa odatda *soliq elementlari* deb ataladi. Soliq elementlarining soliq tizimidagi ahamiyati shundaki, joriy qilingan soliqlarni qanday tartibda va qanday usullar yordamida undiriladi degan savollarning yechimini ifodalaydi. Shu jihatdan olganda soliq elementlari metodologik qurilma hisoblanadi. Soliq elementlari nazariy ko‘rsatkichlar tizimini aks ettirishi bilan bir qatorda, soliqlarning aniq chegarasini belgilab olish soliqlarni hisoblash, soliqdan ozod qilinganlarga yondashuvlar, aniqlab olingan soliqlarni jamiyatning sotsial adolat tamoyillarini qo‘llagan holda uning qanchasini budjetga jalb qilish kabi amaliy jarayonlarni o‘zida aks ettiradi. Soliqlarni hisoblashda qonuniy tartibda belgilangan soliq elementlarining ko‘rsatkichlaridan foydalanish zarurligi va uning haqqoniyligiga asoslanadi. Bu borada amaldagi soliq Kodeksida (69-moddasi) soliq elementlari sifatida soliq solish ob’ekti, soliq solinadigan baza, soliq stavkasi, soliqlarni hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, soliqlarni to‘lash tartibi kabi elementlar keltirilgan bo‘lib, ushbu soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to‘lovga tatbiqan belgilanishligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq kodeksining 69-moddasida soliq elementlarining bunday belgilanishi soliqlarni soliq to'lovchidan hisoblab chiqarish va uni to'lovchidan qadar tushish jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi elementlarga asoslangan. Shu bilan birgalikda soliq to'lovchidan soliqlarni undirish jarayoniga xizmat qiluvchi qo'shimcha, qolaversa, muhim bo'lgan boshqa elementlar mavjud bo'ladiki, ularni ham e'tiborga olish talab etiladi. Bunday elementlar sirasiga soliq imtiyozlari, soliq yuki, soliq qarzдорligi, soliq madaniyati kabi elementlar kiradi. Bu elementlarning ahamiyati shundaki, soliqlarni undirish jarayonining samaradorlik ko'rsatkichlarini ifodalash bilan bir qatorda soliqlarni undirish jarayonida har bir elementning ta'siri jihatlarini ham baholab beradi. Shunday qilib, soliq elementlarini ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi bevosita soliq to'lovchidan soliqlarni hisoblash, uni budjetga undirish jarayonlariga xizmat qiluvchi; ikkinchisini esa soliqlarni undirish mexanizmlari va elementlarining samaradorlik va ularning ta'sirchanligini izohlovchi elementlar tashkil etadi.

Umumiy va kompleks jihatdan qaraganda soliq tizimi bu quyidagi tizimlardan: soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, soliq mexanizmi, soliq siyosati va soliq menejmentidan tarkib topadi. Soliq elementlari esa, soliq mexanizmining tarkibida bo'lsa, soliq ko'rsatkichlari soliq menejmentining ichida bo'ladi, biroq, soliq tizimini uning elementlari va ko'rsatkichlari sifatida guruhlashimiz aynan ular bir biriga yaqinligi va soliq ko'rsatkichlari soliq elementlarining ishlash va samara nuqtai nazaridan holatini baholab berishga xizmat qiladi.

Soliq ko'rsatkichlari soliq elementlaridan shunisi bilan farq qiladiki, ular soliqqa tortish jarayonlariga xizmat qilmaydi, soddaroq qilib aytganda soliqlarni undirish mexanizmida soliq ko'rsatkichlari asosiy instrument sifatida qatnashmaydi, balki, soliq elementlarining qanday samara berayotganligini, davlatning soliq siyosatining iqtisodiyotga ta'siri qanday ta'sir qilayotganligi, soliq tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi yoki qo'yilmaganligini izohlab beradi. Buni to'laroq anglash uchun fikrimizcha soliq ko'rsatkichlarining tarkibi nimalardan iborat bo'ladi degan savolga 1.1-rasm orqali javob berish o'rinlidir (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Soliq tizimining tarkibiy jihatdan tuzilishi⁷

Ushbu 1.1-rasmdan ko'rinadiki, soliq ko'rsatkichlari bu soliq elementlaridan farq qiladi. Bu ko'rsatkichlar soliq tizimining samaradorligini tavsiflab beradi. Ularni to'laroq anglab yetish uchun eng muhimlarining iqtisodiy mohiyati xususida to'xtalib o'tsak. Keyingi zamonaviy soliq ko'rsatkichlaridan biri bu soliq uzilishi ko'rsatkichidir. Soliq uzilishi mazmunan bu qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ga ko'proq tegishli tushuncha bo'lib, QQSni to'lash va undirish jarayonida yuzaga keladigan salbiy summaning o'rinishi qoplashda yoki qaytarishda (TaxGap) koeffitsientini qo'llash amaliyotini o'zida ifodalaydi. Bu koeffitsient mazmunan olib qaralganda QQS soliq uzilishi to'lovchusing soliq hisobotida yetkazib beruvchilar

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

tomonidan taqdim etilgan hisobvaraqa- fakturalar asosida hisobga olinadigan soliq summalarini aks ettirishi bo'lib, madomiki, agar bitim ishtirokchisi soliqni to'lamagan bo'lsa, operatsiya ma'lumotlarini taqdim etiladigan hisobvaraqa-fakturalarda aks ettirmagan bo'lsa yoki hisobotni DSQga topshirmagan bo'lsa – bunday mas'uliyatsizlikning barcha oqibatlarini tovarlar va xizmatlarni oluvchining koeffitsientida aks etadi hamda soliq to'lovchining faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi va u orqali tovar aylanmalar bo'yicha soliq bazasining bir maromda shakllanishiga ta'sir qiladi.

Soliq uzilishi (QQS uzilish) koeffitsienti mohiyati jihatidan soliqlarning nazorat funksiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu koeffitsient soliq to'lovchiga o'zlarining iqtisodiy hamkorlari-kontragentlarni tanlashda lozim darajada ehtiyotkorlik bilan yondoshish ma'suliyatini anglatuvchi iqtisodiy-nazorat indikatori hisoblanadi. Soliq uzilishining kelib chiqishi asosan kontragent-iqtisodiy hamkor soliq to'lovchilar tomonidan bitim majburiyatlari bo'yicha soliq to'lovini davlat budjetiga to'lamagan, operatsiyalarni o'z elektron hisob-faktura (EHF)da belgilangan tartibda aks ettirmagan yoki soliq hisobotini o'z vaqtida belgilangan tartibda soliq organlariga topshirmagan holatlar bilan bog'liq bo'lib, ammo, soliq uzilishining yuzaga kelishi yetkazib berish zanjirida ishtirok etuvchi boshqa kontragentlar tomonidan soliq to'lovlarini to'lash bo'yicha insofsizlik qilganligini bildiradi.

Bugungi kunda QQS bo'yicha uzilish uchun interaktiv xizmatlardan foydalangan holda aniqlash mumkin, ya'ni, Davlat soliq qo'mitasining my.soliq.uz portalining bosh sahifasidagi va "QQS to'lovchilarni aniqlash" bo'limiga kirish orqali ochilgan oynada "Soliq uzilishi" ilovasini tanlagan holda ikkita blokni aks ettiruvchi – ularning bittasida soliq to'lovchining o'zining bosh ko'rsatkichlari, boshqasida – harakatlari QQS uzilish koeffitsientiga ta'sir ko'rsatgan hamkorlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali bilish mumkin. Ushbu soliq uzilishini bartaraf etish va korxona soliq uzilishining ko'rsatkichini soliq to'lovchining o'zi mustaqil ravishda pasaytirishi mushkul masaladir. Bu yerda shu narsani e'tiborga

olish kerakki, tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berish zanjirida ishtirok etuvchi barcha hamkorlar “kiruvchi” QQS o‘rnini qoplash uchun soliq solish qoidalariga rioya etishlari lozim bo‘ladi, jumladan, soliq hisobotini topshirish va QQS to‘lashni o‘z vaqtida amalga oshirish zarur bo‘ladi, soliq bo‘yicha qarzdorliklarning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik lozimdir.

Darhaqiqat, aslida agar soliq uzilishining past darajasi – hamkorlarni puxta tanlashning natijasidir degan qoidaga amal qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda soliq organlari tomonidan budjetga kiritilishi lozim bo‘lgan QQS miqdorini kamaytirish huquqini suiiste’mol qilgan korxonalar ro‘yxati shakllantirilgan, shuningdek kontragentning soliq qarzlarini tekshirish va QQS to‘lovchilarini aniqlash xizmatlarini to‘laqonli amalga oshirish talab etiladi.

Bu yerda shuni ham ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi “Tadbirkorlik sub’ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli farmoniga ko‘ra, “Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplash tartibini yanada takomillashtirish, shuningdek, soliqni noqonuniy qoplash holatlarining oldini olish maqsadida 2023-yil 1-oktabrga qadar tajriba tariqasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish va (yoki) realizatsiya qilish bilan bog‘liq bitimlarda ishtirok etgan kontragentlar - sotuvchilar (xaridorlar) tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ining kam to‘langanligi (soliq uzilishi) aniqlanganda, Soliq qo‘mitasiga mazkur kontragentlarga nisbatan soliq nazorati tadbirlarini tayinlash huquqi berilgan”⁸ki demak, soliq uzilishi ko‘rsatkichi bu soliq nazoratini amalga oshirishning bir instrumenti sifatida iqtisodiy munosabatlarda mavjud bo‘ladi.

Soliq ko‘rsatkichlaridan biri bu soliq xavfini boshqarish tizimidir. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida yangi tizim yoki tahlil qilinadigan soliq ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ham soliq organlarida soliq xavfini boshqarish

⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi “Tadbirkorlik sub’ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli farmoni.

tizimining amaliyotga kirib kelishidir. Jahon tajribasida Davlat soliq ma'muriyatining boshqaruv axborot tizimida soliq xavfini boshqarish tizimi (CRM - Compliance Risk Management) ilg'or xalqaro amaliyot bo'lib, uning o'rni va roli tabora yuqori ahamiyat kasb etib bormoqda.

Soliq xavfi - bu budget tizimiga soliq va yig'imlar to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik ehtimoli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarorining 1-ilovasi bilan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida"gi Nizomi tasdiqlangan.

Mazkur qaror talablari hamda u bilan tasdiqlangan nizomga asosan, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jaxon banki va bir qator xalqaro moliya institutlari tafsiyalari asosida Soliq xavfini boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Soliq xavfini boshqarish tizimi 6 ta bosqichdan iborat uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, bular (1) soliq xavfini aniqlash, (2) xavfni tahlil qilish va baholash, (3) xavfni boshqarish usullarini tanlash, (4) ta'sir choralarini qo'llash, (5) xavflarni pasaytirish choralarini ishlab chiqish va qo'llash, hamda (6) o'tkazilgan tadbirlar tahlili (feedback) hisoblanadi.

Soliq organlari tomonidan xavfni boshqarish tizimini qo'llash maqsadi:

yuqori xavfga ega bo'lgan sohalarga e'tiborni jamlash va soliq organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlash;


soliq solish sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini oshirish;

faoliyati bo'yicha soliq xavfi past deb aniqlangan soliq to'lovchilarga (soliq agentlariga) (keyingi o'rinlarda – soliq to'lovchilar) nisbatan soliq nazoratini minimallashtirish;

soliqqa oid huquqbuzarliklarni, shuningdek, soliq tekshiruvlarini o'tkazishga tanlab olinadigan soliq to'lovchilarni inson omilisiz avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot orqali aniqlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

soliq xavfi darajasidan kelib chiqib soliq to'lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari shakllarini belgilash va shu kabilardir.

Soliq xavfini boshqarish jarayonida o'ziga xos vazifa va funksiyalar amalga oshiriladi, bunda (1) soliq xavfi ro'yxati, (2) baholangan korxonalar ro'yxati, (3) komplayns kompaniya rejasi shakllantiriladi, (4) soliq ma'murchiligi tadbirlari amalga oshiriladi, (5) normativ huquqiy hujjatlar (norma ijodkorligi) va texnologik yechimlar ishlab chiqiladi hamda (6) soliq ma'murchiligi baholanadi (natijadorlik). Qayd etish joizki, hozirda, soliq xavflari 4 ta guruhga ajratildi (ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritish, hisobotlar, soliq bazasini yashirish va soliqlarni to'lamaslik) va 41 ta xavflar reestri ishlab chiqilgan. Soliq xavfiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi 1.2-rasmda keltirilgan.



1.2-rasm. Soliq xavfiga ta'sir etuvchi omillar⁹

⁹Элбаева М.Р. Солиқ тизимида солиқ хавфларини бошқаришни такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Т.2023 йил, 37 б.

O'zbekiton soliq tizimida soliq xavfini aniqlash 200 ta mezon (52 ta umumiy, 148 ta sohaviy) asosida amalga oshiriladi hamda 2 ta bosqichli 1000 ballik tizim asosida baholanadi. Soliq xavfini boshqarish tizimi jarayonlari, iqtisodiyot sohalari (qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi) va soliqlar kesimida, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda hamda individual sub'ektlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tadqiqotchi M.Elboevaning fikricha "soliq riskining darajasiga, ya'ni, uni kamayishi yoki ortishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Birinchisi birlamchi, ya'ni ta'sirchanligi yuqori bo'lgan omillar bo'lib, ular jumlasiga, soliq to'lovchining soliq madaniyati, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligi bo'yicha savodxonligi, soliqqa tortish ma'murchiligining holati, soliq to'lovchilarning bozorni o'rganishi va uni tahlil qila olish darajasi, davlat budjeti daromadlari rejalashtirish va soliq to'lovchilarning amaldagi qonunchilik bo'yicha soliq to'lash imkoniyatining bog'lanishi kabilarni kiritish mumkin. O'z navbatida yana shunday omillar ham borki, ular ham ma'lum darajada soliq riskining holatiga ta'sir qilib boradi. Bular tarkibiga soliq qonunchiligidagi noaniqliklar, soliqqa tortishning adolatlilik prinsiplarining buzilishi, turli xil fors-major holatlar va shu kabilarni kiritish mumkin. Fikrmizcha, ushbu omillarni baholab borish, ularni boshqarish hamda ularning darajasini kamaytirish, soliq ma'murchiligida dolzarb masalalardan sanaladi va har qaysi davlatning budjet-soliq siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralish zarur deb hisoblaymiz"¹⁰.

2024-yil mobaynida soliq xavfini boshqarish tizimi natijalariga ko'ra soliq organlari ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda soliq hisobotlarida kamchilik mavjudligi aniqlangan 41286 ta korxonalar bo'yicha kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan. Tizim joriy qilinishi, o'tkazilayotgan tekshiruvlar samaradorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda, maslan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, soliq xavfini boshqarish tizimini baholash natijalariga ko'ra o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari

¹⁰ Қарапг: Ўша манба.

soni 1,3 barobarga ko'paygan bo'lsa, ular natijasida qo'shimcha hisoblangan soliq summalari 1,9 barobarga oshgan (2023-yilda 7,4 mlrd.so'm).

Soliq xavfi va risklari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi M.Elboevaning fikriga ko'ra, "aslini olganda xavflarning o'zini ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Xavf tushunchasi bu riskni vujudga kelishini keltirib chiqaruvchi oraliq holat sifatida baholash o'rinlidir. Shu jihatdan olganda xavf bu salbiy oqibatlarga olib keluvchi oraliq jarayon (hodisa) bo'lsa, risk bu natijaviy holatdir. Risklar ichida tadbirkorlik riski o'ziga xos murakkablik va xususiyatga ega. Avvalo tadbirkorlik faoliyati bu murakkab raqobat muhitidagi noaniq konyunkturaga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida amal qilishi bu borada juda ko'plab risklarni keltirib chiqaradi. Tadbirkorlik riskining darajasi esa, bir tomondan tashqi omillarga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan tadbirkorning iqtisodiy siyosati, uning bilim va malakasi hamda bozor qonunlariga hamda jamiyatdagi qabul qilingan milliy qonunlarga amal qilishiga bog'liq bo'ladi"¹¹.

Soliq xavfini boshqarish tizimi bo'yicha umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu soliq ko'rsatkichi soliq to'lovchilarning soliqdan qochish holatlarini aniqlab beruvchi sifat ko'rsatkich bo'lib, soliq mexanizmining samaradorligini tavsiflaydi.

Yana bir soliq ko'rsatkichlaridan biri soliq yuki hisoblanadi. Soliq yukiga oid ilmiy tadqiqotlarda uni tavsiflash va aniqlashga oid turlicha yondoshuvlar mavjud. Ammo, mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamiyat miqyosida yaratilgan milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari va qancha qismi uni yaratgan iqtisodiy individlarga qolishini tavsiflovchi iqtisodiy indikatordir. Soliq yukini iqtisodiyotda o'lchanishi aslida Yevropa ittifoqining vujudga kelishi va unda boshqa masalalar singari soliqqa tortish jarayonlarini umumlashtirishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan bo'lib, bunda Masstrix shartnomasi bilan tarixga kirgan (1992-yilda Yevropaning Maastrix shahrida imzolagangan shartnoma). Bunda Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotga soliq solish, ya'ni soliq yukining darajasini belgilab

¹¹М.Элбаева. Солиқ рискинни бошқариш услубиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация иши. Тошкент, 2023 йил, 42 б.

olish, mamlakatlar doirasidagi umumiy mezonni aniqlashdan kelib chiqib belgilashni kelishib olgan va uni iqtisodiyotga soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 35 foizdan oshmasligi lozim degan yagona kelishuvga kelishilgan. Yevropa ittifoqiga kirmagan aksariyat boshqa davlatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham mana shu mezonni umumiy tavsiya sifatida o'zlarining iqtisodiyotiga o'lchov sifatida qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarorida Soliq yukini aniqlashning tartibi rasmiy belgilab qo'yildiki, unga ko'ra, u: $B = T \times 100\% / In$ tartibda aniqlanishi tavsiya etildi, ya'ni soliq yuki bu soliq davri davomida to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar summasining 100 soniga ko'paytmasi va soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromadga nisbati sifatida aniqlanadigan bo'ldi. Shuningdek, mazkur qarorga ko'ra "soliq yuki ko'rsatkichi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlanishi, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha soliq yuki ko'rsatkichi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida har yili e'lon qilinib borilishi shart"¹²ligi ham belgilab qo'yildi.

Nazariy jihatdan olganda soliq yuki tushunchasi umumiy tushuncha sifatida soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlarning qiymatini ifodalaydi, ammo uni tushuntirishda uning tarmoqlar, hududlar, korxonalar, aholi darajasiga qarab, quyi darajadagi soliq yukining xususiyatlarini bilishga intilish orqali umumiy soliq yukining mazmunini yanada chuqurroq anglanash va shu tartibda quyi darajadagi soliqqa oid jarayonlardan uning umumiy xulosalar chiqarishga intilish masalasini yanada oydinlashtiradi.

Soliq yukining darajasining umumiy mezonlar darajasida (xalqaro mezon darajada: 30-35 foiz) saqlangan holatining ishlab chiqarishning o'sishi va soliq tushumlarining darajasiga ta'sirini baholash soliq siyosatining qanday samara berayotganligini tavsiflaydi. Yuqori soliq yuki darajasi saqlangan sharoitda ham budjetga soliq tushumlari darajasining kamayib ketishi holati yuz berishi bu boradagi soliq siyosatining samarasizligini ko'rsatadi.

¹² Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 7-январдаги 1-сон қарори.

Qayd etish joizki, keyingi soliq ko'rsatkichlaridan biri bu soliq to'lovchilarning yashovchanlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Ma'lumki, yashovchanlik soliq tadbirkorlarning bozorda jon saqlab qolishining va uning koyukturasiga moslashib, soliq to'lovchi sifatida soliq tushumlarining oshishiga ta'sir qiladigan miqdoriy ko'rsatkich bo'lib, soliq to'lovchi tadbirkorlarning yashovchanligi qancha oshsa, barqaror soliq to'lovchilar soni oshishi hisobiga budjetga soliqlarning tushishining barqarorligi oshadi. Ma'lumki, respublikamizda soliq islohotlari boshidan asosiy e'tibor soliq yukini pasaytirish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay bo'lgan teng raqobat sharoitini yaratishga qaratilib, bunga o'z navbatida biznes sub'ektlari ham faollik bilan javob bermoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlariga yengilliklar yaratish va ularni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yillarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlariga zararlarni joriy soliq davri soliq bazasining 60 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda 10 yil mobaynida kelgusiga o'tkazish bo'yicha cheklovlar bekor qilindi, qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy summasini o'rnini qoplash (qaytarish) uchun soliq organlariga ariza bilan alohida murojaat qilish haqidagi majburiy talab bekor qilindi. Masalan, oxirgi yillar davomida O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat'i nazar hisobga olish tartibi belgilandi. Bundan tashqari, xorijiy valyutadagi tushumni kechiktirish holati uchun qo'llaniladigan moliyaviy jarima miqdori 2 baravarga kamaytirildi, kassa operatsiyalarini yuritish tartibini buzganlik uchun ma'muriy jarima qo'llash bekor qilindi, debitor va kreditor qarzdorliklar muddatini o'tkazib yuborganlik uchun ma'muriy jarima qo'llash bekor qilindi, bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan maydonlari va ular joylashgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilindi, hisobvara-q-fakturalarda yoki nazorat kassa texnika cheklarida olingan tovarlar nomenklaturasida muvofiq bo'lmagan identifikatsiya kodlarini aks ettirganlik uchun moliyaviy jarima qo'llanilmaydigan bo'ldi.

Yuridik shaxslarning yashovchanlik darajasi tahlili 1.1-jadvalda keltirilgan.

Yuridik shaxslarning yashovchanlik darajasi tahlili (yil boshiga)¹³
(fermer va dehqon xo‘jaliklari, notijorat tashkilotlaridan tashqari yuridik shaxslar)

Yillar	Jami													Yangi tashkil etilganlar soni	%
		Faoliyat ko'rsatmayotganlar	%	Shundan:						Faoliyat ko'rsatmayotganlar	%	Tugatilganlar	%		
				1 yilgacha	%	1 yildan ortiq	%	3 yil va undan ortiq	%						
2018	548 260	175 994	32,1	31 091	17,7	40 188	22,8	104 715	59,5	68 387	12,5	23 640	4,3	38 090	6,9
2019	596 030	197 676	33,2	37 202	18,8	47 816	24,2	112 658	57,0	81 888	13,7	36 227	6,1	51 043	8,6
2020	662 366	260 706	39,4	69 898	26,8	64 694	24,8	126 114	48,4	98 421	14,9	23 000	3,5	93 932	14,2
2021	748 878	316 080	42,2	73 160	23,1	107 051	33,9	135 869	43,0	127 951	17,1	24 608	3,3	91 050	12,2
2022	892 605	363 852	40,8	88 403	24,3	66 783	18,4	208 666	57,3	141 590	15,9	106 924	12,0	96 505	10,8
2023	864 983	402 999	46,6	69 423	17,2	75 393	18,7	258 183	64,1	163 814	18,9	17 931	2,1	76 481	8,8
2024	954123	445212	46,6	74214	16,6	77449	17,4	293549	66,0	50891,1	53,4	32116	3,3	84225	8,8

Ushbu keltirilgan jadvaldan ko‘rish mumkinki, 2018-yil boshiga, ya’ni O‘zbekiston soliq tizimida tub burilishlar boshlangan vaqtdan boshlab buyog‘i soliq to‘lovchilarning yashovchanligi nobarqaror o‘tib borgan. Agar, faoliyat ko‘rsatayotgan soliq to‘lovchi tadbirkorlik sub’ektlarining oxirgi uch yildagi hoalatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning umumiy ro‘yxatdan o‘tganlariga nisbatan foizi oshib borgan. Shu bilan bir qatorda 2024-yil boshida faoliyat ko‘rsatmayotgan soliq to‘lovchilar sonining ulushi 53,4 foizni tashkil etib keskin oshgan, tugatilgan soliq to‘lovchilar dinamikasida keskin o‘zgarish bo‘lmagan. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, yangidan tashkil etilganlar va faoliyatini tugatgan soliq to‘lovchilar nisbati o‘zgarish ijobiy jihatdan 52109 tani (84225-32116) tashkil qilgan va bu soliq to‘lovchilarning yashovchanlik koeffitsientining oshib borishiga ijobiy ta’sir qilgan. Albatta buning oshishiga bir qator omillar sabab bo‘lganligini ham keltirib o‘tish mumkin. Jumladan, soliq ma’murchiligidagi islohotlar, soliq to‘lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari va ularning faoliyatiga davlat aralashuvining kamayib borishi eng muhim omillar bo‘lgan.

¹³Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida, 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvargacha ko'plab tuman (shahar)dagi chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona, avtotransport, kompyuter boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subektlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi va aylanmadan olinadigan soliq 1 foiz etib belgilandi. Bu kabi so'nggi yillarda tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimlarining joriy etilishi, biznesga soliq yukini pasaytirilishi hamda yangi iqtisodiy instrumentlar joriy qilinishi, pirovard natijada – tadbirkorlik sub'ektlarining faolligini oshishi hamda “yashovchanligi” yaxshilanishiga zamin yaratdi.

Soliq kodeksining 15-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “2022-yil uchun “O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida”gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-73-son qarori talablari asosida soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetida “Mening holatimni tekshirish” interaktiv xizmati ishga tushirilib, har bir tadbirkorlik sub'ektiga o'zining soliq xavfi darajasini tekshirib borish imkoniyati yaratilgan. Endigi qadam, soliq va tadbirkorlik sohasida qonunchilik hujjatlariga rioya etishi, soliq majburiyatlarini bajarish samaradorligi va to'liqligi bo'yicha aniq mezonlarga muvofiq berilgan ballar bo'yicha ularning “Ishonchlilik indeksi”ni belgilash bo'ladi.

Uning natijasi bilan bunday soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yangi darajaga chiqarish va yil yakuni bilan rag'batlantirish, soliq chegirmalari berish kabi yangi institutlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida soliq ko'rsatkichlarining ayrimlari xususida ularning iqtisodiy mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari keltirildiki, ularning har biri ma'lum bir soliq tizimining amaliy holatini tahliliy ko'rsatib beradi, umumiy soliq siyosatining yo'nalishlarining qanday samara berayotganligi haqida ma'lumot beradi va ularning ayrim qirralarini kuchaytirish yoki yumshatish haqida qarorlar qilishga undab boradi. Bulardan tashqari yana muhim hisoblanadigan soliq ko'rsatkichlari borki, ular tadqiqot ishimizning asosini (ob'ektini) tashkil qilganligi uchun ularni alohida tadqiq qilishni lozim topdik.

1.2-§. Soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzdorligi va soliq xavfi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy masalalari

Tadqiqot ishimizning asosiy mazmuni soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzdorligi va soliq xavfi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi masalalari bo'lganligi sababli bu ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularga oid ilmiy-nazariy qarashlar, ularga oid mualliflik yondoshuvlarimiz hamda ular yuzasidan mualliflik ta'rifni shakllantirishni mazkur bandeda alohida ko'rib chiqishni ilmiy jihatdan lozim deb hisobladik.


Soliq yig'iluvchanligining iqtisodiy kategoriyasi soliq ko'rsatkichlari ichida natijaviy ko'rsatkich hisoblanib, soliq xizmati organlari faoliyatining natijadorligini ko'rsatadi. Chunki, soliqlarning yig'ilishiga qarab soliqlarning fiskal xususiyati namoyon bo'ladi, soliq xizmati organlari faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi, shu bilan birgalikda soliq majburiyatlarining bajarilish darajasiga ta'sir qiladi. Shuningdek, soliqlarning yig'iluvchanligi davlat soliq siyosatining naqadar samara berayotganligi yoki aksincha holatini ifodalaydi. Soliq yig'iluvchanligi odatda haqiqiy undirilgan soliq tushumlari va potensial soliq tushumlari o'rtasidagi farqni ifodalaydi, bu ko'rsatkich soliq tizimining samaradorligini va uning davlat budjetiga daromad keltirish imkoniyatlarini baholash imkonini beradi.

Soliqlarni samarali undirish yoki uning yig'iluvchanligi darajasi hukumatning moliyaviy barqarorligining muhim jihati bo'lib, uning ijtimoiy ehtiyojlarini, infratuzilma loyihalarini va boshqa muhim majburiyatlarini qondirish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Mohiyatan soliqlarni undirish - bu davlat yoki soliq organlarining soliq to'lovchilardan belgilangan qonun hujjatlariga muvofiq soliqlarni undirish qobiliyatidir. Bu soliq tizimining samaradorligini va davlatning moliyaviy barqarorligini baholashning muhim ko'rsatkichidir. Yuqori soliq yig'implari odatda soliq to'lovchilar soliqlarni to'g'ri to'layotganligi va soliq tizimining samarali ishlayotganligini ko'rsatadi.

Soliqlarni yig'iluvchanligini yaxshilash uchun unga ta'sir qiluvchi omillarning barchasini hisobga olish va soliqlarni halol to'lashni rag'batlantiradigan

va soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydigan soliq tizimini rivojlantirishga intilish muhimdir. Soliqlarning yig'iluvchanligini odatda davlat yoki soliq organlarining soliq to'lovchilardan qonuniy majburiyatlarga muvofiq soliq tushumlarini undirish imkoniyati tushuniladi. Bu soliq tizimining samaradorligini baholash va budjet majburiyatlarini bajarish uchun muhim ko'rsatkichdir. Yuqori soliq yig'iluvchanligi odatda soliq jarayonlarini samarali boshqarish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni minimallashtirish va soliq to'lovchi daromadlarini oshirishga yordam beradigan iqtisodiy faollik darajasi bilan bog'liq.

Soliqlarning yig'iluvchanligi hajmini oshirish davlat organlari va moliya institutlari uchun budjetni moliyalashtirishda soliq resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. Yuqori soliq undirilishi davlatga ijtimoiy dasturlar, infratuzilma, mudofaa va iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlarini moliyalashtirish imkonini beradi. Soliqlarning yig'iluvchanligi ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi, bularni kengroq tushuntirish uchun ushbu rasmdan foydalanamiz (1.3-rasmga qarang).



1.3-rasm. Soliq yig'iluvchanligining xususiyatlari¹

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu keltirilgan 1.3-rasmdan ko‘rish mumkinki, soliq yig‘iluvchanligi ko‘rsatkichi natijaviy indikator sifatida soliq tizimidagi barcha hatti-harakatlarning natijasini baholaydi. Mohiyati jihatdan u hisoblangan soliq summasining haqiqatda budjetga kelib tushishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan u soliqlarning ixtiyoriy, ongli ravishda to‘langanligi va majburiy tartibda undirilgan soliq tushumlarini o‘zida aks ettiradi. Ya’niki, hech qanday iqtisodiy-ma’muriy ta’sir choralarisiz soliq to‘lovchilar tomonidan budjetga to‘langan soliq summalarini aks ettiradi. Shu jihatdan soliq qonunchligi bo‘yicha amaldagi soliq majburiyati yuklatilgan soliq to‘lovchilar tomonidan hisoblangan soliq summolari va amalda budjetga kelib tushgan soliq summalarining bir-biriga tengligi juda kamdan-kam holatlarda ro‘y beradi, ya’niki soliq madaniyati o‘ta yuqori bo‘lgan holatlarda soliq yig‘iluvchanligi 1,0 koeffitsientga yoki 100 foizga teng bo‘ladi. Ammo, soliqdan bo‘yin tovlash yoki uni to‘lashdan qochishning qonuniy va noqonuniy yo‘llaridan foydalangan soliq to‘lovchilar, shuningdek, soliqlarni bilmasdan noto‘g‘ri hisoblab qo‘yish va texnik sabablarga hamda fors-major holatlar tufayli soliqlarning budjetga o‘z vaqtida tushmay qolishi bu 1,0 koeffitsient darajasida soliq tushumlarining mavjud bo‘lishiga imkon bermaydi.

Albatta soliqlar yig‘iluvchanligini mohiyatini iqtisodiy-ilmiy adabiyotlarda turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, U.Berdieva “Soliqlar yig‘iluvchanligi – yaxlit tashkiliyhuquqiy asoslarda soliq munosabatlari sub’ektlarining hamkorlikda o‘rishga ixtiyoriylik asosida erishish orqali o‘z soliq majburiyatlarini bajarishi orqali soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning budjetga o‘z vaqtida va bir maromda tushishini ta’minlash jarayonidir”² deb ta’rif bersa, Rossiyalik iqtisodchilar Ye.Gurvich va A.Suslinalar “soliqlarni undirish darajasi soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligi sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Keng ma’noda “soliqlarning yig‘iluvchanligini haqiqatda undirilgan soliq to‘lovlari hajmining tegishli soliq bazasidan nazariy jihatdan olinishi mumkin bo‘lgan hajmga nisbatini

²Бердиева Угулой Абдурахмановна. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида солиқларнинг йигилувчанлигини ошириш йўллари. 08.00.07 – молия, пул муомаласи ва кредит иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Тошкент-2019, 13 б.

tavsiflovchi ko‘rsatkich deb atash mumkin”³ deb ta’riflaydi, yana bir manbada “soliq yig‘iluvchanligini bu ko‘rib chiqilayotgan (hisobot) davridagi soliq to‘lovlari bo‘yicha budjetga haqiqiy tushumlar summasining maksimal miqdoriga nisbatidir, ko‘rib chiqilayotgan davr uchun soliq to‘lovlarining maksimal miqdori xuddi shu davrdagi haqiqiy tushumlardan va statistik ma’lumotlar asosida aniqlangan soliq to‘lovlari bo‘yicha umumiy qarzdani iborat”⁴dir deb ta’kidlaydi.

S.Gombojapova esa, soliq yig‘iluvchanligi ko‘rsatkichini iqtisodiy tahlil qilib, uning soliq qarzdorligi o‘rtasidagi bog‘liqligini ochib beradi. Uning fikricha, “soliq yig‘iluvchanligi bu soliq organlarining nazorat ishlari samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, soliqlarni yig‘ish darajasi hisobot moliya yili uchun haqiqiy soliq tushumlarining o‘tgan yillardagi qarzlarni to‘lashni hisobga olmagan holda hisobot moliya yilida hisoblangan summalarga foiz nisbati sifatida hisoblanishi kerak”⁵ deydi.

Soliqlarni yig‘iluvchanlik muammosi va uning soliq qarzdorligi ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda tadqiq etish mahalliy olimlarimizdan professor F.Mirzaevning ilmiy ishlarida dastlabki ilmiy tadqiqotlar qilingan. F.Mirzaev “soliqlarning yig‘iluvchanligiga soliq qarzdorligining salbiy ta’sirini ilmiy baholab bergan, soliqlarning yig‘iluvchanligiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatib bergan, bu boradagi muammolarning mazmunini asoslagan va ularni yechimlari bilan bog‘liq ilmiy tavsiyalar bergan. Shuningdek, ushbu tadqiqotchi soliq yig‘iluvchanligini aniqlash metodologiyasi bo‘yicha ham o‘z takliflar”⁶ni bergan bo‘lsa, dotsent. U.Berdievaning bu boradagi ilmiy tadqiqotlari ancha salmoqlidir. U.Berdieva o‘zining iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasida “soliqlar yig‘iluvchanligining mohiyati va uning zarurligini

³Е.Гурвич, А.Суслина. Динамика собираемости налогов в России: макроэкономический подход. Финансовый журнал / Финансиал жоурнал №4 2015.

⁴ Измаилов Алексей Тахирович. Налоговое администрирование и его значение в повышении собираемости налогов. 08.00.10 — финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук москва 2005, 18 с.

⁵С.В.Гомбожапова. Собираемость налогов как основной показатель результативности налогового контроля. Иркутской государственной экономической академии (Байкальский государственный университет экономики и права). 2011. № 2.

⁶Мирзаев Ф. Ўзбекистонда солиқ йиғилувчанлиги даражасини ошириш йўллари. Иқт. фанл. номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. Автореферати – Т.: 2012. –21-б.

asoslagan, uning omillarini ilmiy tadqiq etgan, soliqlar yig'iluvchanligini baholash uslubiyotini tahlil qilgan, soliqlar yig'iluvchanligini oshirish yuzasidan xorij tajribalarini qiyosiy o'rgangan, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning yig'iluvchanligi holatini, hududlar miqyosida soliqlar yig'iluvchanligini ta'minlash holatini ilmiy tahlil qilgan, soliqlar yig'iluvchanligini oshirish yuzasidan soliq nazorati va soliq qarzdorligini undirish samaradorligini oshirishning hamda soliqlar yig'iluvchanligini oshirish yo'nalishlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflarni shakllantirgan"⁷.

Yana bir mahalliy olimlarimizdan professor. F.Isaev yirik korxonalarda soliqlarning yig'iluvchanligi va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan. F.Isaev xalqaro amaliyotni tahlil qilgan holda undan O'zbekiston soliq tizimida foydalanish uchun o'zining ilmiy uslubiyotini taklif etadi, ya'ni, uning taklificha, "korxonalarda soliq yig'iluvchanligini aniqlash uchun korxonaning haqiqatda budjetga to'lagan soliqlarini soliq majburiyatlari bo'yicha hisoblagan soliq summasi nisbati sifatida olish lozim deb hisoblaydi"⁸.

Dotsent. X.Djamalov ham soliq ma'murchiligi bo'yicha ilmiy tadqiqotida "soliqlarning yig'iluvchanligini soliq ma'murchiligining bir bo'g'ini sifatida tahlil qilgan, budjetga soliq tushumlarini bir maromda tushishini ta'minlash va soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish uchun soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar bergan"⁹.

Shuni qayd etish lozimki, Soliq kodeksining 55-moddasi soliq qarzi deb nomlagan bo'lib, unda soliq qarzi tushunchasiga ta'rif ham keltirilgan. Ya'ni, "soliq qarzi deb "hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarning summalari, shuningdek soliq Kodeksida belgilangan muddatda to'lanmagan

⁷Бердиева Угулой Абдурахмановна. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида солиқларнинг йиғилувчанлигини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Тошкент-2019, 52 б.

⁸Исаев Фахриддин Икромович. Йирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини такомиллаштириш. Иқтисодиёт ва таълим // 2023-йил 1-сон.

⁹Джамалов Хасан Нуманжанович. Eurasian Journal Of Law, Finance And Applied Sciences Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 4, April 2023 ISSN 2181-2853 Page 91.

moliyaviy sanksiyalar va penyalar”¹⁰ nazarda tutiladi. Shuningdek, ushbu kodeksning qo'llaniladigan boshqa tushunchalar deb nomlanuvchi 60-moddasida tan olingan soliq qarzi hamda umidsiz qarz tushunchalarining ham ta'rifi keltirilgan. Unga ko'ra, tan olingan soliq qarzi bu soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab o'n kalendar kun ichida soliq to'lovchi tomonidan e'tiroz bildirilmagan qarz yoki sud qarori bilan tasdiqlangan qarz deb, umidsiz qarz tushunchasi esa, sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud qarzdorning bankrot deb topilganligi, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz”¹¹ deb keltirilgan. Shuningdek, 96-moddada esa soliq qarzining undirilishini umidsiz deb e'tirof etish normasi ham mavjud bo'lib, qaysi hollarda umidsiz deb tan olinishi masalasiga oydinlik kiritilgan.

Quyida esa, aynan soliq yig'iluvchanligi va soliq qarzdorligining o'zaro bog'liqligiga oid ayrim ilmiy tadqiqot ishlarini tahlilini keltiramiz. Shunday ilmiy tadqiqotlar sirasiga S.Salminaning tadqiqotlarini keltirish mumkin. S.Salmina tadqiqoti doirasida soliq qarziga oid konsepsiyalarni ilmiy tahlil qilgan holda soliq qarzining paydo bo'lish sabablari va omillarini ko'rsatib bergan, soliq qarzi, soliq ma'murchiligi, soliq yig'iluvchanligi ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilgan, soliq qarzini boshqarishning konseptual jihatlarini tahlil qilgan va ular bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Shuningdek, “soliq qarzini kamaytirishning samaradorligini baholashning mavjud usullarini tahlil qilgan, va ular bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan, soliq tavakkalchiligini aniqlashga yondashuvlarni ko'rib chiqqan, soliq organlari va soliq to'lovchilar uchun soliq qarzlarini ma'muriyatlalashtirish risklarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlagan, soliq qarzining tarkibi va tuzilishini tahlil qilgan, uning ko'payishiga (kamayishiga) ta'sir etuvchi omillarni aniqlagan, va soliq sifatini oshirishga yordam beradigan yechimlarni taklif qilgan, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish maqsadida ularning faoliyati samaradorligini baholash uchun mavjud

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 55-modda. <https://lex.uz/docs/4674902>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 60-modda. <https://lex.uz/docs/4674902>

ko'rsatkichlarni to'ldirishning maqsadga muvofiqligini asoslagan, soliq tavakkalchiligini o'z vaqtida aniqlash, ularning ahamiyatini, yuzaga kelish ehtimolini baholash va ularni yumshatish bo'yicha zarur choralarni ko'rish imkonini beruvchi soliq qarzini ma'muriyatchilik qilish bo'yicha risklarni baholash xaritasi modelini taklif qilgan"¹².

Yana bir iqtisodchi olim I.Jalonkina soliq qarzдорligiga oid ilmiy tadqiqotlarida uning soliq yig'iluvchanligi bilan bog'liqligini tahlil qiladi. Ya'ni, ilmiy tadqiqotlarida soliq va yig'implarni undirish bo'yicha soliq organlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha jahon va mahalliy tajribani tahlil qilgan, mavjud soliq majburiyatlarini kamaytirishning mumkin bo'lgan mexanizmlarini aniqlagan va soliqlar va yig'implarni undirish mexanizmi samaradorligini oshirishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqqan, soliq qarzlarini undirish mexanizmining o'ziga xos modelini hamda soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullarini shakllantirgan, soliq va yig'implarni undirish mexanizmining asosiy parametrlari, mohiyati va ishlash algoritmini ochib bergan, soliq to'lovlarini undirish mexanizmining samaradorligini tahlil qilgan, soliq qarzini undirish darajasi pastligining asosiy sabablarini aniqlab bergan, joriy soliq to'lovlari va qayta tuzilgan qarzlarining budjet tizimiga o'z vaqtida va to'liq tushumini ta'minlash uchun soliq qarzini restrukturizatsiya qilishni qo'llash maqsadga muvofiqligini asoslagan va shu kabilar¹³. Shuningdek, soliq qarzlarini undirishda davlat soliq xizmati organlarining faoliyatini yanada yaxshilash va soliq yig'iluvchanligini oshirishning muhim ustuvor yo'nalishlarini ham keltirib o'tgan.

Aytish mumkinki, soliq qarzдорligining kelib chiqish sabablari, ularni kamaytirish yo'llari hamda shu orqali soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish yo'nalishlari xususida bir qator olimlar, shu jumladan, T.A.Aushev, S.A.Leonov,

¹²Салмина Светлана Виталевна. Администрирование налоговой задолженности и налоговые риски. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Специальность 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит Казан – 2022, 23 с.

¹³Жалонкина Ирина Юревна. Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации. 08.00.10 — финансы, денежное обращение и кредит Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Томск-2012, 26 с.

O.Tkachenko, S.V.Rubanov, M.V.Chernova, V.I.Yanchenko, I.T.Balabanov, I.G.Kukina, P.A.Markov, A.D.Radigin, O.S.Selevich, Yu.Simachev, M.V.Telyukina, A.Traynin, SYu.Chuchi, O.V.Vrublevskaya, A.D.Ayushiev, N.P.Lyubushin, Ye.N.Makarova, I.A.Blank, L.A.Drobozina, V.V.Kovalev, SYu.Kunisina, M.V.Romanovskogo, L.Bokareva, N.A.Breslavseva, V.Vitryanskogo, N.V.Gavrilova, S.A.Karelina, G.F.Shershenevich va A.V.Yuxninlarning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin. Bundan tashqari Dj.K. Van Xorn, V.V.Korolev, G.Pape, V.V.Stepanovlar soliq qarzdorligi va soliqlarning o'z vaqtida budjetga tushishini ta'minlashning konseptual muammolarining xorij tajribalarini tahlil qilgan va milliy soliq tizimi bo'yicha qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqqan.

A.Pirogovaning ilmiy tadqiqotlarida ham soliq qarzdorligi va soliq tushumlarining ko'payishi, soliq yig'iluvchanlik masalalari o'rin olgan. Jumladan, korxonalarning soliq qarzi tushunchasiga aniqlik kiritadi, soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va yig'imlar, penyalar va soliq sanksiyalarini to'lash majburiyatini bajarmaslik jarayonida yoki uni bajarish shartlarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar miqdori sifatida aniqlab bergan, soliq qarzlarni muddati o'tgan va shartli soliq qarzlarga bo'lib tahlil qilgan, soliq organlarining statistik ma'lumotlari asosida nochor tashkilotlarning soliq qarzlarning sifat va miqdor parametrlarini baholashning uslubiy yondashuvini ishlab chiqqan, tashkilotlarning to'lovga layoqatsizligi natijasida kelib chiqadigan fiskal yo'qotishlarni budjet tizimining darajasiga qarab, shuningdek, bunday yo'qotishlarni aniqlash va baholash imkoniyatiga qarab tasniflashni taklif etgan¹⁴.

Shuningdek, O.Bondar soliq qarzdorligini kamaytirishning kompleks chora-tadbirlariga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazgan, I.Vinoxodova soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorligi va soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishning uslubiy yo'nalishlarini ko'rsatib bergan, S.N.Alixin va D.A.Levachevalar soliq qarzlarni

¹⁴Пирогова Алена Валеревна. Налоговая задолженность в условиях несостоятельности организаций. Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск – 2009. 23 с.

majburiy undirishning metodologik masalalarini yoritgan, A.Matyushin esa, soliq qarzdorligini undirishning xorij tajribasiga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borgan¹⁵.

Albatta, soliq qarzdorligi va ularni kamaytirish orqali soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish muammolari mahalliy olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida ham tadqiq qilingan. Shunday tadqiqotlar sirasiga dotsent. A.Giyasov soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni kamaytirish muammolari va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida soliq qarzining iqtisodiy mohiyatini ochib bergan, ularning yuzaga kelish sabablarini ma'lum bir mezonlar asosida guruhlab bergan, soliq qarzlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan omillarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilgan va ularni kamaytirishning uslubiyoti bo'yicha takliflar bergan¹⁶. A.Tangriqulov, A.Xomma, Sh.Toshmatov, I.Norqo'ziev va N.Roziqovlar muallifligidagi "Soliq qarzi va uni undirish nomli o'quv qo'llanmasida soliq qarzlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularning vujudga kelish sabablari ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq qarzini undirish muammolariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiya (iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori) tadqiqotini amalga oshirgan N.Roziqov bir qator ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Ya'ni, "soliq qarzdorligining ortib ketishini oldini olish maqsadida, soliq to'lovchilarni ma'lum bir muddatga soliqlar va yig'imlardan ozod qilish, soliq stavkalarini pasaytirish, soliqlar va yig'imlarni kechiktirib to'lash imkoniyatini berish bo'yicha takliflarni asoslagan; iqtisodiy inqirozlar va pandemiya kabi favqulodda holatlar davom etayotgan davr uchun mavjud soliq qarzdorligi summalariga vaqtinchalik penya hisoblamaslik tartibini joriy etish bo'yicha taklif bildirgan, hisobotlar va jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish

¹⁵ Бондар О.А. Алгоритм расчета результативности реализации комплекса мероприятий по снижению уровня налоговой задолженности // Сибирская финансовая школа. 2011. № 3. С. 124–125. Зарубежный опыт взыскания налоговой недоимки. Виноходова И.Г. Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // Научная статья, 2019 г. – С.22., Алихин С.Н., Левачева Д.А. Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед Бюджетом // Налоги. – 2018 г. – С.28., Матюшин А.В. Законодательство зарубежных стран о совершенствовании процедуры взыскания налоговой задолженности. Налоговые и таможенные проблемы. Бизнес в законе. М.: №1. 2009.

¹⁶ Гиясов С.А. Солиқлар ва мажбурий тўловлар бўйича қарздорликларни камайитириш муаммолари. "Миллий иқтисодийётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш орқали рақобатбардошлигини ошириш йўллари"га бағишланган илмий семинар материаллари тўплами // Т.: Иқтисод-Молия, 2018.

muddati hamda deklaratsiya bo'yicha hisoblangan soliqni to'lash muddatlarini kechiktirish taklifini asoslagan, alohida sharoitlarda soliq qarzдорligining paydo bo'lishi yoki mavjud qarzдорlikning ortib ketishini oldini olish maqsadida me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqligini asoslagan, soliq to'lovchilarni qarzдорligi ortib ketishining oldini olish maqsadida ma'lum bir muddatga soliqlar va yig'implardan ozod qilish, stavkalarni pasaytirish, soliqlar va yig'implarni kechiktirib to'lash mexanizmlarini joriy etish lozimligini asoslagan"¹⁷.

Yana bir tadqiqotchi U.Xakimov ham o'zining ilmiy maqolasida soliq qarzдорligini kamaytirishning ayrim xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilgan, ulardan O'zbekiston soliq tizimida amaliyotda foydalanish yo'llarini keltirib o'tgan. Masalan, Ispaniyada soliq qarzдорligi bo'yicha jarimalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan, Yaponiyada soliq qarzларini undirishda soliq xizmati organlarining vakolatlarini qiyosiy tahlil qilgan va ularning vakolatlaridan foydalanish bo'yicha ayrim takliflarni bergan, Kanada va Avstraliya davlatlarida soliq qarzдорligini kamaytirishda qo'llaniladigan ma'muriy va iqtisodiy usullardan foydalanishning ahamiyatini yoritib bergan, shuningdek, Buyuk Britaniyada soliq qarzдорligi vujudga kelgan va soliq to'lovchilar tomonidan uzoq vaqt to'lamagan taqdirda ularga qo'llaniladigan moliyaviy jarimalar va ularning huquqiy asoslari haqida keltirib o'tgan¹⁸.

Tadqiqotchi N.Qurbanqulovanning ilmiy tadqiqotlarida soliq qarzдорligi va soliqlarning yig'iluvchanligi bilan bog'liq jihatlarini ko'rish mumkin. Xususan, u "soliqlarning yig'iluvchanligini "amaldagi qonunchilik asosida belgilanadigan soliq majburiyatlarining bajarilish to'liqligi sifatida ishonarli ta'riflash va ma'lum davrda soliq majburiyatlari miqdoriga kelib tushadigan soliq to'lovlari miqdori nisbati tarzida ifodalash maqsadga muvofiqdir"¹⁹ deb ta'rifni keltirish bilan birga soliq

¹⁷ Розиков Нурилла Бахромович. Солиқ қарздорлигини бартараф этиш механизмини такомиллаштириш 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Тошкент шаҳри – 2023-йил. 58. б.

¹⁸Хакимов Улуғбек Фурқат ўғли. Солиқ қарздорлигини қисқартиришда хорижий мамлакатлар тажрибаларидан фойдаланиш йўллари. "Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар" (Economics and Innovative Technologies) илмий электрон журнали. 1/2024, январь-феврал (№ 00069).

¹⁹Қурбанкулова Н.Қ. Солиқлар бўйича қарздорлик сабаблари, оқибатлари, олдини олиш ва бартараф этиш йўллари. Иқтисод ва молия // экономика и финансы 2013, №10.

qarzini kamaytirish soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishning muhim omili sifatida baholaydi. Shuningdek, tadqiqotlarda soliq boqimandaligi va soliq qarzini kamaytirishda soliq qonunchiligini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalarni keltiradi, soliq boqimandaligini keltirib chiqaruvchi omillarni tartiblashning yo'nalishlarini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotchi N.Qurbanqulovanning xulosalariga ko'ra, "birinchidan, soliqlar bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelishining asosiy sabablari sifatida soliq madaniyati, soliq to'lovchining moliyaviy holati, qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holatlarni keltirish mumkin, ikkinchidan, soliqlarning o'z vaqtida va to'liq tegishli budjetlarga tushmasligi davlat budjeti defitsitining ortishiga, inflyatsiya darajasi yoki ichki va tashqi qarzlarning o'sishiga, soliq stavkalari o'sishi va yangi soliq turlarining joriy etilishi natijasida soliq yuki darajasining oshishiga, umuman, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy barqarorligining pasayishiga olib keladi, uchinchidan, soliqlar qarzdorligini bartaraf etishning ixtiyoriy shakli soliq to'lovchi tomonidan soliq xatolarini bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'lsa, majburiy shakli ma'muriy tartibda, vakolatli organlar tomonidan yoki bank tuzilmalari orqali undirishda namoyon bo'ladi, to'rtinchidan, solliq madaniyatini yuksaltirish, soliq qonunchiligini takomillashtirish va barqarorligini ta'minlash, moliyaviy va ma'muriy ta'sir choralarini kuchaytirish, soliq yukini optimallashtirish soliqlar bo'yicha qarzdorlik holatlarining kamayishiga xizmat qiladi va bu, o'z navbatida, budjet daromadlarining belgilangan tartibda shakllanishi orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholi turmush farovonligining o'sishiga olib keladi"²⁰.

Soliq xavfi (soliq risklari) bilan soliq yig'iluvchanligi o'rtasida juda muhim bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik soliq tizimining samaradorligini baholashda va soliq ma'murchiligini takomillashtirishda asosiy omil hisoblanadi. Soliq xavfi va yig'iluvchanlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyidagi 1.2-jadvalda keltirilgan solishtirma orqali ko'rishimiz mumkin.

²⁰ Қурбанқулова Н.Қ. Солиқлар бўйича қарздорлик сабаблари, оқибатлари, олдини олиш ва бартараф этиш йўллари. иқтисод ва молия // экономика и финансы 2013, №10.

Soliq xavfi va yig'iluvchanlik o'rtasidagi bog'liqlik²¹

№	Soliq xavfi	Soliq yig'iluvchanligi	Bog'liqligi
1	Xavf darajasi past	Yig'iluvchanlik yuqori	Soliq to'lovchilar qonuniy, hisobotlar to'g'ri, nazorat samarali
2	Xavf darajasi o'rtacha	Yig'iluvchanlik o'zgaruvchan	Soliq tizimida ayrim kamchiliklar mavjud, lekin to'lovchilarning katta qismi qonuniy ish yuritadi
3	Xavf darajasi yuqori	Yig'iluvchanlik past	Soliq to'lovchilar soliqdan bo'yin tovlashga moyil, "yoshirin iqtisodiyot" katta, nazorat samarasiz

Ta'kidlash lozimki, agar soliq xavfini tahlil qilish tizimi samarasiz bo'lsa (masalan, xatarga asoslangan audit yomon ishlasa), u holda yuqori riskli korxonalar aniqlanmaydi → soliq yig'iluvchanligi pasayadi, o'z o'rnida agar soliq xavflarini erta aniqlash tizimi (risk mapping) samarali ishlasa, yuqori xavfli to'lovchilar nazoratga olinadi → yig'iluvchanlik oshadi. Umumiy qilib aytganda soliq xavfining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, soliq yig'iluvchanligi shunchalik past bo'ladi. Soliq xavflarini kamaytirish, xavfga asoslangan nazorat tizimini joriy etish esa soliq yig'iluvchanligini oshiradi.

O'z navbatida soliq xavfi yuqori bo'lganda soliq yig'iluvchanligi pasayadi – chunki soliqlar to'liq yig'ilmaydi, yashirin iqtisodiyot ortib boradi, biroq, soliq xavfi past bo'lganda soliq yig'iluvchanligi oshadi – chunki soliq intizomi yuqori, nazorat samarali bo'ladi. O'z navbatida soliq xavfi yuqori bo'lganda soliq ma'murchiligi xarajatlari ortib boradi (tekshiruv, tahlil va jazo xarajatlari ko'payadi), soliq to'lovchilarning ishonch darajasi adolatsiz yoki murakkab tizim natijasida pasayadi. Umumiy qilib aytganda soliq xavfining yuqori bo'lishi soliq yig'iluvchanligini pasaytiradi, chunki davlat barcha majburiyatlarni aniqlash va yig'ishga ulgurmaydi. Soliq xavfini baholash va boshqarish (masalan, risk-based audit yoki risk mapping) orqali davlat soliq yig'iluvchanligini oshirishi mumkin, demak, soliq xavfini kamaytirish = soliq yig'iluvchanligini oshirish degan tenglik amal qiladi.

²¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birga soliq xavfi bilan soliq qarzdorligi o'rtasidagi bog'liqlik soliq ma'murchiligini tahlil qilishda va yig'iluvchanlikni oshirishda juda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash muhim, buni quyida keltirilayotgan 1.3-jadval ma'lumotlari misolida tushuntirib o'tamiz:

1.3-jadval

Soliq xavfi va soliq qarzdorligi o'rtasidagi bog'liqlik jihatlari²²

Ko'rsatkich	Soliq xavfi yuqori bo'lganda	Soliq xavfi past bo'lganda
Soliq qarzdorligi hajmi	Ortib boradi – chunki korxonalar soliqlarni o'z vaqtida to'lamaydi yoki yashiradi	Kamayadi – chunki nazorat tizimi samarali, to'lov intizomi yuqori
Budjet daromadlariga ta'siri	Manfiy – rejalashtirilgan tushumlar kechikib keladi yoki umuman to'lanmaydi	Ijobiy – budjet barqarorligi ta'minlanadi
Soliq organlari yuki	Oshadi – qarzlarni undirish, penya hisoblash va sud ishlari ko'payadi	Kamayadi – avtomatlashtirilgan nazorat yetarli bo'ladi
Ishonch va intizom darajasi	Pasayadi – to'lovchilar tizimga ishonmaydi yoki javobgarlik past	Talab darajasida bo'ladi

Yuqorida keltirilgan 1.3-jadvaldan ko'rinadiki, ularning orasidagi munosabatlarda sabab-natija munosabati yuzaga keladi, ya'ni, bir tomondan yuqori soliq xavfi → soliq majburiyatlari buziladi → soliq qarzdorligi oshadi yo'nalishda tendensiya yuzaga kelsa, boshqa tomondan samarali xavf tahlili va boshqaruvi → soliq xavfi kamayadi → soliq qarzdorligi qisqaradi kabi jarayon yuzaga chiqadi.

Umumiy qilib aytganda, soliq xavfi – soliq qarzdorligining asosiy manbai hisoblanadi. Soliq xavfini o'z vaqtida aniqlash va kamaytirish orqali qarzdorlikni oldindan bartaraf etish mumkin bo'lsa, soliq ma'murchiligida xavflarni tahlil qilish (risk-based management) soliq qarzdorligini qisqartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda soliq xavfi – sabab, soliq qarzdorligi – natija bo'lib yuzaga chiqadi, chunki, agar soliq xavfini aniqlash va boshqarish tizimi zaif bo'lsa, u holda qarzdorlik miqdori ortib boradi. Soliq xavfini tahlil qilish (risk profiling) orqali xavfli to'lovchilarni oldindan aniqlash mumkin, bu esa qarzdorlikni kamaytiradi. Demak, soliq xavfi qanchalik yuqori bo'lsa – shunchalik soliq

²² Muallif tomonidan tuzilgan.

qarzdorligi o'sadi. Soliq xavfini boshqarish samarali bo'lsa – soliq qarzdorligi kamayadi.

Soliqlarning yig'iluvchanligi va soliq qarzdorligi ko'rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga oid ilmiy tadqiqotlar va ularni tanqidiy tahliliga asoslanib, ushbu ikki muhim soliq ko'rsatkichiga oid o'zimizning mualliflik ta'rifimizni shakllantirdik. Bizning fikrimizcha, *soliq yig'iluvchanligi ko'rsatkichi* soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlarining qonunda belgilangan tartibda to'lanishi natijasida byudjetga tushishi mumkin bo'lgan soliq tushumlarining hajmi bo'lib, u mavjud soliq qonunchiligi va berilgan soliq imtiyozlari doirasida jami hisoblab chiqilgan soliq summasining byudjetga jalb qilingan qismini bildiradi. *Soliq qarzdorligi ko'rsatkichi esa*, soliq to'lovchilarda soliq madaniyatining shakllanmaganligi, soliqdan qochish psixologik tushunchalari egoistik shaklda saqlanib qolishi hamda turli xil iqtisodiy, ijtimoiy hamda fors-major holatlari oqibatida soliq majburiyatlarining bajarilmay qolishining va byudjetga kelib tushmay qolishining miqdoridir. *Soliq xavfi* byudjet tizimiga soliq va yig'imlar to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik ehtimolidir.

1-bob bo'yicha xulosa

Odatda soliq tizimini ikki guruhga bo'linadi, birinchisi soliq elementlari bo'lsa, ikkinchisi soliq ko'rsatkichlaridir. Soliq ko'rsatkichlari soliq elementlaridan shunisi bilan farq qiladiki, ular soliqqa tortish jarayonlariga xizmat qilmaydi, soddaroq qilib aytganda soliqlarni undirish mexanizmida soliq ko'rsatkichlari asosiy instrument sifatida qatnashmaydi, balki, soliq elementlarining qanday samara berayotganligini, davlatning soliq siyosatining iqtisodiyotga ta'siri qanday ta'sir qilayotganligi, soliq tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi yoki qo'yilmaganligini izohlab beradi. Soliq ko'rsatkichlari soliq elementlaridan shunisi bilan farq qiladiki, ular soliqqa tortish jarayonlariga xizmat qilmaydi, soddaroq qilib aytganda soliqlarni undirish mexanizmida soliq ko'rsatkichlari asosiy instrument sifatida qatnashmaydi, balki, soliq elementlarining qanday samara berayotganligini, davlatning soliq

siyosatining iqtisodiyotga ta'siri qanday ta'sir qilayotganligi, soliq tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi yoki qo'yilmaganligini izohlab beradi. Keyingi zamonaviy soliq ko'rsatkichlaridan biri bu soliq uzilishi ko'rsatkichidir. Soliq uzilishi (QQS uzilish) koeffitsienti mohiyati jihatidan soliqlarning nazorat funksiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu koeffitsienti soliq to'lovchiga o'zlarining iqtisodiy hamkorlari-kontragentlarni tanlashda lozim darajada ehtiyotkorlik bilan yondoshish ma'suliyatini anglatuvchi iqtisodiy-nazorat indikatori hisoblanadi.

Soliq ko'rsatkichlaridan biri bu soliq xavfini boshqarish tizimidir. Soliq xavfi – budjet tizimiga soliq va yig'imlar to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik ehtimolidir. Yana bir soliq ko'rsatkichlaridan biri soliq yuki hisoblanadi, uni mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamiyat miqyosida yaratilgan milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari va qancha qismi uni yaratgan iqtisodiy individlarga qolishini tavsiflovchi iqtisodiy indikatoridir.


Qayd etish joizki, keyingi soliq ko'rsatkichlaridan biri bu soliq to'lovchilarning yashovchanlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Ma'lumki, yashovchanlik tadbirkorlarning bozorda jon saqlab qolishining va uning koyukturasiga moslashib, soliq to'lovchi sifatida soliq tushumlarining oshishiga ta'sir qiladigan miqdoriy ko'rsatkich bo'lib, soliq to'lovchi tadbirkorlarning yashovchanligi qancha oshsa, barqaror soliq to'lovchilar soni oshishi hisobiga budjetga soliqlarning tushishining barqarorligi oshadi. Darhaqiqat soliq qarzi davlat oldidagi jiddiy huquqiy va moliyaviy javobgarlik bo'lib, uni to'lamaslik soliq to'lovchi uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shu jumladan, qonuniy javobgarlikka tortilishi va soliq to'lovchining huquqlarini yo'qotadi.

Umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida soliq ko'rsatkichlarining ayrimlari xususida ularning iqtisodiy mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari keltirildiki, ularning har biri ma'lum bir soliq tizimining amaliy holatini tahliliy ko'rsatib beradi, umumiy soliq siyosati yo'nalishlarining qanday samara berayotganligi haqida ma'lumot beradi va ularning ayrim qirralarini kuchaytirish yoki yumshatish haqida qarorlar qilishga undab boradi.

II-BOB. SOLIQ KO'RSATKICHLARINING SOLIQ TIZIMIDAGI HOLATI TAHLILI

2.1-§. Soliq yig'iluvchanligi ko'rsatkichi tahlili va unga ta'sir qiluvchi omillar

Ma'lumki, soliqlarning yig'iluvchanligi davlat yoki mahalliy hokimiyatning soliq to'lovchilardan soliq tushumlarini yig'ish qobiliyatini aks ettiradi. Bu soliq tizimining moliyaviy barqarorligi va samaradorligining muhim ko'rsatkichidir (2.1-rasm).



2.1-rasm. Soliq yig'iluvchanligi oshishiga ta'sir qiluvchi umumiy omillar²³

Qayd etish joizki, iqtisodiy o'sish darajasi hal qiluvchi omil hisoblanadi, chunki, yangidan soliq bazasi shakllanadi, soliq bazasining oshishi esa, ma'muriy usullar, ya'ni, soliq stavkasini oshirish, imtiyozlarni qisqartirish, soliq turlari va yig'implarni oshirish evaziga ham amalga oshirilishi mumkin, ammo, bu vaqtinchalik

²³ Muallif tomonidan tuzilgan.

holat hisoblanadi. soliq yig'iluvchanligi oshishiga ta'sir qiluvchi umumiy omillar bir tizim bo'lib amal qilsa, soliq tushumlari oshadi. Shu boisdan ham fikrimizcha, 2.1-rasmda keltirilgan omillarning amaliy jihatdan rivojlanishini ta'minlash soliq siyosatidagi muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. Bundan tashqari daromad darajasi, iqtisodiy sharoitlar, bandlik va ishsizlik darajasi soliq to'lovchilarning soliq to'lash qobiliyatiga ta'sir qiladi, soliq xizmati faoliyati samaradorligi, uning ma'lumotlarni to'plash, nazorat qilish va soliqqa oid huquqbuzarliklarga adekvat javob berish qobiliyati darajasi ham soliq tushumlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Keyingi yillarda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni amaliy jihatdan ikki guruhga bo'lib tahlil qilinmoqda. Bular sirasiga soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan omillar hamda soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillarni keltirish mumkin, iqtisodiy o'sish va soliq imtiyozlarining bekor qilinishi soliqlarning yig'iluvchanligiga katta ta'sir qilmoqda. Masalan, iqtisodiy o'sish omili hisobiga 2021 yil 2642,3 mlrd so'm, 2022 yilda 8903,3 mlrd so'm va 2023 yil yakunlariga ko'ra, 1165,0 mlrd so'mlik soliq yig'iluvchanligi oshishiga ta'sir qilgan bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, iqtisodiy o'sish mohiyatan qo'shimcha qiymatni yuzaga keltiradiki, ular turli xil soliqlarning bazasini oshishiga olib keladi va ular orqali soliq tushumlari oshgan. O'z navbatida ta'kidlash lozimki, soliq stavkalarining oshishi yoki kamayishi hisobiga soliqlarning yig'iluvchanligini muvofiqlashtirish soliq ma'murchiligining murakkab bo'g'ini bo'lsada, uni oshirish hisobiga soliqlarning yig'iluvchanligini oshirib borish asosiy muammoni hal qilmaydi.

Albatta ta'kidlaganimizdek, soliqlarning yig'iluvchanligiga soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillar ham o'z ta'siriga ega. Masalan, EHF to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ishlash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish hisobiga soliqlarning yig'iluvchanligi 2021-yilda 5421,8 mlrd so'mga oshgan bo'lsa, bu buyicha qilingan sa'yi harakatlar natijasida soliqlar o'z vaqtida hisobga olib borilishi hisobiga uning ta'siri kamaygan, ya'ni soliq to'lovchilar o'z vaqtida soliq bazasini

to'g'ri hisobga olishi yoki to'g'ri aks ettirishi hisobiga soliq tushumlari tabiiy ko'payishi sodir bo'lib, bu omilning miqdoriy hisssasi 2023-yilda 1013,5 mlrd so'mga teng bo'lgan.

2.1-jadval

O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarining prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha soliq yig'iluvchanlik darajasi tahlili²⁴ (mlrd so'm)

№	Yillar	Prognoz ko'rsatkichlari	Haqiqatda bajarilishi	Yig'iluvchanlik darajasi (%)
1	2019	102 627,6	112 165	109,2
2	2020	128 460,0	132 938	103,4
3	2021	147 202,3	164 799	111,9
4	2022	200 000,0	202 043	101,0
5	2023	232 107,1	264 207,5	113,8
6	2024	270 403,1	271 105,2	100,2

Ushbu keltirilgan 2.1-jadvaldan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarining prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha soliq yig'iluvchanlik darajasi 2019-yilda 109,2 foizga bajarilgan bo'lsa, 2020 va 2021-yillarda uning darajasi oshib borgan va 2022-yilda avvalgi yilga nisbatan bajarilishi 101,0 foizni tashkil etgan, 2024-yilda esa, respublika byudjeti bo'yicha prognoz ko'rsatkichi bo'yicha yig'iluvchanlik 100,2 foizni tashkil qilgan.

Respublika byudjeti daromadlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining yig'iluvchanligiga miqdoriy ko'rsatkich-soliq to'lovchilar sonining oshishi ta'sir qilgan. 2024-yil yakunlari bo'yicha oladigan bo'lsak, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlarning izchil davom ettirish natijasida, 2024-yilda 201,8 mingta tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini boshlagan.

Quyidagi 2.2-jadval ma'lumotlari bo'yicha soliq yig'iluvchanligi tahlil qilinayotgan yillar kesimida prognoz ko'rsatkichlar bajarilgan bo'lsada, biroq, boshqa omillar soliq qarzdorligi, soliq to'lovchilarning soliqdan bo'yin tovlashlarini ham e'tiborga oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ancha yuqoriligini ko'rish mumkin.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.2-jadval

O‘zbekistonda respublika byudjetining daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha soliq yig‘iluvchanlik darajasi tahlili²⁵ (mlrd so‘m)

№	Yillar	Prognoz ko‘rsatkichlari	Haqiqatda bajarilishi	Yig‘iluvchanlik darajasi (%)
1	2019	71544,6	74236,2	103,7
2	2020	98 186,1	105426,2	107,3
3	2021	117427,6	128459,2	109,3
4	2022	120273,1	125471,5	104,3
5	2023	177161,1	194122,7	109,5
6	2024	212 643,0	216524,6	101,8

Soliq yig‘iluvchanligini tarmoqlar bo‘yicha ham tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu masala ulardagi soliq yuki bilan bevosita bog‘liqdir. 2021-2024-yillar oralig‘ida tarmoqlar bo‘yicha soliqlarning byudjetga undirilishida 2021-yilga e‘tibor beradigan bo‘lsak, miqdoriy ko‘rsatkich bo‘yicha prognoz qilingan soliq tushumlarining bajarilishi 2-ilovaga keltirilgan tarmoqlarda bajarilmay qolgan, faqatgina boshqa tarmoqlarda soliq yig‘imlari darajasi normal holatda bo‘lgan. Bu holat qayd etish kerakki 2023 va 2024-yilda shu holat kuzatilgan. Bunga asosiy sabab hisoblangan soliq summalarini undirish bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, ularda soliq qarzdorliklari summasining ortishi, ayrim soliq to‘lovchilarning moliyaviy qobiliyatlarining etarli emasligi va ba‘zilarida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarining uchrab turishi bilan izohlanadi.

Qayd etish joizki, Davlat byudjeti daromadlarining YaIMdagi ulushi 22,7%ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan solishtirilganda 0,3%ga va 2020-yilga nisbatan 0,6%ga oshgan. Tushumlar 2021-yilga nisbatan 20,4 trln so‘mga yoki 16%ga, 2020-yilga nisbatan esa 44,8 trln so‘mga yoki 43,3%ga oshgan. Shu bilan birga, bojxona qo‘mitasi bo‘yicha belgilangan prognoz 4,9 mlrd so‘m yoki 11,9%ga ortig‘i bilan bajarilgan. Tushumlar 2021-yilga nisbatan 12,8 trln so‘m yoki 38,5%ga, 2020-yilga nisbatan esa 21,3 trln so‘m yoki 86,3%ga oshgan. 2021-yilga nisbatan bevosita soliqlar, resurs to‘lovlari hamda mol-mulk solig‘ining Davlat

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

byudjeti daromadlaridagi ulushi kamaygan bo'lsa, bilvosita soliqlar hamda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlarning ulushi oshgan. 2022-yilda Davlat byudjeti tarkibidagi Soliq qo'mitasi ma'murchiligidagi tushumlar 148,4 trln so'mni (jami Davlat byudjeti daromadlariga nisbatan 73,4%), Bojxona qo'mitasi bo'yicha tushumlar 46,0 trln so'mni (22,8%) hamda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 7,6 trln so'mni (3,8%) (qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qaytarish (qoplab berish) (19,3 trln so'm) va fuqarolarga xarid summasidan 1% ("kesh-bek") qaytarishni (0,8 trln so'm) hisobga olgan holda) tashkil qilgan. Bunda, Soliq qo'mitasi bo'yicha belgilangan prognoz 6,0 trln so'mga yoki 4,2%ga ortig'i bilan bajarilgan. Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi bo'yicha 2022-yilda tushumlar 88,3 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 6,0 trln so'mga yoki 7,3%ga oshdi. Xususan, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasida ro'yxatda turuvchi soliq to'lovchilar (NKMK va OKMKsiz) tomonidan foyda solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 13,9 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 5,4 trln so'mga yoki 64%ga oshgan. Agar, keltirilgan 3-ilovaga qaraydigan bo'lsak (3-ilovaga qarang) 2021-yilda tahlil ob'ekti sifatida olingan tarmoqlarda soliqlarning yig'iluvchanligi juda past bo'lgan, ya'ni pandemiyaning salbiy ta'siri oqibatida soliq bazasining shakllanishida uzilishlar bo'lganligidir.

Qo'shilgan qiymat solig'i fiskal ahamiyati jihatidan soliq tizimi va byudjet tizimida katta rol o'ynaydi. Garchi QQS bo'yicha yig'iluvchanlik darajasi o'rtacha 64-70 foizni tashkil qilgan bo'lsada, bu soliqni qaytarib berish mexanizmidagi ayrim muammolar va kamchiliklar bu soliq turi bo'yicha yig'iluvchanligiga ta'sir qilgan. Biroq, umumiy holatda 2023-yil qo'shilgan qiymat soligi (QQS) stavkasi 15 %dan 12 % gacha pasaytirilganligiga qaramasdan tushumlar 34 trln so'mni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 1.2 trln so'mga ko'paygan. QQS bo'yicha maxfiy farqni qoplash uchun 19.7 trln so'm (2022-yilga nisbatan 355mlrd so'm yoki 1.8 % o'sish) qaytarilgan.

2.3-jadval

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining ayrim tarmoqlar bo‘yicha soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik holati tahlili (mlrd so‘m)

№	Hududlar nomi	Yillar											
		2021-yil				2022-yil				2023-yil			
		Prognoz	Haqiqatda	Yig‘iluvchanlik	Farqi (+;-)	Prognoz	haqiqatda	Yig‘iluvchanlik	Farqi (+;-)	Prognoz	haqiqatda	Yig‘iluvchanlik	Farqi (+;-)
1	Savdo	7 535	3 629	48	-3 906	10 243	4 496	44	-5 748	10 204	4 781	47	-5 422
2	Qishloq xo‘jaligi	3 022	1 430	47	-1 591	4 667	2 103	45	-2 564	3 318	1 293	39	-2 025
3	Sanoat	14 158	10 483	74	-3 675	17 748	12 576	71	-5 172	15 170	12 368	82	-2 802
4	Qurilish	6 983	3 845	55	-3 138	8 518	4 965	58	-3 553	7 847	4 787	61	-3 059
5	Xizmat ko‘rsatish	173	337	194	163	655	452	69	-202	695	520	75	-175
6	Transport	2 192	1 265	58	-927	2 850	1 718	60	-1 132	1 871	1 673	89	-198
7	Axborot va aloqa	1 635	1 301	80	-335	1 729	1 585	92	-144	1 505	1 291	86	-215
8	Boshqalar	4 452	3 283	74	-1 170	5 975	4 917	82	-1 058	7 975	7 270	91	-705
9	Respublika bo‘yicha jami	40 151	25 572	64	-14579	52 385	32 812	63	-19 573	48 585	33 983	70	-14 601

Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yilda soliq stavkalarining 15 foizdan 12 foizga kamaytirilishi, QQS bo'yicha yangi soliq imtiyozlari, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchligining yaxshilanishi hisobiga soliq tushumlari dinamikasi o'zgarib turgan. QQS stavkalarining kamaytirilishi va yangi soliq imtiyozlarining berilishi soliqlarning yig'iluvchanligiga salbiy ta'sir qilgan. Iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchligining yaxshilanishi esa QQS bo'yicha tushumlarining oshishiga ijobiy ta'sir qilgan.

Tahlillar ko'rsatishicha, QQSning byudjetga to'liq kelib tushishini ta'minlash bilan bir qatorda hisobga olinadigan QQS summasining hisoblangan soliq summasidan oshishi natijasida yuzaga keladigan soliq o'rnini 12 qoplash tartibi ham muntazam ravishda takomillashtirib borilgan. QQSdan manfiy farqni qoplash uchun 2022-yil davomida 6 509 ta tadbirkorlik sub'ektlariga 19,3 trln so'm miqdorida mablag'lar qaytarildi (QQS tushumlariga nisbatan 27%). Solishtirish uchun, 2021-yilda ushbu maqsadlarda jami 14,4 trln so'm, 2020-yilda 9 trln so'm mablag'lar soliq to'lovchilarga qaytarilgan.

Quyidagi 2.4-jadvalda keltirilgan yana bir malumotdan ko'rinadiki, foyda solig'i bo'yicha tushumlar yig'iluvchanligi ko'rsatkichi 2021-yilda past bo'lgan, ammo, 2022 va 2023-yillarda esa soliq yig'iluvchanligi darajasi prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan bajarilgan (2022-yilda yuz foizga bajarilgan) va oshgan (2023-yilda 108,0 foizga oshgan). 2022-yilda Navoiy "KMK" AJ, 2023-yilda "Olmaliq KMK" AJ bo'yicha yig'iluvchanlik darajasining kamayishiga bu korxonalar uchun foyda solig'ining yuqori stavkasi 75%dan 50%gacha pasaytirilishi hamda ushbu korxonalarning xarajatlari o'sishi natijasida mazkur soliq to'lovchilar tomonidan 2022-yilda 2021-yilga nisbatan foyda solig'i 8,3 trln so'm miqdorida kam to'langan (bunda foyda solig'ining pasaytirilgan stavkasining farqi dividend tarzida byudjetga undirilgan), bundan tashqari 2022-yilda amortizasiya ajratmalari normalari o'rtacha 2 barobarga oshirilishi hisobiga 2022-yil soliq hisobotlariga ko'ra amortizasiya normalari miqdorini ko'payishi sababli foyda solig'i bazasidan chegirilgan 8,9 trln so'm hisobidan deyarlik 1,3 trln so'm mablag'lar xo'jalik sub'ektlari ixtiyorida qoldirilgan.

2.4-jadval

Foyda solig'ining ayrim tarmoqlar bo'yicha soliq tushumlarining yig'iluvchanlik holati tahlili (mlrd so'm)

№	Hududlar nomi	Yillar											
		2021-yil				2022-yil				2023-yil			
		Prognoz	haqiqatda	Yig'iluvchanlik	Farqi (+;-)	Prognoz	haqiqatda	Yig'iluvchanlik	Farqi (+;-)	Prognoz	haqiqatda	Yig'iluvchanlik	Farqi (+;-)
1	Navoiy KMK AJ	15 597	16 881	108	1 284	12 331	11 618	94	-713	12 821	17 022	133	4 201
2	Olmalik KMK AJ	8 855	8 820	100	-35	5 186	5 595	108	410	4 590	4 425	96	165
3	O'zbekneftgaz tarmog'i	989	877	89	-112	1 006	1 094	109	89	686	450	66	- 235
4	Uyali aloqa kompaniyalari	468	223	48	-245	350	381	109	31	255	301	118	46
5	O'zavtosanoat AJ	547	664	122	118	730	963	132	233	826	856	104	30
6	Boshqalar	12 267	10 898	89	- 1 369	18 235	17 999	99	- 236	18 572	17 525	94	- 1 047
7	Respublika bo'yicha jami	38 721	38 363	99	- 358	37 837	37 650	100	- 187	37 750	40 779	108	3 029

Tadbirkorlik sub'ektlariga onlayn nazorat-kassa mashinasi va virtual kassaga ulangan, shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to'g'ri o'qishni va aniqlashni ta'minlovchi maxsus qurilmalarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlarni foyda solig'ini hisobiga kamaytirish imkoniyati yaratilganligi natijasida 2 854 ta soliq to'lovchilar ixtiyorida foyda solig'i hisobidan 6,1 mlrd so'm qoldirilgan, maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga foyda solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investisiyalar hajmiga qarab ozod etilishining joriy qilinishi natijasida 55 ta soliq to'lovchilar ixtiyorida 151,6 mlrd so'm mablag'lar qolgan.

Shuningdek, foyda solig'i bo'yicha tushumlari yig'iluvchanligiga bir qator omillar ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, foyda solig'i to'lovchilar soni 2023-yilda 165,2 mingtani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 24,6 mingtaga yoki 17,5%ga oshgan, 2023-yilda foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'laydigan soliq to'lovchilar soni 19 788 tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 5 461 taga yoki 38,1%ga oshgan. Shuningdek, jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlarni hisobga olgan holda 5 mlrd so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini to'lashi ham soliq tushumlarining yig'iluvchanligiga ta'sir qilgan.

Tijorat banklari tomonidan ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha yaratiladigan zaxira fondlarini foyda solig'i bazasidan chegiriladigan miqdori 80%gacha pasaytirilishi hisobiga 2023-yilda tijorat banklari tomonidan to'langan foyda solig'i 2021-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga yoki 99%ga oshgan, bundan tashqari, foyda solig'i tushumlarini o'sishiga polietillen va mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i stavkalarini pasaytirilganligi, suyultirilgan gaz uchun aksiz solig'ini bekor qilinganligi, soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilganligi, jumladan tekshiruvdan oldingi tahlil va boshqa nazorat tadbirlari natijasi ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Demak, foyda solig'i bo'yicha soliq tushumlariga turlicha omillar turlicha ta'sir ko'rsatgan.

2.5-jadval

Aksiz solig'ining ayrim tarmoqlar bo'yicha soliq tushumlarining yig'iluvchanlik holati tahlili (mlrd so'm)

№	Hududlar nomi	Yillar											
		2021-yil				2022-yil				2023-yil			
		Prognoz	haqiqatda	Yig'iluv- chanlik	Farqi (+;-)	Prognoz	haqiqatda	Yig'iluv- chanlik	Farqi (+;-)	Prognoz	haqiqatda	Yig'iluv- chanlik	Farqi (+;-)
1	Transgaz	4 023	2 371	59	- 1 651	3 930	2 334	59	- 1 596	2 552	2 568	101	16
2	Uyali aloqa kompaniyalari	1 369	1 084	79	-284	868	868	100	- 0	925	975	105	50
3	Tamaki mahsulot ishlab chiqaruvchilar	1 930	1 930	100	0	1 998	1 998	100	0	2 213	2 286	103	73
4	O'zbekneftgaz tarmog'i	1 133	1 124	99	- 9	1 161	1 132	97	- 29	824	810	98	- 14
5	Transport	4	3	72	- 1	1	1	96	- 0	1	1	102	0
6	Alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar	1 687	1 655	98	-32	1 784	1 760	99	- 24	2 089	2 249	108	160
7	Boshqalar	4 633	4 611	100	- 22	5 195	4 985	96	-210	6 521	6 244	96	- 276
8	Respublika bo'yicha jami	14 778	12 779	86	- 1 999	14 937	13 077	88	- 1 860	15 124	15 133	100	8

Qayd etish joizki, aksiz solig'i ham soliq va byudjet tizimida nisbatan katta fiskal ahamiyatga egadir. Ushbu soliq turi bo'yicha soliq yig'iluvchanligi yuqoridagi jadval asosida tahlil qiladigan bo'lsak, prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 2021-yilda soliq yig'iluvchanligi 86 foizga bajarilgan bo'lsa, 2022-yilda ham past ko'rsatkichni tashkil qilgan, ya'ni 88 foiz bo'lgan, 2023-yilda esa prognoz ko'rsatkichlari bajarilgan, ammo yuqori ko'rsatkich emas. Agar, buni miqdoriy ko'rsatkich bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-yilda 1999 mlrd so'm, 2022-yilda 1860 mlrd so'mga kam bajarilgan bo'lsa, 2023-yilda esa, 8 mlrd so'mga ortiq soliq summasi prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan yoki hisoblangan soliq summalariga nisbatan bajarilgan. Albatta, soliq yig'iluvchanligining bunday ko'rsatkichlarga ega bo'lishi bir qator omillar ta'sirida ro'y berishi tabiiy. Jumladan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning realizatsiya jarayonining darajasi bo'lsa, boshqa tomondan bunday tovarlarni ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligi hamda ularda yuzaga keladigan debitorlik va kreditorlik qarzlarining yuzaga kelishi oqibatida o'zaro hisob-kitoblarning murakkablashuvi bo'lsa, boshqa tomondan, soliq to'lovchilar bilan soliq ma'murchiligi jarayonidagi ayrim xatoliklar hamda soliq to'lovchilarda soliq madaniyatining shakllanmaganligidir.

Dissertatsiya ishlariga qo'yilgan hajmiy talabdan va yuqorida keltirilgan malumotlardan kelib chiqib tadqiqot ishimizning ushbu bandi bo'yicha umumiy xulosa qiladigan bo'lsak:

birinchidan, respublikamizda soliqlarning yig'iluvchanligi ko'rsatkichi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha 105-110 foizni tashkil qilsa, miqdoriy jihatdan o'sish esa, o'rtacha (oxirgi uch yilda) 20-22 trln so'mni tashkil qilmoqda;


ikkinchidan, asosiy soliq turlari bo'lgan QQS, foyda, aksiz soliqlari bo'yicha soliqlarning yig'iluvchanligi bo'yicha tahlillar ham shuni ko'rsatdiki, ularning yig'iluvchanligi o'rtacha holatda o'sish kuzatilgan, ya'ni, soliq tushumlarini kamayishiga ta'sir etuvchi omillar ham mavjud bo'lib, ularning oldini olish bo'yicha soliq ma'murchiligini kuchaytirishni taqozo etadi;

uchinchidan, soliqlarning yig'iluvchanligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar sirasiga soliq to'lovchilarda yuzaga keladigan debitorlik va kreditorlik qarzlarining

yuzaga kelishi oqibatida o‘zaro hisob-kitoblarning murakkablashuvi bo‘lsa, boshqa tomondan, soliq to‘lovchilar bilan soliq ma‘murchiligi jarayonidagi ayrim xatoliklar hamda soliq to‘lovchilarda soliq madaniyatining shakllanmaganligi kabi omillarni keltirish mumkin.

2.2-§. Soliq qarzdorligi ko‘rsatkichi va uning amaliy holati tahlili

Ma‘lumki soliqlarning yig‘iluvchanligiga ta’sir etuvchi eng muhim salbiy omillardan biri bu soliq qarzi hisoblanadi. Soliq qarzining miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, soliqlarning yig‘iluvchanligi shuncha past bo‘ladi. Demak, soliq ko‘rsatkichlari orasida soliq qarzdorligi muhim rol o‘ynab, uni soliqlarning yig‘iluvchanligi bilan bevosita bog‘liqligini e’tiborga olib tadqiqot ishimizda soliq qarzdorligini amaliy holati tahlilini alohida bandeda tahlil qilib chiqishga qaror qildik (2.2-rasm).




2.2-rasm. Soliq qarzdorligining vujudga kelishi va ortishiga ta’sir qiluvchi omillari³⁹

³⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Agar, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 55-moddasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summolari, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi deb e’tirof etiladi”⁴⁰. Demak, soliq qarzi soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari bilan bog‘langan, ya’ni ular zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajara olmaslik yoki moliyaviy imkoniyati bo‘lib turib, soliq va boshqa majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lamasligi oqibatida soliq qarzдорligi kelib chiqadi. Aslida soliq qarzдорligining vujudga kelishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi va ular ta’siri turlicha bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilarda soliq qarzдорligining vujudga kelishi dastlabki muhim omillardan biri bu ulardagi moliyaviy nobarqarorlikning mavjudligidir. Agar, soliq to‘lovchilar moliyaviy rejalashtirishni noto‘g‘ri amalga oshirilgan pul oqimlari va ularni harakatini noto‘g‘ri rejalashtirgan bo‘lsa, ularda moliyaviy mablag‘lardan samarasiz foydalanish hisobiga boshqa moliyaviy muammolar qatori soliq qarzдорligi ham vujudga keladi. Soliq to‘lovchilarda debitorlik va kreditorlik qazlarining ortishi ham soliq to‘lovchilarda soliq qarzдорligini vujudga keltiruvchi omillar hisoblanadi, agar, kreditorlik qarzlari ko‘payib ketsa, moliyaviy qiyinchiliklar paydo bo‘lib, soliq majburiyatlarini bajarishga moliyaviy to‘sqinlik qiladi. Soliq to‘lovchilar soliq majburiyatlarining soliqlarning adolatlilik tamoyili qoidalaridan ko‘p belgilanishi ularda soliq majburiyatlarini bajarishga tabiiy to‘sqinlik qiladi, sababi soliqlar noto‘g‘ri yoki ortiqcha belgilanishi soliq to‘lovchilarda soliq majburiyatlarini bajarishga imkon bermaydi, ya’ni davlatning soliq yukini taqsimlash, soliq majburiyatlarini yuklash va nobarqaror soliq siyosatini yuritishi soliq qarzдорligini vujudga keltiradi. Soliq qarzдорligi ko‘rsatkichining vujudga kelishi omillari bo‘lganidek, uni kamaytirish yoki yuzaga kelmasligiga ta’sir qiluvchi omillar ham tabiiy ravishda yoki sub’ektiv sabablarga ko‘ra amal qiladi (2.3-rasm).

⁴⁰O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 55-moddasi. <https://lex.uz/docs/4674902>



2.3-rasm. Soliq qarzdorligini vujudga kelishini kamaytiruvchi omillar⁴¹

Soliq qarzdorligini vujudga kelishini kamaytiruvchi omillar ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Ular birinchidan, tabiiy ravishda bo'ladi, ya'ni bozor qoidalariga muvofiq yuzaga keladi, boshqa tomondan, davlatning soliq siyosatining ta'siridan kelib chiqsa, o'z navbatida soliq to'lovchilarning ijtimoiy xarakteri va iqtisodiy munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Soliq qarzdorligi ijtimoiy jihatdan soliq to'lovchilarda soliq madaniyatining darajasini va muhim milliy qadriyatlarni ifodalasa, boshqa tomondan soliq to'lovchilarda iqtisodiy qonunlarning talablariga muvofiq faoliyat qilinishini tavsiflaydi. Soliq qarzdorligi salbiy iqtisodiy jarayon sifatida davlat byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning miqdori shuncha miqdorda davlat byudjetidan ko'rsatiladigan (amalga oshiriladigan) ijtimoiy xizmatlarni ist'emol qilinmasligiga sabab bo'ladi. Shu sababli uni turli xil indikatorlar bo'yicha baholab (o'lchab boriladi), shulardan biri uning (soliq qarzdorligining) yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini baholash hisoblanadi (2.6- jadval).

⁴¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston soliq tizimida soliq qarzidorliklari summasining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi va avvalgi yillarga nisbatan o‘zgarishi tahlili⁴²

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar (yil boshiga)				
		2020	2021	2022	2023	2024
1.	Soliq qarzidorliklari summasining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi tahlili (foizda)	4,8	4,5	4,7	2,4	1,2
2.	Soliq qarzidorliklarining avvalgi yillarga nisbatan o‘zgarishi foizda (2018-yil bazis sifatida 100% qilib olingan)	109,1	111,0	120,2	63,9	83,5
3.	Da‘volar hicobidan undirilgan soliq qarzi (foizda)	25,9	32,1	51,2	47,7	57,8
Soliq qarzidorliklari bo‘yicha sudlarda ko‘rib chiqilgan ishlarning o‘tgan yillarga nisbati (foizda):						
4.	Kiritilgan da‘volar soni	87,5	83,4	91,1	154,9	67,4
	Kiritilgan da‘volar summasi	96,6	97,4	92,5	88,5	94,7

Soliq qarzidorligining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 2020 va 2024-yillarda (yil boshiga) kamayib borganligi ijobiy holatdir. Buning asosiy sabablari sifatida soliq ma‘murchiligining takomillashib borishi, soliqlarni undirish jarayonlarining raqamlashtirib borishi va soliq to‘lovchilarga nisbatan erkinlik kuchayib borishi kabilarni keltirish mumkin.

2021-yilda uning ulushi (YaIMga nisbatan) 4,8 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilning boshiga kelib 1,2 foizga tushganligi ijobiy iqtisodiy samaradir. Soliq qarzidorliklarining avvalgi yillarga nisbatan o‘zgarishiga (foizda) ham qaraydigan bo‘lsak, 2018-yil bazis sifatida 100 qilib olingan bo‘lib, 2021-yilda uning hajmi 2018-yilga nisbatan 109,1 foizga oshgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning boshiga kelib 83,5 foizni tashkil qilib, kamayganligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari da‘volar hisobidan undirilgan soliq qarzi hajmi ham oshganligini ko‘rish mumkin, ya’ni 2021-yilda jami kiritilgan da‘volar bo‘yicha 25,9 foiz soliq qarzidorligi

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

undirilgan bo'lsa, 2023-yilda esa 57,8 foiz soliq qarzdorligi bo'yicha da'volar undirilgan. Albatta, bu holat soliq qarzlarini undirish borasidagi soliq organlarining da'volarining samaradorligini tavsiflaydi.

Shu bilan birgalikda soliq qarzdorliklari bo'yicha sudlarda ko'rib chiqilgan ishlarning o'tgan yillarga nisbati ko'rsatkichida ham ijobiy natijalarga erishilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2022-yilda soliq organlari tomonidan iqtisodiy sudlarga kiritilgan ariza (da'vo)lar bo'yicha quyidagi tahlillarni keltirish mumkin, ya'ni, iqtisodiy sudlarga jami 141 270 ta (4 990,9 mlrd.so'm) ariza (da'vo) kiritilgan, shundan, 12 818 ta (1 073,1 mlrd.so'm) rad etilgan, ko'rmasdan qoldirilgan, qaytarilgan va tugatilgan, 112 869 ta (3 259,0 mlrd.so'm) qanoatlantirilgan, 15 583 ta (493,5 mlrd.so'm) qisman qanoatlantirilgan jumladan:

banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish to'g'risida 104 851 ta, shundan, 6 642 ta rad etilgan (4 338 ta da'vo talabi bartaraf etilganligi sababli), 1 170 ta ko'rmasdan qoldirilgan, 44 ta tugatilgan, 96 618 ta qanoatlantirilgan, 8 ta qisman qanoatlantirilgan;

moliyaviy jarima qo'llash to'g'risida 8 998 ta, shundan, 1 077 ta rad etilgan (678 ta da'vo talabi bartaraf etilganligi sababli), 113 ta ko'rmasdan qoldirilgan, 31 ta tugatilgan, 7 053 ta qanoatlantirilgan, 663 ta qisman qanoatlantirilgan;

bankrot deb e'tirof etish yuzasidan 7 731 ta, shundan, 288 ta rad etilgan (62 ta da'vo talabi bartaraf etilganligi sababli), 59 ta ko'rmasdan qoldirilgan, 97 ta tugatilgan, 6 515 ta qanoatlantirilgan;

soliq qarzdorligini soliq to'lovchining mol-mulki hisobidan undirish yuzasidan 17 894 ta, shundan, 63 ta rad etilgan (18 ta da'vo talabi bartaraf etilganligi sababli), 468 ta ko'rmasdan qoldirilgan, 1 ta tugatilgan, 2 632 ta qanoatlantirilgan, 14 684 ta qisman qanoatlantirilgan;

soliq qarzdorligini soliq to'lovchi bo'lmagan shaxsdan undirish yuzasidan 1 220 ta, shundan, 699 ta rad etilgan (689 ta da'vo talabi bartaraf etilganligi sababli), 3 ta ko'rmasdan qoldirilgan, 18 ta qanoatlantirilgan, 227 ta qisman qanoatlantirilgan;

Soliq kodeksining 14-moddasi 8-qismiga asosan bitimni (schyot-faktura) haqiqiy emas deb topish to'g'risida iqtisodiy sudlarga 592 ta da'vo arizalari kiritilgan,

nizolashilayotgan bitimni ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan deb topish uchun boshqa bitimni niqoblayotganligi holati mavjud emasligi sababli 496 tasi rad etilgan, sudning ish yurituviga taalluqli emasligi asosi bilan 28 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 12 ta ish yuritishdan tugatilgan.

Biroq, qayd etish kerakki, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 60-moddasiga ko'ra, yuridik shaxsning xodimlari o'sha yuridik shaxsning ishlari bo'yicha ishda shartnoma asosida vakil bo'la olishi mumkinligi belgilangan. Ammo, ayrim ishlarda bunday vakillar bilan vakillik qilish to'g'risida shartnoma tuzilgan bo'lsada, bank ma'lumotnomasiga ko'ra ularga oylik to'lanmaganlik holatlari mavjud. Bunday holatlarda, ayrim vakillarga sud ishlarida vakil sifatida ishtirok etishga yo'l qo'yilayotgan bo'lsa, ayrimlariga yo'l qo'yilmayapti. Oliy sud Plenum qarorida bunday vakillar ishda ishtirok etishga yo'l qo'yilishi yoki qo'yilmasligi yuzasidan aniq tushuntirishlar berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2.7-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hududlar kesimida soliq qarzdorlik holati tahlili⁴³ (yil boshiga, foizda)

№	Hududlar	yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,2	2,7	2,2	2,5	3,4
2	Andijon viloyati	10,2	6,5	5,2	7,7	10,7
3	Buxoro viloyati	0,5	10,7	14,0	15,1	4,3
4	Jizzax viloyati	2,4	1,2	0,6	1,6	1,3
5	Qashqadaryo viloyati	10,2	16,2	24,9	31,4	1,3
6	Navoiy viloyati	1,9	2,1	3,1	1,7	1,5
7	Namangan viloyati	7,2	2,3	2,4	3,1	3,4
8	Samarqand viloyati	8,2	4,2	4,5	5,1	4,4
9	Surxondaryo viloyati	4,6	2,1	2,0	0,8	1,0
10	Sirdaryo viloyati	4,6	4,2	2,8	4,5	7,1
11	Toshkent viloyati	11,4	9,6	8,5	7,7	24,4
12	Farg'ona viloyati	8,8	4,2	5,5	4,3	4,2
13	Xorazm viloyati	1,1	0,5	0,3	0,7	2,3
14	Toshkent shahri	24,8	33,5	24,0	13,8	17,7

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq qarzdorligini bevosita soliq turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, bunda soliq qarzdorligi eng ko'p ulushga ega bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Yuqorida keltirilgan 2.7-jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, respublikamiz hududlarida QQS bo'yicha soliq qarzdorligi tahlil qilinayotgan yillarda turlicha bo'lgan. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida yil boshiga nisbatan o'rtacha 3-4 foiz bo'lgan bo'lsa, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 2021-yilda 24,8 foizdan 2024-yilning boshiga kelib 17,7 foizga tushgan. QQS bo'yicha soliq qarzdorligining paydo bo'lishida korxonalar o'rtasidagi o'zaro debitorlik va kreditorlik qarzlari muhim rol o'ynasada, soliq to'lovchilardagi pul mablag'larini to'g'ri prognozlashtirish va uni to'g'ri boshqarish bu jarayonda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari soliq xizmati organlari tomonidan QQSni undirish borasidagi ma'murchiligining samaradorligi ham ta'sir qilgan (2.8-jadval).

2.8-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hududlar kesimida soliq qarzdorlik holati tahlili⁴⁴ (yil boshiga, foizda)

№	Hududlar	yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekneftgaz AJ	22,5	24,7	37,7	44,5	25,3
2	O'zbekenergiya DAK	24,8	28,3	18,6	1,0	4,5
3	O'zbekkimyosanoat	4,5	3,2	6,2	1,2	2,6
4	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	1,9	1,8	1,1	1,7	0,0
5	O'zbekagromashservis	3,2	2,1	1,2	0,1	0,0
6	O'zbekpaxtasanoat AJ	5,2	4,8	7,0	3,8	16,9
7	Fermer xo'jaliklari	0,6	0,1	0,1	0,1	0,3
8	O'zavtoyo'l DAK	1,4	1,0	1,1	0,6	1,5

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hududlar kesimida soliq qarzdorlik holatini tahlil qilish ham muhim hisoblanadi. Tahlillardan ko'rinadiki, korxonalar kesimida O'zbekneftgaz AJ tarkibidagi korxonalarda soliq qarzdorligi boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori bo'lgan, ya'ni, 2021-yil 22,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilning boshida 25,3 foizga to'g'ri kelgan. O'zbekneftgaz AJda esa,

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2021 va 2022-yillarda qarzдорlik summasi oʻrtacha 24-28 foiz boʻlgan boʻlsa, keyingi yillarda uning hajmi kamaygan va 2024-yilning boshida esa 4,5 foizga tushganligini koʻrish mumkin. 2.8-jadvalda keltirilgan boshqa tarmoqlarda esa, soliq qarzдорligi nisbatan past koʻrsatkichni tashkil qilgan. Faqatgina Oʻzbekpaxtasanoat AJ tarmogʻidagi korxonalarda 2024-yilning boshiga kelib soliq qarzдорligi summasi keskin oshib, 16,9 foizga etganligini koʻrish mumkin. Buning sababi esa toʻlov intizomidagi kamchiliklar va mahsulot realizasiya boʻyicha pul mablagʻlari harakatidagi uzilishlar va ular natijasida tarmoqdagi korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarning hajmi oshib ketish evaziga byudjet oldida soliq qarzдорligi oshib ketgan (2.9-jadval).

2.9-jadval

Soliq qarzдорliklarining davlat byudjeti va pensiya jamgʻarmasi kesimidagi tahlili⁴⁵ (foizda)

№	Koʻrsatkichlar	Yillar (yil boshiga)				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Davlat byudjetiga nisbatan	80,6	76,2	71,1	71,4	60,2
2	Pensiya jamgʻarmasiga nisbatan	13,7	17,8	22,3	24,7	33,4
3	Boshqa jamgʻarmalarga nisbatan	5,7	6,0	6,6	3,9	6,4

Agar, davlatning jami pul fondlari boʻyicha byudjet va byudjetdan tashqari jamgʻarmalar oldidagi jami qarzдорlikni tahlil qiladigan boʻlsak, eng katta ulushi davlat byudjeti oldidagi soliq qarzlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda, yaʼni, bunday qarzдорliklar 2021-yil 80,6 foizni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yilga kelib biroz kamaygan holda 60,2 foizni tashkil etmoqda. Pensiya jamgʻarmasi boʻyicha soliq qarzlarning hissasi oshib borganligini koʻrish mumkin. 2021-yilda uning hissasi jami pul fondlari boʻyicha qarzдорlikning 13,7 foizni tashkil qilgan boʻlsa, 2023-yilning boshida 24,7 foiz va 2024-yil boshida esa 33,4 foizni tashkil qilgan. Albatta, bu korxona va tashkilotlar tomonidan ijtimoiy soliqni toʻlash bilan bogʻliq

⁴⁵Muallif tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi va Soliq qoʻmitasi rasmiy maʼlumotlari asosida tayyorlangan.

muammollar bilan bogʻlanadiki, ish haqqi boʻyicha toʻlanadigan ijtimoiy soliqlarni oʻtkazish boʻyicha moliyaviy qiyinchiliklar bilan izohlanadi. Shu bilan birgalikda boshqa maqsadli jamgʻarmalarga nisbatan soliq qarzdorliklari ham vujudga kelgan boʻlib, ularga jami qarzdorliklarning oʻrtacha 4-6 foizi toʻgʻri kelmoqda (2.10- jadval).

2.10-jadval

Soliq qarzining ayrim tarmoqlardagi tahlili⁴⁶ (yil boshiga, mln soʻm)

t/r	Hudud nomi	Qishloq xoʻjalik korxonalarida				Umumiy ovqatlanish korxonalarida			
	Yillar	2021	2022	2023	2024	2021	2022	2023	2024
	Respublika boʻyicha	1 330,0	1 716,8	2 775,8	3 231,5	53 826,2	83 254,3	99 872,3	121 994,5
1	Qoraqalpogʻiston Res.	54,5	73,3	132,9	167,7	594,4	9 227,9	7 380,1	8 869,3
2	Andijon viloyati	110,3	161,8	370,1	265,8	1 314,3	3 410,0	9 973,9	10 880,9
3	Buxoro viloyati	111,3	106,0	169,7	263,0	10 691,0	4 391,7	4 576,9	4 190,2
4	Jizzax viloyati	67,6	125,8	205,5	215,3	1 056,7	2 146,2	3 587,8	5 657,6
5	Qashqadaryo viloyati	142,2	211,7	354,8	415,2	1 377,5	1 796,6	2 289,9	4 857,5
6	Navoiy viloyati	19,5	32,1	68,1	80,4	1 014,9	770,0	1 497,0	2 279,6
7	Namangan viloyati	76,5	89,9	173,5	175,4	440,9	805,3	3 744,9	9 464,9
8	Samarqand viloyati	136,2	211,5	317,8	336,6	1 318,7	1 730,0	4 413,8	6 554,6
9	Surxondaryo viloyati	94,8	131,0	196,0	215,0	1 534,3	1 329,1	2 129,3	3 812,3
10	Sirdaryo viloyati	66,6	137,4	193,5	213,0	3 372,5	1 218,3	2 673,6	3 786,3
11	Toshkent viloyati	163,3	174,1	273,0	337,3	3 461,9	9 225,2	7 006,0	7 868,3
12	Fargʻona viloyati	129,5	186,9	186,8	344,1	3 695,5	9 210,5	7 537,2	8 895,4
13	Xorazm viloyati	43,1	58,6	125,6	180,5	420,9	845,5	1 617,2	2 877,2
14	Toshkent shahri	13,9	16,6	8,3	11,6	23 432,3	37 148,0	41 444,2	41 990,0

Ayrim tarmoqlarda soliq qarzdorligini tahlilini qishloq xoʻjalik korxonalari va umumiy ovqatlanish korxonalari misolida tahlil qiladigan boʻlsak, qishloq xoʻjalik korxonalari ham umumiy ovqatlanish korxonalari ham tahlil qilinayotgan

⁴⁶ Soliq qoʻmitasining maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yillarda soliq qarzdorligi oshib borganligini ko'rish mumkin, bu iqtisodiy jihatdan ijobiy holat emas. 2021-yilda qishloq xo'jalik korxonalarida soliq qarzdorligi 1 330,0 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib ikki borobardan oshib 3 231,5 mln so'mni tashkil etgan. Bu holat fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi sohasida klaster korxonalarida moliyaviy mablag'larni noto'g'ri boshqarish hamda o'zaro debitorlik va kreditorlik qarzlarning oshib ketishi va bu masala qiyin iqtisodiy holatga kelib qolganligi oqibatida soliq qarzdorligi kelib chiqqan. Boshqa tomondan qishloq xo'jaligining agrotexnik xususiyatlari daromad olgandan keyin soliqlarni to'lashiga to'g'ri kelishi oqibatida ham soliq qarzlari yildan yilga o'tib kelishi holatlari uchrab turibdi, bu esa, bu sohada pul mablag'larini boshqarishda qat'iy choralar ko'rilishini taqozo etadi, aks holda soliq qarzlarning yillar davomida to'lanmasligi oqibatida byudjetga katta zarar keltirish davom etaveradi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida ham soliq qarzdorligi yildan yilga oshib borganligi ko'rish mumkin. 2021-yil boshida uning miqdori 53826,2 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, xuddi qishloq xo'jaligi korxonalari singari 2024-yil boshiga kelib ikki barobardan oshib 121994,5 mln so'mni tashkil etgan. Bu korxonalarda pul aylanishi qishloq xo'jaligidan farq qilib, uning aylanish tezligi ancha yuqoridir. Ammo, bu tarmoqdagi ayrim korxonalarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, pul oqimlarining noto'g'ri amalga oshirilishi, debitor-kreditor qarzlarning oshib to'lov tizimining tartibga solinmasligi soliq qarzdorligini keltirib chiqargan. O'z navbatida tahlil qilingan bu ikki tarmoqda yirik monopol korxonalar kam uchraydi, ularda kichik va o'rta biznesga daxldor korxonalar ko'pchilikni tashkil etadi, risk darajasi ham unchalik yuqori emas. Shu boisdan bu kabi korxonalarda soliq qarzdorligini boshqarish ham o'ta murakkab emas, shuning uchun ularda birinchi navbatda debitor-kreditor chigalliklarini iqtisodiy jihatdan echimini topishning iqtisodiy mexanizmlarini ishga solish kerak, ikkinchidan esa, soliq taqvimini to'g'ri ishlab chiqib, uni moliyaviy to'g'ri rejalashtirish zarur bo'ladi, uchinchidan esa, bu korxonalarda soliq madaniyatini oshirishni taqozo etadi (2.11-jadval).

2.11-jadval

Respublikamiz soliq tizimida soliq qarzdorliklarni undirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar tahlili(2024 yil boshiga)⁴⁷ (mlrd so‘m)

T/r	Hududlar nomi	Undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan maxsus xisob raqami mavjud qishloq xo‘jaligi korxonalar	Kamaytirilgan soliq yillik summasi	Soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati bo‘yicha muddati uzaytirilgan soliq qarzi summasi
	Jami	33 374	1 684,9	944,8
1	Qoraqalpog‘iston R.	1783	56,4	3,1
2	Andijon viloyati	2348	126,8	128,6
3	Buxoro viloyati	2194	113,5	42,3
4	Jizzax viloyati	2563	54,6	182,7
5	Qashqadaryo viloyati	5387	279,6	75,4
6	Navoiy viloyati	1010	14,6	155,8
7	Namangan viloyati	2373	34,1	8,5
8	Samarqand viloyati	3887	240,7	31,9
9	Surxondaryo viloyati	2151	66,9	49,1
10	Sirdaryo viloyati	1237	74,1	26,3
11	Toshkent viloyati	2707	308,2	78,6
12	Farg‘ona viloyati	4179	56,8	65,2
13	Xorazm viloyati	1551	90,6	9,6
14	Toshkent shahri	4	168	88,0

Albatta soliq qarzdorliklari iqtisodiy munosabatlar doirasida doimo saqlanib qolish tendensiyasiga ega bo‘lib qolmoqda, ammo ularni undirish masalasi ham bu boradagi muhim hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan 2.11-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan maxsus xisob raqami mavjud qishloq xo‘jaligi korxonalar 2024-yilning boshida 33 374 tani tashkil etgan bo‘lsa, kamaytirilgan soliq yillik summasi 1684,9 mlrd so‘mni, soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati bo‘yicha muddati uzaytirilgan soliq qarzi summasi esa, 944,8 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu esa, soliq qarzdorliklarni undirishda soliq to‘lovchilarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan kelib chiqib yondoshilganligini

⁴⁷ Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

bildiradi. Umuman olganda soliq qarzidorliklari soliq to'lovchilarning nobarqaror yoki stixiyali iqtisodiy faoliyat yuritishi oqibatida kelib chiqadi, ammo iqtisodiy munosabatlarda shunday holat ham ro'y beradiki, bu jarayon bilan bog'liq holatlarni tahlil qilganda, yuzaga kelgan soliq qarzidorliklarni undirishdan ko'ra, ayrim soliq to'lovchilarga imkoniyat berish ikki tomonlama manfaatli bo'ladi, shuni e'tiborga olgan holda soliq qarzlarni undirishda yuqorida keltirilgan jadvalda keltirilganidek holatlardan ham foydalaniladi (2.12-jadval).

2.12-jadval

Faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub'ektlaridan soliq qarzining hisobdan chiqarilishi tahlili (2024 yil boshiga)⁴⁸ (mln.so'm)

T/r	Hudud nomi	YaTTlar soni	Jami xisobdan chiqarilgan	Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarilishi	Shundan penylar summasi	
					Hisoblangan penya	Majburiy undiruvga qaratilgan qismi (1 mln. so‘mdan yuqori)
Respublika bo‘yicha		457 563	476 805,2	298 219,1	16 793,7	292 058,6
1	Qoraqalpog‘iston Res.	16 470	8 483,8	405,8	8 044,9	8 044,9
2	Andijon	69 140	34 463,4	1 910,1	33 874,7	33 874,7
3	Buxoro	30 726	32 816,0	1 771,5	31 975,2	31 975,2
4	Jizzax	18 580	5 060,7	224,7	4 790,0	4 790,0
5	Qashqadaryo	32 124	27 037,1	1 550,1	26 398,2	26 398,2
6	Navoiy	15 298	5 731,9	576,1	5 395,9	5 395,9
7	Namangan	47 974	12 120,4	781,7	11 833,7	11 833,7
8	Samarqand	35 355	26 114,5	1 554,2	25 611,6	25 611,6
9	Surxondaryo	28 530	9 230,3	476,8	8 963,0	8 963,0
10	Sirdaryo	16 876	4 785,2	294,9	4 670,6	4 670,6
11	Toshkent v	31 626	69 237,4	3 310,1	68 677,1	68 677,1
12	Farg‘ona	61 742	20 204,5	1 209,9	19 705,5	19 705,5
13	Xorazm	21 431	20 019,5	1 151,9	19 396,9	19 396,9
14	Toshkent sh	31 691	22 914,4	1 575,9	22 721,3	22 721,3

Soliq qarzining vujudga kelishida faoliyat ko'rsatib keyinchalik turli sabablarga ko'ra faoliyatini tugatish natijasida moliyaa'iy nobarqarorlik vujudga kelishi oqibatidagi iqtisodiy holat ham katta ta'sir qiladi. Bu holatni respublikamiz

⁴⁸ Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

hududlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ta'sirchan mexanizmlarni qo'llab hisobdan chiqarish esa, 2023-yil yakunlari bo'yicha 476 805,2 mln so'mlik soliq qarzlari hisobdan chiqarilgan, bunda Toshkent viloyati, Andijon viloyati va Buxoro viloyatlaridagi korxonalarning soliq qarzlari hisobdan chiqarilishi nisbatan ustunlikni tashkil qiladi. Ular yuzasidan hisoblangan 16 793,7 ta korxona bo'yicha penyalar hisobdan chiqarilgan bo'lsa, shuning 1 mln so'mdan ortiq bo'lgan soliq qarzдорliklari hisobiga 292 058,6 mln so'mlik soliq qarzдорligi hisobdan chiqarilgan. Buning natijasida ob'ektiv iqtisodiy sabablarga ko'ra, hisoblangan soliq qarzi summalari hisobdan chiqarilib, byudjetni rejalashtirishda e'tiborga olmaslik sababli pul tushumlarining realligi ta'minlangan.

Bundan tashqari soliq qonunchiligiga ko'ra, ayrim soliq to'lovchilarning faoliyatining mazmuniga va holatiga qarab ularning soliq qarzlarini umidsiz qarz sifatida baholanib, ular hisobdan chiqariladi. Jumladan, agar soliq to'lovchi o'z faoliyatini tugatayotganda uning mol-mulk soliq qarzini qoplashga etarli bo'lmasa, uni umidsiz qarz sifatida e'tirof etib hisobdan chiqarish mumkin. Bu tartib yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslarga ham qo'llaniladi. Masalan, jismoniy shaxs yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanib va boshqa daromad oluvchi faoliyat bilan shug'ullanib vafot etsa albatta bunda umidsiz qarz prinsipini ko'llash orqali soliq qarzlari hisobdan chiqariladi.

Soliq qarzining vujudga kelishida debitor-kreditor qarzlarining mavjudligi katta ta'sir qilinishini yuqorida aytib o'tgan edik. Debitor qarzlarining soliq qarzining paydo bo'lishiga ta'siri shundaki korxonaning boshqa korxonalardagi undirishi lozim bo'lgan mablag'lari saqlanib qolishi oqibatida soliq to'lovchida pul mablag'lari bilan muammo paydo bo'ladi va soliqlarni to'lash imkoniyati tushib ketadi, oqibatda esa soliq to'lovlaridan qarzдорlik paydo bo'ladi. Kreditorlik qarzlari esa, aksincha, boshqalardan olgan materiallari yoki xom-ashyo uchun to'lashi lozim bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida to'lab bermaganligi sababli kreditor korxonada pul mablag'lari bo'yicha taqchillik paydo bo'ladi va natijada esa ularning ham soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasdan soliq qarzi kelib chiqadi (2.13-jadval).

**Debitorlik qarzi mavjud korxonalarning soliq qarzlarini to'lash
imkoniyati tahlili⁴⁹ (mlrd so'm)**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			
		2021	2022	2023	2024
1	Debitorlik qarzi mavjud korxonalar soni	27845	34651	50 796	49 276
	shundan:				
	Soliq qarzi mavjudlari	6258,7	7541,9	8 235,7	8621,1
	Debitorlik qarzi mavjudlari	52789,3	59233,6	69 843,2	55 426,1
	Soliq qarzini debitordan undirish imkoniyati mavjudlari	4478,1	4966,7	5 674,0	7236,4

Yuqorida keltirilgan 2.13-jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, respublikamizda soliq qarzini debitordan undirish imkoniyati mavjud soliq to'lovchilarda 2021-yilda 4478,1 mlrd so'mlik imkoniyatlar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 7236,4 mlrd so'mlik soliq qarzlarini debitorlik qarzlarini uzishga bog'liq bo'lib qolgan. Bundan ko'rinadiki, agar korxonalar boshqalardan undirishga nisbatan o'zlarining debitorlik qarzlarini uzishi birinchidan, qo'shimcha o'varagarchilikni oldi olinadi, boshqa tomondan esa, soliq qarzlarining kamayishiga, soliq tushumlarining bir maromda tushishiga imkon yaratadi. Shuning uchun soliq qarzidorliklarni uzishdagi asosiy masalalardan biri bu debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bo'lmog'i lozim. Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarining ko'payishini oldini olish uchun lozim darajada ehtiyotkorlik tamoyiliga amal qilish talab etiladi. Buning ma'nosi shuki, korxonalar iqtisodiy munosabatlarga kirishishdan oldin oldi-sotdi munosabatlari doirasida bunday korxonalar faoliyatini tahlil qilish lozim bo'ladi. Ular kontragent sifatida shubhali korxonalar ro'yxatiga tushmaganligiga ishonch hosil qilish kerak bo'ladi va ana shundan keyingina tovar sotishni amalga oshirish talab qiladi.

Amaldagi soliq qonunchiliga ko'ra, ya'ni Soliq kodeksining 26-moddasida nazarda tutilganidek, soliq xizmati organlari soliq qarzlarini majburiy tarzda undirishi huquqiga ega bo'lishi bir qatorda soliq qarzi bo'yicha boshqa vakolatli

⁴⁹ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

organlar-prokratura va sud organlariga tegishli tartibda da'vo arizalarini kiritib boradi va soliqlarni ular orqali undirishni ta'minlaydi. Soliq kodeksining 115-moddasiga ko'ra, soliq to'lovchi soliq qarzini o'z vaqtida to'lamasa, soliqni to'lash muddati o'tishi bilan soliq qarzini uch kun ichida uzish bo'yicha talabnoma yuboradi, agar, ushbu talab bajarilmasa yuqorida qayd etilganidek, belgilangan tartibda prokratura va sud organlariga da'vo ariza kiritadi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan sud organlariga kiritilgan da'volarning 2021-yilda 64 foizi, 2021-yilda 60,5 foizi va 2024-yilning boshida esa 63,6 foizi reestrda chiqarilgan va soliq qarzlari undirilgan, shuningdek, turli xil ob'ektiv-sub'ektiv sabablarga ko'ra soliq qarzlari bo'yicha kiritilgan da'volar summasi bo'yicha soliq qarzlari undirilmagan. Bu esa davlat soliq xizmati organlarining sudlarga kiritilgan da'volari bo'yicha soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishni talab qiliadi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, soliq qarzining paydo bo'lishi soliqlarning yig'iluvchanligiga salbiy ta'sir qiladi, soliq qarzidorligi ko'rsatkichini tahlil qilganda soliq xavfi darajasini ham aniqlash lozim bo'ladi va uning darajasiga qarab soliqlarning yig'iluvchanligi va soliq qarzidorligiga baho berish lozim bo'ladi. Demak, soliq yig'iluvchanligi va soliq qarzidorligi kabi soliq ko'rsatkichlari bir-biri bilan doimo uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shu sababdan bizning fikrimizcha soliqlarning yig'iluvchanligini tahlil qilganda albatta soliq qarzidorligini ham tahlil qilish lozim bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotimizning keyingi bosqichida soliq xavfi ko'rsatkichini tahlil qilishga harakat qilamiz.

2.3-§. Soliq xavfi ko'rsatkichi va uning soliq nazoratini tashkil etishdagi ahamiyati

Keyingi yillarda soliq tizimida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha ilgari soliq tizimida qo'llanilmagan yoki etarlicha e'tibor berilmagan jarayonlarni qo'llash orqali birinchidan, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish jarayoni yanada yaxshilanayotgan bo'lsa, ikkinchidan, soliq segmenti, soliq riski, soliq xavfi, risk-tahlil kabi tushunchalarni munosabatlarga aylantirish va u orqali soliq tizimining samaradorligi oshirila


boshlandi, uchinchidan, soliq xavfini tahlil qilish hamda soliq to'lovchilarda soliq xavfini aniqlash orqali soliq nazoratini qulay tashkil qilish ishlari yanada takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizom"⁵⁰da "soliq xavfi – byudjet tizimiga soliq va yig'imga soliq to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik ehtimoli" deb ta'riflangan. Demak, soliq xavfi soliq to'lovchilarning zimmlariga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan munosabat va tushuncha bo'lib, uni baholab borish soliq to'lovchi uchun ham byudjet uchun ham manfaatli bo'ladi, soliq to'lovchini turli xil iqtisodiy xatarlardan xoli etsa, byudjetga tushmay qolish mumkin bo'lgan mablag'larni prognoz qilish imkoniyatini beradi va uning oldini olish yuzasidan choralar ko'rishni taqozo etadi.

Soliq xavfini aniqlash davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchilar faoliyatini aralashuvini kamaytirgan holda soliq nazoratini amalga oshirishga imkoniyat beradi hamda mumkin qadar soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishning ma'muriy choralari ko'rishga undaydir. Amaliy jihatdan olganda soliq xavfini to'laroq aniqlash uchun soliq to'lovchilarning faoliyati segmentlanadi va potensial soliq xavfi aniqlanadi, soliq xavfi tahlilini o'tkazish orqali uning darajasi baholanadi hamda soliq xavfi aniqlanadi. Ularga asoslangan holda esa, soliq xavfini boshqarishning mexanizmlari ishga solinadi. Soliq xavfini aniqlash va uni bartaraf etish muammosi soliq tizimidagi eng dolzarb muammosi sifatida davlat soliq xizmati organlarining ajralmas faoliyat turidir. Uni nazorat qilib borish esa keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Tizimli ravishda olib qaraydigan

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizom". <https://lex.uz>.

bo'lsak, soliq xavfini aniqlash soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlashdan soliq nazorati tadbirlarini belgilashga bo'lgan jarayonni qamrab oladi (2.4-rasm).




2.4-rasm. Soliq yig'iluvchanligi, soliq qarzi va soliq xavfining o'zaro bog'liqligi⁵¹

Ma'lumki, soliq tizimida eng murakkab mexanizmga ega bo'lgan soliqlar bu QQS va foyda solig'i hisoblanadi. Shu jihatdan biz soliq xavfini aniqlashda ushbu ikki soliq turi bo'yicha tahlillar va ularni aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlarga to'xtalamiz. Yuqorida keltirilgan 2.4-rasmda keltirilganidek, ular bo'yicha soliq xavfini aniqlash mezonlari turlicha bo'lib, ular soliqqa tortish hamda soliq bazasini aniqlash xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayrim keltirilgan mezonlar ikkila soliqni bir xil tartibda soliq xavfini aniqlashga xizmat qiladi.

Soliq xavfini aniqlashda eng murakkab jihatlardan biri bu potensial soliq xavfini aniqlash jarayoni hisoblanadi, buni aniqlash uchun esa xavfni aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu mezonlarni belgilash esa,

⁵¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

soliq to'lovchilarning soliq turlarini to'lash nuqtai nazaridan xususiyatlari muhim sanaladi. Asosiy soliq turlaridan hisoblangan foyda va QQS bo'yicha bunday mezonlar haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun esa quyidagi 2.5-rasmni keltiramiz.



2.5-rasm. Qo'shilgan qiymat va foyda solig'i bo'yicha soliq xavfini aniqlashning ayrim mezonlari⁵².

⁵² Muallif tomonidan tuzilgan.

Masalan, foyda bo'yicha soliq xavfini aniqlash mezonlari sifatida foydalanadigan quyidagi mezonlar: QQS hisoboti bo'yicha hisobga olinmagan QQS summasining foyda solig'i xarajatlarida to'g'ri aks ettirilishini tahlil qilish, foyda solig'i va QQS hisoboti mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olingan daromadlar ko'rsatkichlarini solishtirish, foyda solig'i va QQS hisobotlarining mahsulot sotishdan sof tushumi ko'rsatkichlarini solishtirish kabi mezonlar hamda QQS bo'yicha soliq xavfini aniqlash tarzida qo'llaniladigan mezonlar: qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i ko'rsatkichlarini solishtirish, qo'shilgan qiymat solig'i va EHF ko'rsatkichlarini solishtirish kabilar har ikki soliq bo'yicha soliq xavfini aniqlashda foydalanish mumkin. Soliq xavflarining bunday uyg'unlikka egaligi bu ikki soliq turi ham asosan mahsulot tannarxi bilan va xarajatlar bilan bog'liq bo'lganligi bilan tavsiflanadi.

Bu mezonlarga asosan davlat soliq xizmati organlari ma'lum bir tahlillarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Jumladan, korxonalarni sohalar kesimiga ajratish va soliq xavfi bo'yicha tahlil qilish, xavfni aniqlash bo'yicha mavjud mezonlarni qaytadan ko'rib chiqish va kengaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha xavfni aniqlash maqsadida xavfi yuqori bo'lgan sohalarni tahlil qilish, soliq xavfi o'rta yoki yuqori bo'lgan korxonalarda kameral, sayyor soliq va soliq auditi tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha avtomatlashtirilgan dasturiy mahsul yaratish uchun texnik topshiriq ishlab chiqish, tashqi manba ma'lumotlari asosida kameral, sayyor soliq va soliq auditi tekshiruvlarini o'tkazish uchun korxonalar ro'yxatini shakllantirish, soliq xavfi o'rta bo'lgan korxonalarda kameral soliq tekshiruvini o'tkazish uchun korxonalar ro'yxatini shakllantirish va tegishli bo'limga taqdim etib borish, soliq xavfi yuqori bo'lgan korxonalarda soliq auditini o'tkazish uchun korxonalar ro'yxatini shakllantirish va tegishli bo'limga taqdim etish, soliq xavfi o'rta bo'lgan korxonalarda sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun korxonalar ro'yxatini shakllantirish va tegishli bo'limga taqdim etib borishi zarur bo'ladi (2.14-jadval).

**Foyda va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq xavflari mezonlarini
qo‘llash asosida aniqlangan soliq xavflari tahlili⁵³**

№	Soliq xavfi ko‘rsatkichlari	Soliq turlari					
		Foyda solig‘i			Qo‘shilgan qiymat solig‘i		
		2021-y	2022-y	2023-y	2021-y	2022-y	2023-y
AvtoKameral” dasturiy mahsuliga joriy qilingan mezonlar asosida aniqlangan soliq xavfi							
	Mezonlar soni	24	18	21	31	25	28
	Tafovut summasi (mlrd so‘m)	11650,2	8316,5	9568,4	4965,2	3580,8	6547,2
Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan soliq xavfi							
	Mezonlar soni	11	9	7	7	5	12
	Tafovut summasi (mlrd so‘m)	4368,4	3970,0	4641,2	2258,2	1916,8	2278,2
Soliq hisobotlari ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan soliq xavfi							
	Mezonlar soni	13	9	14	24	20	16
	Tafovut summasi (mlrd so‘m)	7281,8	4346,5	4927,2	2707	1663,9	4296,0

Foyda va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq xavflari mezonlarini qo‘llash asosida aniqlangan soliq xavflari tahlili xulosalarini yuqoridagi jadval asosida umumlashtirish mumkinki, AvtoKameral” dasturiy mahsuliga joriy qilingan mezonlar asosida aniqlangan soliq xavfida tahlil qilinayotgan yillarda turlicha mezonlar qo‘llanilgan. Masalan, ushbu dasturga 2023-yilda foyda solig‘i bo‘yicha 21 ta mezondan foydalangan bo‘lsa, QQS bo‘yicha 28 ta mezon qo‘llanilishi asosida aniqlangan tafovutlar summasi 2023-yilning o‘zida mos holda 9568,4 mlrd so‘m va 6547,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Soliq xavfi bu ikki soliq turi bo‘yicha moliyaviy va soliq hisobotlari ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda aniqlangan soliq xavflari bo‘yicha tafovut summalariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, foyda solig‘i bo‘yicha 2021 yilda 7281,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 4927,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2354 mlrd so‘mga kamaygan, demak, soliq xavflari summasi kamayib, soliq to‘lovchilarda soliqdan qochish holatlari biroz kamaygan deb xulosa qilishga imkon beradi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra⁵⁴, soliq xafini aniqlashda dastlabki bosqichlardan biri soliq to‘lovchilar faoliyatini segmentlash amal oshiraladiki, bu

⁵³ Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom”. <https://lex.uz>.

asosan soliq to'lovchilarning zimmalariga biriktirilgan soliq majburiyatlarini bajarmasligi mezonidan kelib chiqqan holda xavf darajasiga qarab ularni muayyan toifalarga ajratish jarayoni hisoblanib, uning natijalariga ko'ra, soliq to'lovchilar past, o'rta va yuqori xavfli soliq xavfi toifalarga ajratiladi (2.15-jadval).

2.15-jadval

Soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash asosida aniqlangan soliq xavflari doirasida amalga oshirilgan soliq nazorat tadbirlari⁵⁵ (mlrd so'm)

№	Soliq nazorati tadbirlari	2022-yil			2023-yil			2024-yil		
		Tafvut aniqlangan korxonalar (aniqlangan xavf)		Tekshirish-da aniqlangan summa (soliq xavfining tasdiq topishi)	Tafvut aniqlangan korxonalar (aniqlangan xavf)		Tekshirish-da aniqlangan summa (soliq xavfining tasdiq topishi)	Tafvut aniqlangan korxonalar (aniqlangan xavf)		Aniqlangan summa (soliq xavfining tasdiq topishi)
		soni	Summasi		soni	summasi		soni	summasi	
	Kameral soliq tekshiruvlari	9542	2278,6	1625,4	7489	1829,4	1225,2	9561	2364,1	1765,4
	Soliq auditi	168	697,2	849,4	115	648,1	576,7	225	971,5	769,4
	Jami	9710	2975,8	2474,8	7604	2477,5	1801,9	9786	3335,6	2534,8

Yuqoridagi 2.15-jadval ma'lumotlariga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, soliq to'lovchilarning soliq xavfi darajasidan kelib chiqib soliq nazorati amalga oshiriladi. Ko'rish mumkinki, kameral soliq tekshiruvlari va soliq auditi doirasida 2022-yil 9542 soliq to'lovchilarda 2975,8 mlrd so'm soliq xavfi summasi aniqlangan bo'lsa, 2024-yilda soliq xavfi aniqlangan korxonalar soni 9561 tani tashkil etgan va 2022-yilga nisbatan 19 taga ko'payganki, soliq tizimida soliq xavfini qo'llashning soliq to'lovchilar faoliyatini shaffoflashtirish va ularni ma'lum darajada soliq qonunchiligiga amal qilinishiga undaganligining samarasini ko'rsatadi. Aniqlangan soliq summasi ham tahlil qilingan yillarda $(3335,6/2975,8)*100$ 12,0 foizga ko'payganligini ko'rish mumkinki, soliq xavfi doirasidagi soliq nazoratlari turlarini belgilash doirasida ham miqdoriy ham sifat ko'rsatkichlari bo'yicha samaradorlikka erishganligini ko'rish mumkin.

⁵⁵ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq xavfi tahlilariga asosan soliq nazorat tadbirlari⁵⁶ (mlrd so‘m)

№	Yillar	Tafvut (risk) aniqlangan korxonalar bo'yicha soliq xavfi			Kameral tekshiruv natijalari		
		Soni	summasi	Tekshirishda aniqlangan summa (qo'shimcha hisoblangan)	Soni	summasi	Soliq xavfining asoslantirilganligi
1	2020	10 387	3 140,0	1 973,0	10 242	2 547,4	1 216,4
2	2021	11235	3658,7	2789,4	12478	3954,2	1694,3
3	2022	13465	2981,6	2125,2	14695	2796,4	1928,5
4	2023	16956	4978,2	3629,8	15525	3913,6	2456,4
5	2024	19425	6725,6	5316,0	17212	4126,4	3628,6

Yuqorida ta'kidlandiki, soliq xavfi natijalari asosida soliq nazorati tadbirlari aniqlanadi va choralar amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar faoliyatida yuzaga kelgan soliq xavfi korxonalar kesimida aniqlanib aniqlangan tafvutlar soliq tekshiruvlarida tasdig'i topishi holati ham aniqlanadi. Jumladan, yuqoridagi 2.16-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020-2024-yillarda tafvut (risk) aniqlangan korxonalar bo'yicha soliq xavfi korxonalar soni va summada aniqlangan, ularning qancha qismi soliq tekshiruvlarida qo'shimcha soliq hisoblanganligi tahlili keltirilgan. Bundan tashqari ushbu jadvalda kameral soliq tekshiruvlari doirasida dastlab soliq xavfi aniqlangan summalarining haqqoniyliги ham tekshirib ko'riladi. Xususan, 2024-yilning o'zida jami 19425 ta korxona doirasida 6725,6 mlrd so'mlik soliq xavfi aniqlangan bo'lib, ularning 5316,0 mlrd so'mi tekshirishda qo'shimcha aniqlangan soliq summasi bo'lgan, bu aniqlangan 19425 ta korxonaning 17212 tasida kameral soliq tekshiruvlari jarayonidagi 4126,4 mlrd so'm aniqlangan, shulardan 3628,6mlrd so'mi soliq tekshiruvida asoslantirilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, dastlabki aniqlangan soliq xavfi summalarini ularning natijalariga qarab belgilangan soliq tekshiruvlari-kameral, sayyor va soliq auditi natijalari asosida tasdig'i topish darajasi aniqlanadi, bu esa soliq to'lovchilarning faoliyatini imkon qadar aralashmasdan soliq nazorati tadbirlarini o'tkazishda o'z ahamiyatiga ega bo'ladi.

⁵⁶ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqori darajadagi soliq xavfi vujudga kelgan ayrim soliq to'lovchilarda o'tkazilgan soliq auditlari natijalari tahlili⁵⁷(mln so'm)

№	Korxonalar nomi	2021-yil			2022-yil			2023-yil		
		Aniqlangan soliq xavfi summasi jami	Soliq auditida aniqlangan (qo'shimcha hisoblangan) summa	Tasdig'ini topgan summa	Aniqlangan soliq xavfi summasi jami	Soliq auditida aniqlangan (qo'shimcha hisoblangan) summa	Tasdig'ini topgan summa	Aniqlangan soliq xavfi summasi jami	Soliq auditida aniqlangan (qo'shimcha hisoblangan) summa	Tasdig'ini topgan summa
1	"AGRO LINA" MJCh	2 470,3	3 407,6	2 470,3	1642,1	2463,2	1964,4	2 470,3	3 407,6	2 470,3
2	"TRANSGAZINJINIRING" MChJ	7 895,0	32 889,5	7 895,0	4269,6	14258,7	6933,4	2896,3	3148,7	2661,0
3	"REAL PRODUCTION" MChJ	1 618,9	340,4	36,0	2214,3	1655,4	1236,7	1642,8	1966,1	950,7
4	"KUMUSH METAL BIZNES" MChJ	1 300,2	266,8	0,63	2468,4	1859,8	1133,7	3859,1	2675,8	1963,5
5	"MEGA FEED"XK	639,8	37,7	37,7	216,7	74,8	62,8	185,6	58,9	96,8

Soliq xavfini aniqlashda ayrim korxonalar kesimida tahlil qilishni keltirgan holda xulosa qilish mumkinki, aniqlangan soliq xavfi summasi soliq auditi doirasida qo'shimcha hisoblangan soliq summasi ayrim soliq to'lovchilarda 50 foiz soliq xavfini ko'rsatsa, ayrimlarida aniqlangan soliq xavfi summasiga nisbatan qariyb 4,5 martadan ortiq bo'lgan. Masalan, "TRANSGAZINJINIRING" MChJda dastlabki soliq xavfi summasi 7895,0 mln so'm bo'lgan bo'lsa, soliq audit doirasida o'tkazilgan soliq tekshiruvlari natijasida 32 889,5 mln so'm bo'lgan, ya'ni dastlabki soliq xavfiga nisbatan 4,5 martaga ko'p bo'lgan. Demak, bu korxona doirasida dastlabki soliq xavfi etarlicha aniqlikda hisoblanmagan yoki soliq xavfini aniqlashda qo'llanilgan mezonlar noto'g'ri tanlangan yoki hisob-kitoblar to'g'ri amalga oshirilmagan bo'lishi mumkin. Aslida esa dastlabki soliq xavfida aniqlangan soliq summalari tekshiruvlari natijasidagi natijalar bilan juda katta miqdorda farq qilmaslik talab etiladi.

⁵⁷ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.18-jadval

**Ayrim soliq to'lovchilarda soliq xavfi doirasida aniqlangan holatlarni
qayta hisobotlarda aks ettirilishi va byudjetga undirilishi holati tahlili (2023 yil) ⁵⁸(mln so'm)**

№	Soliq to'lovchi korxonalar	“Soliq xavfini aniqlash va tahlil qilish” tizimi orqali aniqlangan soliq xavfi summasi	Soliq to'lovchilar tomonidan qayta hisobot taqdim etilgandan keyin aniqlangan soliq xavfi summa	Soliq auditida dastlabki aniqlangan soliq xavfi summasi	Segmentda aniqlangan summaga nisbatan ijrosi (%)	Shundan:	
						Byudjetga kutilayotgan tushum	Moliyaviy jarimalar (20%)
1	"UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS" MChJ	8 536,0	0,0	55 463,2	649,8%	55 463,2	0,0
2	"DURABLE BETON" MChJ	4 046,0	1 393,3	40 650,0	1004,7%	38 500,0	2 150,0
3	"SIRDARYO ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	9 242,5	0,0	30 480,0	329,8%	25 400,0	5 080,0
4	"50-SONLI QURILISH BOSHQARMASI" MCHJ	4 150,8	0,0	25 080,0	604,2%	20 900,0	4 180,0
5	"CRAFERS" MChJ	25 085,3	0,0	22 200,0	88,5%	18 500,0	3 700,0

Aslida soliq xavfini aniqlash natijalari doirasida aniqlangan soliq summolari soliq to'lovchilarga uch ish kunida qayta hisob-kitob qilinishiga imkon beriladi. Ya'ni, qayta hisob-kitob qilinishi so'ralgan soliq to'lovchilar qaytadan hisob-kitob qilib, soliq xavfi doirasida aniqlangan summalariga o'zgartirish kiritish, tuzatishlar qilish va izohlar berish asosida davlat soliq xizmati organlariga qayta soliq hisobotini yuboradi va yana soliq xavfini aniqlash amalga oshirilgan holda natijalarga qarab soliq tekshiruvlari tayinlanadi. Uning natijalari bo'yicha byudjetga qancha qo'shimcha soliq tushumlari tushishi mumkinligini hisoblash mumkin bo'ladi.

⁵⁸ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan 2.18-jadvalda ayrim soliq to'lovchilarda soliq xavfi doirasida aniqlangan holatlarni qayta hisobotlarda aks ettirilishi va byudjetga undirilishi holati tahlili keltirilgan bo'lib, tahlil ob'ekti sifatida olingan korxonalardan "SIRDARYO ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ misolida ko'radigan bo'lsak, soliq auditida dastlabki aniqlangan soliq xavfi summasi 40 650,0 mln so'mni tashkil etib, dastlabki natijaga nisbatan 1004,7%ni tashkil etgan va byudjetga qo'shimcha hisoblangan ushbu korxonaning o'zidan 38 500,0 mln so'mlik soliq qo'shimcha hisoblangan. Bizga ma'lumki soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan soliq summolari byudjetga va uning bir qismi (40 foizi) dalvat soliq qo'mitasi huzuridagi maxsus hisobvaraqqa taqsimlanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu jarayonda soliq xavfini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish choralarini ko'rish, soliq nazorati amalga oshirilayotgan vaqtda nazorat qilinadigan bitim tuzilganligi aniqlangan va bu haqida korxona avvaldan habar bermagan taqdirda Davlat soliq qo'mitasiga bu bitim to'g'risida ma'lumot taqdim etish holatini o'rganish, taqdim etilgan xabarnomaga asosan o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuzilgan nazorat qilinadigan bitimning moliyaviy va iqtisodiy shartlarini mustaqil shaxslar o'rtasidagi bitim shartlari bilan taqqoslash lozim bo'ladi.

Soliq xavfini darajasini aniqlashda eng ko'p va umumlashtirilgan mezonlar sifatida quyidagilar: daromadni kamayishi bo'yicha xavf daromad kamayib, xarajatni oshishi bo'yicha xavf, sof foydani kamayishi bo'yicha xavf, rentabellikning kamayishi bo'yicha xavf, ish xaqi fondining kamayishi bo'yicha xavf, debitor bo'yicha xavf, keditor bo'yicha xavf va hisoblangan soliqlarning kamayishi bo'yicha xavf kabi mezonlar asosida korxonalar, ayniqsa, ko'proq soliqdan qochish holatlarini aniqlagan korxonalar doirasida soliq xavfi aniqlanadi.

Quyidagi 2.19-jadvalda keltirilayotgan soliq xavfini aniqlashning eng muhim mezonlarini qo'llagan holda tarmoqlar kesimidagi tahliliga ob'ekt sifatida ishlab chiqarish, qurilish, savdo faoliyati, transport va neft-gaz tarmog'i korxonalari misolida keltirilgan. Tahlillarning ko'rsatishicha hisoblangan soliqlarning kamayishi bo'yicha xavf summasi bu yakuniy umumlashtiruvchi mezon sifatida keltirilganki, agar ko'radigan bo'lsak, uning miqdori tarmoqlar bo'yicha farqlanadi.

**Soliq xavfini aniqlashning eng muhim mezonlarini qoʻllagan holda
tarmoqlar kesimidagi tahlili⁵⁹**

№	Soliq xavfi mezonlari	Tarmoqlar				
		Ishlab chiqarish	Qurilish	Savdo faoliyati	Transport	Neft-gaz tarmogʻi
2021-yil (korxonalar soni)						
	Daromadni kamayishi boʻyicha xavf	695	587	269	345	421
	Daromad kamayib, xarajatni oshishi boʻyicha xavf	457	698	1258	1469	4561
	Sof foydani kamayishi boʻyicha xavf	2369	1975	6541	2589	4136
	Rentabellikning kamayishi boʻyicha xavf	4561	2875	1364	2893	2165
	Ish xaqi fondining kamayishi boʻyicha xavf	6987	7896	2641	3876	1496
	Debitor boʻyicha	9871	12659	14321	21648	3645
	Kreditor boʻyicha	6915	5931	4689	7364	8465
	Hisoblangan soliqlarning kamayishi boʻyicha xavf (summasi, mlrd soʻm)	2569,2	1639,7	1642,6	2612,3	2945,4
2022-yil (korxonalar soni)						
	Daromadni kamayishi boʻyicha xavf	1256	2541	3654	2791	963
	Daromad kamayib, xarajatni oshishi boʻyicha xavf	698	1050	1236	3287	865
	Sof foydani kamayishi boʻyicha xavf	3642	2789	4612	4633	2463
	Rentabellikning kamayishi boʻyicha xavf	3562	4423	5062	3731	2269
	Ish xaqi fondining kamayishi boʻyicha xavf	7319	8246	9461	7763	2569
	Debitor boʻyicha	12589	14225	25741	16421	3975
	Kreditor boʻyicha	4496	5698	8952	3791	1625
	Hisoblangan soliqlarning kamayishi boʻyicha xavf (summasi, mlrd soʻm)	2691,4	1692,5	2498,7	2628,4	2549,1
2023-yil (korxonalar soni)						
	Daromadni kamayishi boʻyicha xavf	1532	2314	2654	3126	1175
	Daromad kamayib, xarajatni oshishi boʻyicha xavf	3641	2681	4453	3526	2342
	Sof foydani kamayishi boʻyicha xavf	6345	4562	5231	7129	3214
	Rentabellikning kamayishi boʻyicha xavf	4423	3813	3981	4621	3967
	Ish xaqi fondining kamayishi boʻyicha xavf	6235	7731	6942	4435	6286
	Debitor boʻyicha	33861	26541	32689	41268	25332
	Kreditor boʻyicha	42631	37654	42687	24369	1196,3
	Hisoblangan soliqlarning kamayishi boʻyicha xavf (summasi, mlrd soʻm)	3698,7	4365,8	4436,0	3942,7	2635,4

Qarzdorlik boʻyicha katta summa qurilish tarmogʻidagi korxonalarda kuzatilgan, yaʼni bu koʻrsatkich bu tarmoqda 2023-yilda 4365,8 mlrd soʻm soliq xavfi vujudga kelgan. Boshqa tarmoqlarda ham bu koʻrsatkich boʻyicha soliq xavfi summalari vujudga kelgan boʻlib, masalan, savdo sohasida 2023-yil 4436,0 mlrd soʻmni tashkil etgan. Tahlillarning koʻrsatishicha, bu tarmoqlarda xufyona iqtisodiyotning koʻlami ham tarmoqlar kesimida katta ulushni egallaydi (oʻrtacha mos holda 42 va 39 foiz) va bu soliq xavfining yuqori boʻlishining asosiy

⁵⁹ Soliq qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

sabablaridan biri bo'lgan. Buning uchun esa, bizningcha, transfert narxni belgilashda soliq nazoratini amalga oshirishda aniq bitimga tegishli bo'lgan hujjatlarni soliq to'lovchidan talab qilish, xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash orqali soliq solish qismida iqtisodiyotning xufiyona sektorini legallashtirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish, tashqi va ichki manba ma'lumotlari asosida kameral, sayyor soliq va soliq auditi tekshiruvlarini puxta o'tkazish, soliqdan qochish sxemalari mavjudligi aniqlangan taqdirda tegishli normativ hujjatlarga o'zgartirish kiritib borish talab etiladi.

2.20-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar bo'yicha soliq xavfi yuqori bo'lgan korxonalarda soliq xavfi mezonlarining amaliyotda qo'llanishi tahlili⁶⁰

№	Soliq xavfi mezonlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	Jami QQS guvohnomasi to'xtatilgan QQS to'lovchilar soni	45 995	21 379	0 ⁶¹
	QQS bo'yicha soliq yuqori bo'lgan korxonalar	45 995	21 379	121 550
1	Shaxsning "YaMMT" IDAK tizimida tasdiqlanmaganligi (rahbari)	39 503	12 604	88 346
2	Ta'sischi to'g'risida ma'lumotlar DSQ bazasida yo'qligi	28	23	34
3	Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan manzilda mavjud bo'lmaganligi	0	20	10
4	Nominal joylashgan joy manzili bilan mos kelganligi (18 kv.m.dan kam bo'lmagan)	2 413	0	156
5	Amalga oshirilayotgan bitimlar (operasiyalar) bo'yicha nomutanosibliklar mavjudligi	0	273	116
6	Soliq hisobotlari taqdim etilmaganligi	15 381	10 848	17 230
7	Soliq to'lovchining (ta'sischilari) soliq qarzi mavjud bo'lganligi	16 032	6 617	4236
8	Soliq qarzi mavjud yoki soliq xavfi yuqori soliq to'lovchi qo'shilganda (birlashganda)	39	33	21
9	Soliq to'lovchi rahbarining boshqa korxona rahbari sifatida soliq qarzi mavjudligi yoxud hisobot taqdim etilmaganligi	17 531	7 870	5421
10	Muqaddam bankrot bo'lgan tashkilotda, muqaddam soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan rahbarlik yoki ta'sischilik (ishtirokchilik) amalga oshirilganligi	2 100	856	452
11	Soliq xavfi yuqori va soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilgan rahbar yoki ta'sischi (ishtirokchi) shaxs tomonidan rahbarlik amalga oshirilganligi	671	717	512
12	Uch oydan ortiq vaqt davomida moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi	6 748	5 159	4492

⁶⁰ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁶¹ Hozirda bu jarayon to'xtatilgan va soliq to'lovchilarning QQS bo'yicha guvohnomalari faoliyati to'xtatilmaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliq xavfi darajasi soliq turlari bo'yicha QQS bo'yicha katta ulushni tashkil etadi, shu boisdan biz tahlillarimizda ushbu soliq turi bo'yicha ko'proq e'tibor qaratdik. Tahlil qilinayotgan korxonalar doirasidagi tahlillardan kelib chiqib, ushbu soliq xavfi darajasini kamaytirish uchun bizningcha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi: birinchidan, 2.20-jadval doirasida aniqlangan soliq xavfi bo'yicha kamida 100 mingdan ortiq korxonalar yuqori xavfdan chiqarilishi zarur bo'ladi, ikkinchidan, 200 mingdan ortiq mezonlar bo'yicha kamchiliklar bartaraf etilishi choralarni amalga oshirish kerak bo'ladi, uchinchidan, korxona raxbarlari va xodimlari mehnat shartnomalari o'z vaqtida ro'yxatga olinishini doimiy nazorat qilib borilishi lozim, to'rtinchidan, ta'sischilar bazasiga tuzatish kiritilib borilishi zarur, oltinchidan, kadastr ma'lumotlari va ijara shartnomalari bir-biriga to'g'ri kelishini ta'minlash lozim, ettinchidan, nominal joy manzillari real holatda to'g'rilanishi, aniqlangan 250 ta xufyona tashkilotlarda QQSni zaxetga olish mexanizmi to'xtatilishini ta'minlash kerak bo'ladi, sakkizinchidan esa, soliq hisobotlarini taqdim etilishi natijasida o'rtacha 400 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha hisoblanib, QQSdan bo'lgan qarzдорlik 577,0 mlrd.so'mga qisqartirilish choralarni ko'rish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, 2.19-jadval doirasida aniqlangan soliq xavfi bo'yicha 30 dan ortiq korxonalarning 50 mlrd.so'mdan ortiq qarzini undirish choralarni ko'rishi hamda qolgan ishlayotgan korxonalar ixtiyoriy tugatilishini amalga oshirish, korxona raxbarlarining boshqa bankrot korxonalari soliq majburiyatlariga berish, ular tomonidan soliq majburiyatlari bajarilishi ta'minlanib, 10 mlrd.so'mdan oshiq soliq qarzlari to'lab berilgan holda (kreditorlardan undirish orqali) korxona faoliyati tiklanishi ta'minlanish lozim bo'ladi.

Tadqiqot ishimizning ushbu paragrafi doirasidagi tahlillarimizga asoslangan holda quyidagi umumiy xulosalarni qilish mumkin:

birinchidan, soliq xavfi ko'rsatkichini aniqlash uning natijalari asosida soliq to'lovchilarni rasmiy ogohlantirish va ularga to'g'rilashga imkon berish ularning faoliyatiga ortiqcha aralashmagan holatda soliq nazoratini amalga oshirish imkoniyatini tug'dirmoqda;

ikkinchidan, soliq xavfini aniqlash va uni salbiy ta'sirini kamaytirish soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishning iqtisodiy omili sifatda foydalanish o'z ma'nosiga ega va ahamiyatlidir;

uchinchidan, soliq turlar bo'yicha eng ko'p soliq xavfi darajasi QQS va foyda solig'ida uchramoqda, buning asosiy sabablari esa, ushbu soliq turlari bo'yicha soliqdan qochish holatlarining paydo bo'lish omillari ko'pligi va ularning xarajatlar bilan bog'liqligi bilan bog'liqligidir;

to'rtinchidan, soliq xavfini aniqlash mezonlarini ko'pligi, iqtisodiyotda ro'y berayotgan o'zgarishlar va korxonalarning iqtisodiy munosabatlarga kirishishi hamda yangi iqtisodiy faoliyat turlarining kengayib borishiga muvofiq ravishda ushbu mezonlarni doimiy kengaytirib, mavjudlarini iqtisodiy samara jihatdan qayta ko'rib chiqish lozim bo'ladi;

beshinchidan, soliq xavfini aniqlashni aniqlashning uslubiyotini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi (bu haqda uchinchi bobda mualliflik takliflar beriladi).

2-bob bo'yicha xulosa

Soliqlarning yig'iluvchanligi davlat yoki mahalliy hokimiyatning soliq to'lovchilardan soliq tushumlarini yig'ish qobiliyatini aks ettirib, soliq tizimining moliyaviy barqarorligi va samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Soliq yig'iluvchanligi oshishiga iqtisodiy o'sish darajasi hal qiluvchi omil hisoblanadi, chunki, yangidan soliq bazasi shakllanadi. Soliq bazasining oshishi esa, ma'muriy usullar, ya'ni, soliq stavkasini oshirish, imtiyozlarni qisqartirish, soliq turlari va yig'implarni oshirish evaziga ham amalga oshirilishi mumkin, ammo, bu vaqtinchalik holat hisoblanadi.

Soliq yig'iluvchanligi bo'yicha xulosalarning umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, respublikamizda soliqlarning yig'iluvchanligi ko'rsatkichi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha 105-110 foizni tashkil qilsa, miqdoriy jihatdan o'sish esa, o'rtacha (oxirgi uch yilda) 20-22 trln so'mni tashkil qilgan, buning sabablaridan biri sifatida tarmoq tarkibiga kiruvchi korxonalarning barchasida ham

hisoblangan soliq summalarini o'z vaqtida byudjetga to'lashdan shoshilishmasligi, aksincha, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini keltirib chiqarishga harakat qilishi bo'lsa, bundan tashqari bu korxonalar bilan soliq ma'murchiligi bo'yicha olib borilgan ishlar qoniqarli emas, soliqlarning yig'iluvchanligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar sirasiga soliq to'lovchilarda yuzaga keladigan debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga kelishi oqibatida o'zaro hisob-kitoblarning murakkablashuvi bo'lsa, boshqa tomondan, soliq to'lovchilar bilan soliq ma'murchiligi jarayonidagi ayrim xatoliklar hamda soliq to'lovchilarda soliq madaniyatining shakllanmaganligi kabi omillarni keltirish mumkin.

Soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi eng muhim salbiy omillardan biri bu soliq qarzi hisoblanib, ularning paydo bo'lishi soliqlarning yig'iluvchanligiga salbiy ta'sir qiladi. Ayrim soliq yig'iluvchanligini aniqlash bo'yicha uslubiyotga ko'ra, jami tushumlardan soliq qarzi summasini chegirib tashlangan holda haqiqiy tushumlarni hisoblangan yoki prognoz qilingan soliq summasiga bo'lishadi. Demak, soliq yig'iluvchanligi va soliq qarzdorligi kabi soliq ko'rsatkichlari bir-biri bilan doimo uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shu sababdan bizning fikrimizga soliqlarning yig'iluvchanligini tahlil qilganda albatta soliq qarzdorligini ham tahlil qilish lozim bo'ladi. O'z navbatida esa, soliq qarzdorligi ko'rsatkichini tahlil qilganda soliq xavfi darajasini ham aniqlash lozim bo'ladi va uning darajasiga qarab soliqlarning yig'iluvchanligi va soliq qarzdorligiga baho berish lozim bo'ladi.

Soliq to'lovchilarni rasmiy ogohlantirish va ularga to'g'rilashga imkon berish ularning faoliyatiga ortiqcha aralashmagan holatda soliq nazoratini amalga oshirish imkoniyatini tug'dirmoqdaki, buni soliq xavfi ko'rsatkichini aniqlash uning natijalari asosida soliq xavfini aniqlash va uni salbiy ta'sirini kamaytirish soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishning iqtisodiy omili sifatda foydalanish o'z ma'nosiga ega va ahamiyatlidir.

3-BOB. SOLIQ KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUVOFIQLIGIKNI TA'MINLASH ORQALI SOLIQ TUSHUMLARINI KO'PAYTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1-§. Soliq yig'iluvchanligiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili

Ma'lumki soliqlar yig'iluvchanligi davlat byudjetini to'ldirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Soliqlar yig'iluvchanligining ortib borishi iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko'rsatayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur tadqiqotda respublikada soliqlar yig'iluvchanligi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish va ko'p omilli ekonometrik modellar tuzish asosida har bir omilning soliqlar yig'iluvchanligiga ta'sirini o'rganishdan iborat. Buning uchun ko'p omilli ekonometrik model tuzish talab etiladi. Ko'p omilli ekonometrik modellarning boshqa turdagi modellardan asosiy farqli jihati shundaki, bu erda barcha omillarning natijaviy omilga birgalikdagi ta'sirini hisobga oladi.

Ko'p omilli ekonometrik model tuzish uchun natijaviy va ta'sir etuvchi omillarni ajratib olishimiz zarur. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda natijaviy omil bo'lib, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi, mlrd. so'm, (Y), ta'sir etuvchi omillar esa – davlat byudjeti daromadlariga hisoblangan soliq summolari, mlrd. so'm, (X_1), soliq qarzdorligi, mlrd. so'm, (X_2), ortiqcha soliq to'lovlari, mlrd. so'm, (X_3) va soliq xavfi summasi, mlrd. so'm, (X_4).

Ko'p omilli ekonometrik modelning axborot bazasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasining 2015-2024-yillardagi ma'lumotlari hisoblanadi.

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazamiz. Hisoblangan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

Omilar o'rtasida hisoblangan tavsifiy statistika natijalari⁶²

	Y	X1	X2	X3	X4
Mean	97402.92	104307.7	4993.890	619.4000	7962.730
Median	97956.00	107400.5	4247.850	726.6000	8029.400
Maximum	199175.0	209166.3	11824.70	955.3000	11256.40
Minimum	23400.50	28358.90	1014.600	249.7000	4237.900
Std. Dev.	62573.41	63935.42	3830.942	261.9330	2097.377
Skewness	0.202496	0.188949	0.499185	-0.407420	-0.334562
Kurtosis	1.717419	1.738879	1.931360	1.622559	2.463995
Jarque-Bera	7.537640	7.221812	6.891139	6.067212	4.306261
Probability	0.003233	0.005477	0.009494	0.010898	0.044888
Sum	974029.2	1043077.	49938.90	6194.000	79627.30
Sum Sq. Dev.	3.52E+10	3.68E+10	1.32E+08	617480.0	39590910
Observations	10	10	10	10	10


Jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati (*mean*), medianasi (*median*), maksimal va minimal qiymatlari (*maximum*, *minimum*) qiymatlarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (*std. dev.* (*Standart Deviation*)) - standart chetlanish koeffisienti har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Skewness – asimmetriya koeffisienti bo'lib, u nolga teng bo'lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffisient 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya'ni, simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffisienti 0 dan katta, ya'ni musbat bo'lsa, u holda o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy bo'lsa, u o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi.

⁶²A.Ishnazarov, Sh. Nurullayeva, M. Muminova, N. Ro'zimetova. Ekonometrika asoslari O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 258 bet.

⁶² Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan 3.1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan X_3 va X_4 omillarning asimmetriya koeffisientlari manfiy qiymatlar qabul qilgan hamda ushbu omillar grafigining “chap dumi” “o'ng dumi” dan uzunroq ekanligini ko'rsatadi. Ammo, Y , X_1 va X_2 omillarning asimmetriya koeffisienti musbat qiymat qabul qilgan va ushbu omillar grafiklarining “o'ng dumi” “chap dumi” uzunroq bo'lgan. Barcha omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 3.1-rasmda keltirilgan.



3.1-rasm. Omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari⁶³

3.1-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Normal taqsimot grafigining nazariy qiymatlaridan omillarning hisoblangan taqsimot grafiklari asimmetrik holda joylashgan, ya'ni surilgan. Bu esa dinamikada respublikada soliq yig'implari ko'rsatkichlarining o'zgarib turganligini bildiradi.

⁶³A.Ishnazarov, Sh. Nurullayeva, M. Muminova, N. Ro'zimetova. Ekonometrika asoslari O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 258 bet.

⁶³ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun, omillar o'rtasida korrelyasion tahlil o'tkazamiz. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffisientlarini hisoblaymiz. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffisientlari matrisasi quyidagi 3.2-jadvalda keltirilgan.

3.2-jadval

Omillar o'rtasida hisoblangan korrelyasion matrisa⁶⁴

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 02/05/25 Time: 11:49

Sample: 2015 2024

Included observations: 10

Correlation

t-Statistic

Probabilit					
y	Y	X1	X2	X3	X4
Y	1.000000				
X1	0.999275	1.000000			
	74.23258	-----			
	0.0000	-----			
X2	-0.989291	-0.587466	1.000000		
	19.17141	-2.079904	-----		
	0.0000	0.0865	-----		
X3	0.701717	0.607060	-0.626931	1.000000	
	2.342648	2.140893	-3.414104	-----	
	0.0061	0.0804	0.0031	-----	
X4	0.671323	0.564333	-0.625360	0.480468	1.000000
	2.846169	2.006814	-2.463201	2.324314	-----
	0.0035	0.1087	0.0726	0.0320	-----

⁶⁴ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

3.2-jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffisientlari - bu natijaviy omil Y va unga ta'sir etuvchi omillar (X_i) o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffisientlari natijaviy omil – respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida turli xil bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda.


Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va davlat byudjeti daromadlariga hisoblangan soliq summalar (X_1) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,9993 ga teng. Bu esa ushbu ikki omil o'rtasida zich, to'g'ri bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va soliq qarzdorligi (X_2) o'rtasida bog'lanish teskari zich bog'langan. Ular o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffisienti -0,9893 ga teng. Ushbu holat mazkur ikki omil o'rtasida zich, teskari bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va ortiqcha soliq to'lovlari (X_3) o'rtasida o'rtachadan kuchli, to'g'ri bog'lanish mavjud ekan, ya'ni ular orasida xususiy korrelyatsiya koeffisienti 0.7017 ga teng. Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va soliq xavfi summasi (X_4) o'rtasida o'rtachadan yuqori, to'g'ri bog'lanish mavjud, chunki hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffisienti 0,6713 ga teng.

3.2-jadvalda hisoblangan ma'lumotlar bo'yicha ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffisientlari ham keltirilgan. Ushbu koeffisientlar orqali omillar o'rtasida multikollinearlik aniqlanadi. Agar ta'sir etuvchi omillar (X_i , X_j) o'rtasida juft korrelyatsiya koeffisientining hisoblangan qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud deyiladi. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffisientlari matrisasi hisoblangan 3.2-jadvaldan ko'rish mumkinki, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligiga (Y) ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffisientining hisoblangan qiymati 0,7 dan katta emas ekan. Bu esa o'z navbatida tanlangan barcha omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritish shartiga mos keladi.

Shuningdek, 3.2-jadvalda korrelyatsiya koeffisientlarining ishonchligi va ehtimolligini aniqlash bo'yicha koeffisientlar hisoblangan (hisoblangan korrelyatsiya koeffisientlarining tagida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir

korrelyatsiya koeffitsientining pastki qismida uning Styudentning t -mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi (*prob.*) keltirilgan. Omillar o'rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmaslik sharti qo'yiladi. Masalan, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va davlat byudjeti daromadlariga hisoblangan soliq summalari (X_1) o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsienti $r_{Y,X_1} = 0,9993$, $t = 74,2326$ va $prob. = 0,0000$ ga teng. Bu esa mazkur ikki omil o'rtasida zich bog'lanish borligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsienti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o'rtasida musbat kuchli bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarni tekshirishda, ya'ni omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari va shakllarini aniqlashda har bir omilning natijaviy omil (Y) bilan bog'liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko'rib chiqamiz (3.2-rasm).



3.2-rasm. Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) va unga ta'sir etuvchi omillar (X_i) o'rtasida bog'lanish shakllari grafigi⁶⁵

3.2-rasmdagi grafiklarda vizual ko'rinishda ham shuni aytish mumkinki, natijaviy omil (Y) bilan ta'sir etuvchi omillar (X_i) o'rtasida to'g'ri, kuchli va o'rtachadan yuqori bog'lanishlar mavjudligini ko'rish mumkin. Demak,

⁶⁵ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffisientlari Styudentning *t*-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi bo'yicha qo'yiladigan talablariga to'liq javob berar ekan. Bu shundan dalolat beradiki, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligiga (Y) ta'sir etuvchi barcha omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kirishi lozim.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - bu VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffisientlarini hisoblashdir. Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffisientlari quyidagi 3.3-jadvalda keltirilgan.

3.3-jadval

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik samarasini o'lchash⁶⁶

Variance Inflation Factors

Date: 02/05/25 Time: 11:49

Sample: 2015 2024

Included observations: 10

Variable	CoefficientVariance	CenteredVIF
X_1	0.006755	8.695590
X_2	1.146285	5.297579
X_3	57.51603	1.242633
X_4	0.530939	7.354808
C	13332196	NA

Agar ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lsa, u holda $\text{CenteredVIF} > 10$ bo'ladi. 3.3-jadvaldan ko'rish mumkinki, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) bo'yicha barcha ta'sir etuvchi omillarning VIF koeffisientlari 10 dan kichik. Demak, bu ham omillar o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili kabi ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

⁶⁶ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

Bundan tashqari ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilayotgan natijaviy omilni geteroskedastlikka, ya’ni ko‘p omilli ekonometrik modelning tasodifiy xatosining bir xil bo‘lmagan (oshib borishi yoki kamayib borishi tartibdagi) dispersiyasida ifodalangan kuzatishlarni bildiradi.

Bunday holatni aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi o‘tkazildi. Diki-Fuller testi natijalari 3.4-jadvalda keltirilgan.

3.4-jadval

Geteroskedastlikni aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi⁶⁷

Null Hypothesis: LNY has a unit root

Exogenous: Constant

Lag Length: 0 (Automatic - based on SIC, maxlag=2)

			t-Statistic	Prob.*
Augmented Dickey-Fuller test statistic			6.209439	0.0176
Test critical values:	1% level		-4.420595	
	5% level		-3.259808	
	10% level		-2.771129	
*MacKinnon (1996) one-sided p-values.				

Geteroskedastlikni aniqlash bo‘yicha kengaytirilgan Diki-Fuller testida ham ehtimollik (prob.=0,0176) 5 foizdan kichik ekan va bu natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Demak, omillar o‘rtasida multikollinearlik hamda natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini hisobga olgan holda respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligiga (Y) va unga ta’sir etuvchi omillar (X_i) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzamiz. Mazkur ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n + \varepsilon, \quad (1)$$

bu erda y – natijaviy omil, x_i – ta’sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato.

⁶⁷A.Ishnazarov, Sh. Nurullayeva, M. Muminova, N. Ro‘zimetova. Ekonometrika asoslari O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 258 bet.

⁶⁷ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

Ko‘p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma’lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ parametrlar qiymatlarini aniqlashda “eng kichik kvadratlar usuli” dan foydalandik. Natijalar quyidagi 3.5-jadvalda keltirilgan.

3.5-jadval

Hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model parametrlari⁶⁸

Dependent Variable: LNY

Method: Least Squares

Date: 02/05/25 Time: 12:15

Sample: 2015-2024

Included observations:10

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X_1	0.708149	0,08219	8,616000	0,0000***
X_2	-3.783584	1,070647	-3,533923	0,0021***
X_3	12.95559	6,013932	2,154263	0,0682**
X_4	-0.096656	0,042656	-2,265940	0,0514**
C	-2612.273	3651,328	-0,715431	0,5064
R-squared	0.999594	Mean dependent var		97402.92
Adjusted R-squared	0.999270	S.D. dependent var		62573.41
S.E. of regression	1690.575	Akaike info criterion		18.01038
Sum squared resid	14290224	Schwarz criterion		18.16167
Loglikelihood	-85.05189	Hannan-Quinn criter.		17.84441
F-statistic	3081.180	Durbin-Watson stat		2.070745
Prob(F-statistic)	0.000000			

Izoh: *** - 0.05 foiz aniqlikda, ** - 0.1 foiz aniqlikda

Hisoblangan 3.5-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligiga (Y) bo‘yicha hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik modelni analitik ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = -2612,27 + 0,7081X_1 + 3,7836X_2 + 12,956X_3 - 0,0966\ln X_4 \quad (2)$$

⁶⁸A.Ishnazarov, Sh. Nurullayeva, M. Muminova, N. Ro‘zimetova. Ekonometrika asoslari O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 258 bet.

⁶⁸ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti daromadlariga hisoblangan soliq summalari (X_1) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) o'rtacha 0,7081 mlrd. so'mga ortar ekan. Respublikada soliq qarzdorligi (X_2) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y) o'rtacha 3,7836 mlrd. so'mga kamayar ekan. Respublikada ortiqcha soliq to'lovlari (X_3) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortishi, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligini (Y) o'rtacha 12,956 mlrd. so'mga ortishiga olib kelar ekan. Soliq xavfi summasining (X_4) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortishi, respublikada soliqlarning yig'iluvchanligini (Y) o'rtacha 0,0966 mlrd. so'mga kamayishiga olib kelar ekan.

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligini bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirishda determinatsiya koeffisientidan foydalanamiz. Determinatsiya koeffisienti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffisienti (R^2 - R-squared (3.5-jadval)) 0,9996 ga teng. Respublikada soliqlarning yig'iluvchanliginining (Y) 99,96 foizi hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 0,04 foizi (100,0-99,96) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini tekshirish uchun Fisherning F -mezoni jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 4$ va $k_2 = 10 - 4 - 1 = 5$ dan kelib chiqib, F -mezonning jadval qiymati $F_{\text{jadval}} = 5,19$ ga teng. F -mezonning hisoblangan qiymati $F_{\text{hisob}} = 3081,18$ va jadval qiymati $F_{\text{jadval}} = 5,19$ ga teng ekanligidan kelib chiqib va $F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$ sharti bajarilganligi uchun (2) ko'p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan respublikada soliqlarning yig'iluvchanligini (Y) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrika modeldagi (2) parametrlarning ishonchliligini Student t -mezonni orqali tekshiramiz. t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($d.f. = n - m - 1$) shartlar asosida topamiz. Bu erda n - kuzatuvlar soni, m - omillar soni. Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f. = 10 - 4 - 1 = 5$ bo'lganda, t -mezonning jadval qiymati $t_{\text{jadval}} = 2,570$ ga teng.

Ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo'yicha t -mezonning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0,05$ va $\alpha = 0,1$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin (3.5-jadval). Bu esa barcha omillarni ishonchli ekanligini bildiradi va mazkur omillarga ko'p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi.

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) bo'yicha natijaviy omil ($\ln Y$) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjudligini tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DW_L va DW_U bilan taqqoslanadi. Agar $DW_{\text{hisob}} < DW_L$ dan kichik bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. $DW_{\text{hisob}} > DW_U$ dan katta bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati $DW_L = 0,69$ ga teng va yuqori chegarasi qiymati $DW_U = 1,97$ ga teng. $DW_{\text{hisob}} = 2,0707$ ga teng. Demak, $DW_{\text{hisob}} > DW_U$ bo'lgani uchun natijaviy omil (Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (Y)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Budan tashqari natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirishda avtokorrelyatsiya funksiyasi (AS) va xususiy avtokorrelyatsiya funksiyalaridan ham foydalanib tekshirib ko'ramiz. Bu holda har bir kuzatuv bo'yicha natijaviy omil qiymatlari ehtimolligi ($prob.$) nolga teng bo'ladi va qoldiqlarning qiymati kuzatuvlar soni ortib borishi bilan kamayish tendensiyasiga ega bo'ladi (3.3-rasm).


Date: 02/10/25 Time: 14:27
Sample: 2015 2024
Included observations: 10

Autocorrelation	Partial Correlation	AC	PAC	Q-Stat	Prob
		1 0.711	0.711	6.7337	0.009
		2 0.438	-0.136	9.6072	0.008
		3 0.145	-0.231	9.9660	0.019
		4 -0.114	-0.182	10.224	0.037
		5 -0.268	-0.055	11.945	0.036
		6 -0.419	-0.237	17.201	0.009
		7 -0.434	-0.016	24.725	0.001
		8 -0.346	0.047	31.895	0.000
		9 -0.214	-0.002	37.376	0.000

3.3-rasm. Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish⁶⁹

Hisob-kitoblar natijasi bo'lgan 3.3-rasmdan ham ko'rish mumkinki, barcha kuzatuvlarda natijaviy omil qiymatlari ehtimolligi (*prob.*) nolga teng va kuzatuvlar ortib borishi bilan qoldiqlar qiymati kamayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan dalolat beradi.

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi (*Y*) bo'yicha hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 3.4-rasmda keltirilgan.




3.4-rasm. Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligining haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) grafigi

⁶⁹A.Ishnazarov, Sh. Nurullayeva, M. Muminova, N. Ro'zimetova. Ekonometrika asoslari O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil.

⁶⁹ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

3.4-rasmdan ko‘rish mumkin, hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik model bo‘yicha respublikada soliqlar yig‘iluvchanligining hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o‘rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

Respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligi bo‘yicha hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan kelgusi davrlarga natijaviy ko‘rsatkichni prognozlashda MARE (Mean absolute percent error – foizlardagi o‘rtacha absolyut xatolik) koeffisienti hisoblanadi. Agar hisoblangan MARE koeffisienti qiymati 15,0 foizdan kichik bo‘lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo‘ladi, aks holda foydalanib bo‘lmaydi. Tadqiq qilinayotgan (Respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligi (Y) bo‘yicha MARE koeffisientining qiymati 0,4498 foizni tashkil etmoqda (3.5-rasm).



3.5-rasm. Hisoblangan modeldan prognozda foydalanish ko‘rsatkichlari⁷⁰

Bu esa 15,0 foizdan kichik (MAPE=1,1913), ya‘ni u 1,19 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligini prognozlashda foydalanish mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

⁷⁰ Muallif tomonidan umumlashtirish asosida tuzilgan.

Ushbu holatlardan foydalanib (2) ko‘p omilli ekonometrik model yordamida respublikada soliqlarning yig‘iluvchanligini kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.

Buning uchun avvalo har bir ta’sir etuvchi omil bo‘yicha trend model tuzamiz. Trend model – bu ta’sir etuvchi omilning vaqtga bog‘liq funksiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko‘rinishga ega:

$$X_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (3)$$

Davlat byudjeti daromadlariga hisoblangan soliq summalari (X_1) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$X_1 = -10135,4 + 20807,83 \cdot t \quad (4)$$

$$R^2 = 0,9709, F_{\text{хисоб}} = 267,071, t_{\text{хисоб}} = 16,3423$$

Soliq qarzдорligi (X_2) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$X_2 = -1781,13 + 1231,821 \cdot t \quad (5)$$

$$R^2 = 0,9477, F_{\text{хисоб}} = 145,121, t_{\text{хисоб}} = 12,0466$$

Ortiqcha soliq to‘lovlari (X_3) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$X_3 = 174,32 + 80,9236 \cdot t \quad (6)$$

$$R^2 = 0,8749, F_{\text{хисоб}} = 55,9729, t_{\text{хисоб}} = 7,48151$$

Soliq xavfi summasi (X_4) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$X_4 = 4294,967 + 666,8661 \cdot t \quad (7)$$

$$R^2 = 0,9267, F_{\text{хисоб}} = 101,129, t_{\text{хисоб}} = 10,0563$$

Ta’sir etuvchi omillar va vaqt omili o‘rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko‘rsatadiki (4) – (7) trend modellardagi barcha hisoblangan koeffisientlarning statistik ahamiyatliligi, parametrlarining ishonchliligi aniqlandi. Demak, (4) – (7) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini (2) ko‘p omilli ekonometrik modelga qo‘yib, avvalo ta’sir etuvchi omillarning (X_j) prognoz qiymatlarini, keyin esa natijaviy omilni (Y) prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz. Natijada respublikada soliqlar yig‘iluvchanligining (2) ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o‘zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo‘lamiz (3.6-jadval va 3.6-rasmlar).

3.6-jadval

Respublikada soliqlarning yig'iluvchanligi va unga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari qiymatlari*⁷¹


Yillar	Soliqlarning yig'iluvchanligi (mlrd. so'm), Y	Davlat byudjetiga hisoblangan soliq summolari (mlrd. so'm), (X1)	Soliq qarzдорligi(mlrd. so'm), (X2)	Ortiqcha soliq to'lovlari (mlrd. so'm), (X3)	Soliq xavfi summasi (mlrd. so'm), (X4)
2015	23400,5	28358,9	1014,6	249,7	4237,9
2016	27530,2	32401,6	1120,4	258,1	5212,7
2017	31428,5	36589,4	1367,7	317,3	7594,6
2018	54194,0	59233,4	2127,5	526,6	7258,0
2019	92350,0	105259,7	3468,5	700,8	7689,3
2020	103562,0	109541,3	5027,2	841,0	8369,5
2021	127970,0	133369,4	6697,0	769,2	8636,6
2022	148501,0	157502,2	7832,7	752,4	9546,9
2023	165918,0	171654,7	9458,6	823,6	9825,4
2024	199175,0	209166,3	11824,7	955,3	11256,4
2025*	209491,1	218750,4	11768,9	1064,5	11630,5
2026*	229870,8	239558,2	13000,7	1145,4	12297,4
2027*	250250,5	260366,0	14232,5	1226,3	12964,2
2028*	270630,2	281173,8	15464,4	1307,3	13631,1
2029*	291009,9	301981,6	16696,2	1388,2	14298,0
2030*	311389,6	322789,4	17928,0	1469,1	14964,8

* prognoz davri

Ushbu jadval asosida xulosa qilish mumkinki, davlat soliq qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda soliqlarning yig'iluvchanligi 23400,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda esa, 199175,0 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan, bu esa, 2024-yilda 2015-yilga nisbatan 8,5 barobarga oshganligini ko'rsatadi. Albatta, davlat byudjeti daromadlariga hisoblangan soliq summalariga nisbatan soliqlarning yig'iluvchanligi kamroq ko'rsatkichni tashkil qilgan, bu ko'rsatkichning o'zagrib

⁷¹Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

turishi esa, soliq qarzдорlik summasi va ortiqcha to'lovlar summasiga bog'liq bo'ladi, buning ta'sirini esa, yuqoridagi jadvaldan turlicha yillarda turlicha bo'lganligini ko'rish mumkin, ta'kidlash lozimki, bu ko'rsatkichlarga soliq xavfi summasi ham ta'sir qiladi, ya'ni bu summa qanchalik katta bo'lsa, soliq qarzдорligi oshadi va soliqlarning yig'iluvchanligi kamayadi.



3.6-rasm. O'zbekistonda soliqlarning yig'iluvchanligining 2015-2024 yillardagi dinamikasi va 2025-2030 yillarga prognoz qiymatlari, mlrd. so'm⁷²

Yuqoridagi 3.6-jadval va 3.6-rasmda keltirilgan soliqlar yig'iluvchanligining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari haqiqiy soliq tushumlarining miqdori va bizning prognoz ko'rsatkichlarimiz o'rtasidagi farqlar 10 foizdan kam, ya'ni, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar doirasida miqdor 10 foizdan ancha kam (o'rtacha 5 foiz atrofida bo'lmoqda). Shu boisdan bizning soliq qarzдорligi, ortiqcha soliq to'lovlari va soliq xavfi summalarining bosh ko'rsatkich bo'lgan-soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'siri natijasida hisoblab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari haqiqatga va iqtisodiy mantiqqa ega deb hisoblash mumkin. Bu esa ekonometrik tahlillarning iqtisodiy talablariga mos keladi.

Prognoz hisob-kitoblariga ko'ra, 2025-yilda soliqlarning yig'iluvchanligi 209491,1 mlrd so'mni tashkil qilinishi aniqlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich soliq organlari tomonidan undiriladigan soliq tushumlarining o'rtacha o'sish

⁷² Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

dinamikasiga mos keladi (farq katta emas), bu esa, keyingi yillar bo'yicha prognoz qilingan soliqlarning yig'iluvchanlik ko'rsatkichlarining ob'ektivligidan dalolat beradi. Bizning 2030-yilga soliqlarning yig'iluvchanligi bo'yicha aniqlangan prognoz ko'rsatkichimiz 311389,6 mlrd so'm bu soliqlar yig'iluvchanligining o'rtacha yillik o'sishi dinamikasi bilan korrelatsion bog'liqlikni ko'rsatadiki, aniqlangan prognoz ko'rsatkichlarimiz ilmiy asosga ega deb hisoblash mumkin.


3.2-§. Soliq ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali soliq tizimida samaradorlikka erishish yo'llari

Nazariy jihatdan olganda soliq ko'rsatkichlari yuqoridagi biz tahlil qilgan ko'rsatkichlar-soliqlarning yig'iluvchanligi, soliq qarzдорligi va soliq xavfidan boshqa yana muhim ko'rsatkichlardan ham iborat bo'ladi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tadqiqot ishi hajmiga bo'lgan cheklov hamda o'zaro bog'liqligi jihatidan yuqoridagi uchta soliq ko'rsatkichlarini tadqiqot ob'ekti sifatida belgilab olgan edik. Biroq, soliq ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali soliq tizimida samaradorlikka erishish uchun esa, bu uchta soliq ko'rsatkichlaridan tashqari yana ayrim soliq ko'rsatkichlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini bog'liqlikda ko'rish talab etiladi. Jumladan bunda soliqlar va yalpi ichki mahsulotning o'zaro bog'liqligi katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, soliqlar odatda uch xil tartibda hisoblanadi. Birinchisi bu ishlab chiqarish yoki qo'shilgan qiymat usuli bo'lib, bunga ko'ra YaIM bu muayan vaqt (odatda bir yil davomida) jami ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat, ish)larning bozor qiymatidagi yakuniy qiymati va ushbu jarayonda oraliq iste'mol qilingan mahsulot (xizmat, ish)larning qiymatining o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadiki, bu aslida yalpi qo'shilgan qiymatni ham ifodalaydi. Ya'ni bunda YaIM va yalpi qo'shilgan qiymat miqdor jihatdan teng bo'ladi.

Soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik soliq ma'murchiligida muhim ahamiyat kasb etib, ularning bog'liqligini ta'minashda bir qator instrumentlar katta rol o'ynaydi. Soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklar soliqlarning amal qilishi holatini belgilab beradi. Jumladan, agar soliq yuki bilan

narxi to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi natijasida mahsulotlarning narxi oshishiga va soliq to'lovchilarning moliyaviy qobiliyati kamayishiga ta'sir qiladi. Shuningdek, soliq elastikligi (egiluvchanligi) ko'rsatkichi agar, soliq to'lovchi zimmasidagi soliq yukini oshirsa provardida esa, soliqlarning yig'iluvchanligi kamayadi, soliq qarzdorlik oshadi. Bundan tashqari, soliqlarni taqsimlanishi normal qoida doirasiga amal qilsa, soliq to'lovchilarning yashovchanligi oshadi, soliq tushumlari ko'payadi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi instrumentlar⁷³

Bu erda soliq yukining normal taqsimlanishi deganda tarmoqlar va korxonalar kesimida soliqlarning adolatli prinsipiga mos ravishda soliq yukining taqsimlanishi va bu jarayon shakllanishi nazarda tutiladi. Albatta bu erda soliq stavkalari ham katta rol o'ynaydi. Agar uning darajasi oshirilsa, yalpi qo'shilgan qiymatni kamaytiradi, qachonki, soliq to'lovchi bozor qoidasiga amal qilmasa bu jarayon tabiiy

⁷³ Muallif tomonidan tuzilgan.

hisoblanadi. Soliq to'lovchi samarali moliyaviy boshqaruvni ta'minlasa, soliq bazasi kengayadi va u soliq stavkasining kamayishida sodir bo'ladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, soliq ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik boshqa turli munosabatlarni keltirib chiqarishi orqali soliq ma'murchiligiga ta'sir qilib boradi.

Soliqlarning yig'iluvchanligi oshishi hozirgi kunda soliq tizimining holati jihatidan qaraganda uni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan omillar hisobiga soliqlarning yig'iluvchanligi oshish (kamayish) omillari bo'lsa, ular jumlasiga: iqtisodiy o'sish hisobiga, soliq qonunchiligi o'zgarishi va ish haqini oshishi, soliq stavkalarini (+indeksasiya) o'zgarishi, imtiyozlar bekor bo'lishi, yangi imtiyozlar berilishi, yangi ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning paydo bo'lishi va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan tushumlar (bir martalik to'lovlar)ni keltirish mumkin. Har yilgi byudjet-soliq siyosatidagi o'zgarishlar bu omillar o'zgarishi hisobiga ma'lum darajada soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'sir qiladi. Jumladan, 2024-yilgi byudjet-soliq tizimidagi umumiy o'zgarishlar hisobiga davlat byudjetiga soliq tushumlari avvalgi yillarga nisbatan 12,6 trln so'mga oshgan.

Ikkinchi guruh soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'sir qiluvchi omillarni soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillarni kiritish mumkin. Bular jumlasiga esa, EHFni to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ishlash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish, qo'shimcha soliq ob'ektlari va er maydonlarni aniqlash, korxonalarning yil boshidagi soliq qarzlarini undirish, soliq tekshiruvi natijasida qo'shimcha soliq tushumlarini jalb qilish, yashirilgan ish o'rinlari va IHFni legallashtirish, Onlayn NKM, Cashback, joriy etish va to'lov intizomiga rioya etilishi hisobiga soliq tushumlarining yig'iluvchanligini oshirish hisoblanadi.

Bu omillarning ayrimlari orqali soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlari yuzasidan ayrim ilmiy yondoshuvlarimizni izohlashga harakat qilamiz. Ish o'rinlarini legallashtirish orqali soliq tushumlarini oshirish bugungi kunda katta ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Amaldagi tartibga ko'ra yuridik shaxslarda ishlovchi jismoniy shaxslarning soliqlari ushlab qolinishi va byudjetga to'lanishi soliq agenti hisoblangan yuridik shaxs

zimmasiga yuklatilgan va to'langan soliq hisobi yuridik shaxs shaxsiy kartochkasida jamlangan holda yuritiladi. Soliq stavkasi barcha uchun bir xil ya'ni 12 foiz etib belgilangan.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslar aylanma miqdori 100 mln.so'mgacha bo'lsa har bir oy uchun qat'iy miqdorda belgilangan daromad solig'ini to'laydi. Soliq miqdori faoliyat turidan kelib chiqqan holda bir oy uchun 60 ming so'mdan 907,5 ming so'mgacha etib belgilangan. Aylanma miqdori 100 mln.so'mdan va 1 mlrd.so'mdan oshganda mos ravishda aylanmadan olinadigan soliq va umumbelgilangan soliqlarni (QQS, foyda) to'lashga o'tadi. O'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning 100 mln.so'mgacha bo'lgan daromadlariga soliq solinmaydi va oshgan qismi bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq to'lanadi. Dexqon xo'jaligi tashkil etgan jismoniy shaxslarning dehqon xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlariga soliq solinmaydi.

Deklaratsiya asosida asosan mol-mulkini ijaraga berishdan, turar va noturar ob'ektlarini sotishdan hamda hadyadan daromad olgan jismoniy shaxslar soliqqa tortilmoqda. 2025-yil boshi holatiga jami 475 ming nafar jismoniy shaxslar deklaratsiya taqdim etgan bo'lsa, ularning 250,1 ming nafari (52,6%) 484,6 mlrd. so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalanish maqsadida hamda 195,6 ming nafari (41,2%) mol-mulki ijarasi va sotuvidan olgan daromadlari bo'yicha 437 mlrd.so'm (6 oylik jami daromad solig'i tushumining 2,6%) soliq hisoblagan holda deklaratsiya taqdim etgan. Umumiy olganda mamlakatimizda rasmiy bandlar uchun soliq yuki yuqori emas. Eng yuqorisi ijtimoiy soliq bilan 24 foizni tashkil etadi. Bizningcha, norasmiy bandlikka sabab bo'luvchi omillar quyidagilar bo'lishi mumkin: yuqori soliq yuklamasi, soliq stavkalari yuqori bo'lishi, byurokratik to'siqlar, mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish jarayoni murakkab va vaqt talab qiluvchi bo'lsa, qonunchilikning etarli darajada nazorat qilinmasligi, norasmiy ishlash holatlarini aniqlash va jazolash mexanizmlari etarli darajada ishlamasligi, ish beruvchilarning iqtisodiy manfaatlari, ish beruvchilar mehnat xarajatlarini kamaytirish maqsadida norasmiy ishchilarni yollashlari, ishchilarning

xabardorligi etishmasligi, ishchilar o'z huquqlari va rasmiy ishlashning afzalliklari haqida etarli ma'lumotga ega bo'lmashliklari, ish o'rinlarining etishmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatsizlik sababli, ishchilar norasmiy ishlashga majbur bo'lishlari mumkin. Yuqoridagilardan tashqari, norasmiy aylanmaning mavjudligi norasmiy bandlikka eng katta sabab sifatida qaraladi. Chunki, konvertda ish haqi to'lash uchun norasmiy aylanma zarur bo'ladi. Hududiy soliq organlaridagi hududlarga va korxonalarga biriktirilgan xodimlarimizning etarli ishlarni amalga oshirmaganligini ham eng katta omil sifatida baholashimiz mumkin. Shu boisdan soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish uchun "Xodimlarni legallashtirish orqali soliq yig'iluvchanligini oshirish uslubiyoti"ning ilmiy asoslarini keltirib o'tamiz (3.8-rasm).



3.8-rasm. Xodimlarni legallashtirish orqali soliq yig'iluvchanligini oshirish uslubiyoti⁷⁴

⁷⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Bu uslubiyotimizning muhim bo'g'ini bu legallashtirish lozim bo'lgan (norasmiy ishlayotgan) xodimlar mavjudligini aniqlash hisoblanadi. Bunda soliq to'lovchining hisobot ma'lumotlari va tashqi manba ma'lumotlari asosidagi tahlillar orqali aniqlanadi. Ya'ni: birinchidan, hisobotdagi jami aylanmasi va ishchilar soni taqqoslanadi. Tahlillarga ko'ra, 2024-yilda qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aylanmasi 100 mln.so'mdan 1 mlrd.so'mgacha bo'lgan 4 155 ta korxonada jami ishchi soni 32,1 ming nafarni tashkil etib, o'rtacha bitta korxonaga 8 nafar ishchi to'g'ri kelgan. Biroq, 2 965 ta (71,4%) korxonada ishchi soni o'rtachadan kamni tashkil etgan. Xuddi shunday, 1 – 5 mlrd.so'm aylanmaga ega bo'lgan 2 780 ta korxonada o'rtacha ishchi soni 19 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 1 852 tasida (66,6%) o'rtachadan kam. Masalan, Buxoro viloyatidagi "Buxrem Stal Stroy" MChJ 31 nafar xodimi bilan 2024-yil 5 oyida 5,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlarini bajargan bo'lsa, Farg'ona viloyatidagi "399MXMKK" MChJ 2 nafar xodim bilan 5,0 mlrd.so'mlik ishlarini bajargan.

Ikkinchidan, egaligidagi qishloq xo'jaligi er maydoni va hisobotdagi ishchilar soni taqqoslanadi. Fermer xo'jaliklari tomonidan jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha iyun oyi yakuni bilan taqdim etgan hisobotlari er maydonlari bilan solishtirildi. Afsuski, 139 ming gektar er maydoni mavjud 3 984 ta fermer xo'jaligi iyun oyi uchun ishchi ko'rsatmasdan (0) hisobot taqdim etgan. 651 ming gektar er maydoni mavjud 21 923 ta fermer 1 nafar, 321 ming gektar er maydoni mavjud 16 574 ta fermer 2 nafar xodim ko'rsatgan. Misol, bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishida 83,9 gektar (er normativ qiymati 1,5 mlrd.so'm) er maydoni mavjud bo'lgan Bulung'ur tumanidagi "Abdukomil Fruits Trade" fermer xo'jaligi (AOS to'lovchi) 2,5 yildan buyon birorta ishchi ko'rsatmagan.

Uchinchidan, balansida mavjud transport vositalari soni va hisobotdagi ishchilar soni taqqoslanadi. Respublika bo'yicha 61,1 mingta yuridik shaxslarning egaligida 283,3 mingta transport vositalari mavjud bo'lib, iyun oyi bo'yicha taqdim etilgan hisobotlarga asosan 12,3 mingta yuridik shaxsdagi xodimlar soni transport vositalariga nisbatan 63,2 ming nafarga kamni tashkil etadi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi "Fayz Binokor Oltiariq" MChJ balansida 79 ta (yuk va engil)

avtotransport vositasi mavjud bo'lib, ular uchun 393,2 mln.so'mlik (108,6 ming kub) siqilgan gaz yoqilg'isi xarid qilingan. Iyun oyi hisobotida esa 10 nafar xodimga ish haqi hisoblangan holda soliq hisobotini taqdim etgan. 69 nafar xodim norasmiy band degan xulosaga kelish mumkin.

To'rtinchidan, dehqon xo'jaligini yuritish maqsadida er ajratilgan fuqarolarning dehqon xo'jaligi sifatida ro'yxatdan o'tganligini solishtiriladi. 2025-yil boshi holatiga 884,5 ming nafar fuqarolarga dehqon xo'jaligini tashkil etish bo'yicha 311,3 ming gektar er maydonlari ijara asosida kadastr idoralari tomonidan rasmiylashtirib berilgan va ularning jami 404,6 ming nafari (262,5 ming nafari dehqon xo'jaligi va 142,2 ming nafari o'zini-o'zi band sifatida) rasmiy bandligi ta'minlangan. Qolgan 479,7 ming nafari (er maydoni 187,9 ming gektar) "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunga asosan dehqon xo'jaligi sifatida hisobga qo'yilmaganligi natijasida rasmiy bandligi ta'minlanmasdan qolmoqda.

Beshinchidan, faoliyatini vaqtincha to'xtatib qo'ygan yakka tartibdagi tadbirkorlarni o'rganish va tahlil qilish lozim. 2025-yil boshi holatiga jami ro'yxatga olingan YaTTlar soni 506 ming nafarni tashkil etib, 56,5 foizi (285,8 ming nafari) faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa, 220,2 ming nafari (43,5 foizi) faoliyatini vaqtincha to'xtatib qo'ygan. Bu ko'rsatkich, Jizzaxda 51,3 foiz, Toshkent viloyatida 48,9 foiz, Buxoroda 48,1 foizni va Toshkent shahrida 47,2 foizni tashkil etib yuqori ko'rsatkichda qolmoqda. Soliq qo'mitasining 2021-yil 5-fevraldagi 60-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Uslubiy qo'llanmaga asosan faoliyatini vaqtincha to'xtatgan har bir YaTT bo'yicha biriktirilgan soliq xodimi tomonidan kuzatuv dalolatnomasi tuzilishi va qonunbuzarlik aniqlangan taqdirda tegishli nazorat ishlari amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Amalda esa bu tartibga rioya etilmasdan kelinmoqda. Xuddi shunday har bir sohaning o'z xususiyatidan kelib chiqib, boshqa ko'rsatkichlarni solishtirish natijasida aniqlanishi mumkin.

Oltinchidan, chakana savdoda savdo nuqtalari, to'lov texnikalari (ONKM, terminal va boshqa) soni va ishchilar soninini taqqoslash zarur bo'ladi.

Ettinchidan, mavsumiy xarakterga ega bo'lgan korxonalarda (g'isht zavodi, salqin ichimlik va boshqa) to'liq hajmda ishlayotganligidan kelib chiqib, xodimlari sonini tahlil qilish lozim.

Uslubiyotimizning keyingi bo'g'ini bu bevosita joyiga chiqqan holda norasmiy ishchilar mavjudligini aniqlash hisoblanadi. Bunda shubha ostiga olingan soliq to'lovchilar bo'yicha biriktirilgan mas'ul (mahallabay yoki korxonabay xodimi) tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganish ishlarini amalga oshirish, haqiqiy soliq bazasini aniqlash yoki xufiyona iqtisodiyotning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi qonunchilik me'yorlari bo'yicha norasmiy ishchilarni legallashtirishda esa, "Soliqchi-ko'makchi" doirasida profilaktik suhbat o'tkazish zarur. Albatta suhbat bayoni rasmiylashtirilgan holda. Suhbat natijasida kamchiliklarini bartaraf etgan holda taqdim etilgan qayta hisobot qabul qilish. (qo'shimcha soliq hisoblash bo'yicha avtomatik qabul qilinadi)

Kamchilik aniqlangan va bartaraf etmagan sub'ektlarga nisbatan xodimlarning haqiqiy soni yashirilayotganligini aniq misollar va raqamlar bilan hamda qonunchilikka muvofiq ko'rilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'rsatgan holda ogohlantirish xatlarini yuborish, xodimlar soni va ish haqini yashirayotgan korxonalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son qaroriga asosan mehnat va mehnat muhofazasi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan qisqa muddatli tekshirish o'tkazish uchun Davlat mehnat inspeksiyalari yozma murojaatlarni yuborish, yuborilgan ogohlantirish xatlari bo'yicha javob bermagan, hamda profilaktik tadbirlar natijasida norasmiy xodimlarini legallashtirmagan korxonalar ro'yxatini shakllantirish, mazkur korxonalarda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazish uchun tegishli nomzod sifatida shakllantirish hamda soliq organi rahbarining buyrug'ini rasmiylashtirish, buyruq asosida xodimlar sonining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoring amalga oshirish, hisobotda ko'rsatilmagan xodimlar bo'yicha alohida ro'yxat shakllantirish va korxona tomonidan rasmiylashtirilishini nazorat qilish, mazkur korxonalarda kameral soliq tekshiruvi o'tkazish uchun nomzod sifatida shakllantirish hamda o'tkazish, hamda norasmiy xodimlar va yashirilgan ish

haqi fondini soliq hisobotida aks ettirilishi yuzasidan talabnoma yuborish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Soliq ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlashda muhim omillardan va masalalardan biri bu soliq xavfini to‘g‘ri baholash va undan soliq qarzdorligini kamaytirish hamda soliq nazoratini samarali tashkil etish orqali soliqlarning yig‘iluvchanligiga ta‘sir qilish choralarini amalga oshirish hisoblanadi. Bunda esa amaldagi mavjud uslubiyotni yanada takomillashtirish talab etadi, sababi hozirgi mavjud uslubiyot qo‘llanilganiga qaramasdan soliq qarzdorligi keskin kamayishga erishish hali ta‘minlanmayapti. Shu boisdan ham navbatdagi ilmiy yangiligim asosi sifatida “Soliq xavfini to‘g‘ri baholash, soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq nazoratini samarali tashkil etish triadasi”ni ishlab chiqdik va uni quyidagi 3.9-rasm orqali keltiramiz:




3.9-rasm. Soliq xavfini to‘g‘ri baholash, soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq nazoratini samarali tashkil etish triadasi⁷⁵

⁷⁵ Muallif ishlanmasi.

Biz taklif etgan ushbu uslubiyotning mazmuni shundan iboratki, soliq xavfini (ayniqsa xufyona iqtisodiyot mavjud bo'lgan qurilish tarmog'ida) aniqlash, baholash va uning darajasini kamaytirishni ta'minlash bilan ilmiy-uslubiy chora-tadbirlar majmuasini qamrab oladi. Ushbu uslubiyot asosida soliq xavfini baholash orqali soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq nazoratini samarali tashkil etishga erishish mumkin, bu erda asosiy uch bo'g'indan iborat bo'lganligi uchun ham ilmiy nuqtai nazaridan triada tizimida amal qilish samara beradigan degan xulosaga kelindi.

Soliq xavfi soliq ko'rsatkichlari orasida o'ziga xos muhim rol o'ynaydiki, uni to'g'ri baholash orqali soliq to'lovchilarning soliqdan qochish holatlarini oldini olishga erishish oxiri oqibatda soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishga olib keladi, chunki, bu jarayon soliq qarzdorligini kamaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kundagi muammolardan biri bu soliq xavfini baholashning dasturiy tizimlarini yanada takomillashmaganligidir. To'g'ri hozirgi kunda bu jarayonni raqamlashtirish va dasturiy ta'minotining ayrim jihatlari shakllantirilgan ammo, hozirgi soliq tizimi oldiga qo'yilgan vazifalardan biri raqamlashtirish orqali soliq ma'murchiligining ahamiyati va darajasini sifat jihatdan yaxshilash bo'lib, bunga erishishga amaliy jihatdan xizmat qiladigan "Soliq xavfini kompleks boshqarish tizimi (Compliance Risk Management-CRM) dasturining iqtisodiy komponentlari"ni ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Shu boisdan quyidagi uning asosiy mazmunini izohlab o'tishga harakat qilamiz.

Soliq xavflarini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan mezonlar ma'lumotlari, soliq xavflarini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan soliq organlarida mavjud barcha dasturiy mahsulotlar ma'lumotlari, dastlabki tahlillar asosida aniqlangan soliq xavflari ma'lumotlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar asosida olingan soliq xavflari ma'lumotlarini yagona tizimga jamlagan holda avtomatlashtirilgan tartibda qayta ishlash, soliq xavflarini baholash va soliq xavfi darajasini belgilash lozim bo'ladi va quyidagi biznes-blokka ega bo'lishi mumkin (3.10-rasm).



3.10-rasm. CRM tizimi dasturning mantiqiy ishlash blok sxemasi⁷⁶

Bunga asoslangan holda “Soliq xavfini kompleks boshqarish tizimi (Compliance Risk Management-CRM)⁷⁷ dasturining iqtisodiy komponentlari” o‘z ichiga quyidagilarni olishi lozim bo‘ladi:

- umumiy ko‘rsatkichlar;
- xavflar reestri;
- manbalar.

Umumiy ko‘rsatkichlar qismida O‘zbekiston Respublikasida barcha yuridik va YaTT sub’ektlar soni va aniqlangan soliq xavflari summasi, soliq xavflari darajasi, tayinlangan soliq nazorati tadbirlari soni va xavf summalari bo‘yicha ma’lumotlar bo‘ladi. Xavflar reestrida, davlat soliq qo‘mitasi birinchi o‘rinbosari tomonidan tasdiqlangan avtomatlashtirilgan mezonlar hamda ular asosida aniqlangan soliq xavfi summalari bo‘ladi. Manbalarda, “CRM tizimiga nomzodlarni yuborish” dasturiy mahsuli orqali kelib tushgan nomzodlar ro‘yhati va ularning soliq xavfi summalari bo‘ladi.

⁷⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁷⁷ Compliance Risk Management-riskni boshqarish tizimi

Xavflar reestrda 4 ta xavf guruhlaridan iborat bo‘ladi:
soliq bazasini yashirish;
solliqlarni to‘lamaslik;
solliq hisobotlari;
ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat yuritish.

O‘z navbatida manbalar ham 4 ta xavf guruhlaridan iborat bo‘ladi :
dastur mezonlari;
murojaatlar;
OAV;
dastlabki tahlillar natijasi.

“CRM” tizimiga nomzodlar ikki turdagi yo‘nalish orqali qamrab olinadi.

Birinchi yo‘nalishda solliq organlarida ro‘yhatdan o‘tgan barcha solliq hisoboti taqdim qilish va solliq to‘lash majburiyatiga ega subektlar (Yuridik shaxslar, YaTT, o‘z-o‘zini band qilgan jismoniy shaxslar hamda alohida nazoratga olinishi ko‘zda tutilgan chet-el jismoniy va yuridik shaxslari) avtomatlashtirilgan tartibda qamrab olinadi.

Ikkinchi yo‘nalishda solliq organlari tomonidan amalga oshirilgan dastlabki tahlillarda solliq xavfi aniqlangan subektlar, jismoniy va yuridik shaxslar, yuqori turuvchi davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan solliq xavfi aniqlangan sub’ektlar hamda OAV orqali olingan ma’lumotlarda aniqlangan solliq xavfiga ega sub’ektlar mazkur tizim doirasida ishlab chiqiladigan “CRM tizimiga nomzodlarni yuborish” dasturiy mahsuli orqali qamrab olinadi.

CRM tizimiga nomzodlar “CRM tizimiga nomzodlarni yuborish” dasturiy mahsuli orqali taqdim qilinganda, DSB hamda DSQ tegishli tuzilmalari mas’ul hodimi tomonidan belgilangan shakl ma’lumatlari kiritilib, mas’ul rahbarga tasdiqlash uchun yuboriladi. Mas’ul rahbar tomonidan tasdiqlangan nomzod CRM tizimiga kelib tushadi va mazkur tizim mas’ul hodimi tomonidan ma’lumotlar qayta ishlanib, yakuni bo‘yicha “tasdiqlash” yohud sababi ko‘rsatilgan holda “ijrochiga qaytarish” tugmasi bosiladi. “tasdiqlash” tugmasi bosilganda nomzod CRM tizimiga qabul qilinadi hamda solliq xavfi baholanadi. “ijrochiga qaytarish” tugmasi

bosilganda nomzod “CRM tizimiga nomzodlarni yuborish” dasturiy maxsuliga qaytariladi.

CRM tizimida soliq xavflari darajasi soliq xavfi summasi aniqlaydigan hamda soliq xavfi holatini belgilaydigan summasiz mezonlar orqali 1000 ballik tizim orqali aniqlanadi. Soliq xavfi aniqlangan sub’ektlarda soliq xavfi darajasidan kelib chiqib, soliq nazorati tadbirlari tayinlanadi (Soliq auditi, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi hamda tekshirishsiz tadbirlar). Tayinlangan soliq nazorati tadbirlari yakuni bo’yicha ma’lumotlar (tekshirish holati, tekshirish yakuni bo’yicha tuzilgan dalolatnoma, qo’shimcha hisoblangan va undirilgan soliqlar) “Soliq tekshiruvlari-2021”, Apray, soliq to’lovchilarning shaxsiy hisob-varaqasi va boshqa dasturiy mahsullardan olinadi.

Xulosa qilib aytganda “Soliq xavfini kompleks boshqarish tizimi (Compliance Risk Management-CRM) dasturining iqtisodiy komponentlari” soliq tizimida CRM tizimining ishlashini, u orqali soliq xavflarini to’g’ri boshqarish imkoniyatini beradi, natijada esa, soliq xavfining soliq yig’iluvchanligi ko’rsatkichiga ijobiy ta’siri oshadi, ularning bog’liqlik darajasi esa yaxshilanadi.

Bugungi kunda soliqlarning yig’iluvchanligiga salbiy ta’sir qilib kelayotgan muammo bu ist’emolchilarni himoya qilish maqsadida ayrim tovar yoki xizmatlarga berilgan soliq imtiyozlari oqibatida soliq to’lovchiga va boshqalarga ham salbiy ta’siri nisabatan kattaroq bo’lib qolayotganligi soliq tizimining adolatlilik tamoyiliga zid kelib qolmoqda.

Jumladan, yo’lovchi tashish bilan shug’ullanuvchi korxonalar ko’rsatayotgan xizmatlari QQSdan ozod etilganligi bois, ular tomonidan sotib olingan tovarlar (transport vositalari, yoqilg’i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari va h.k) uchun to’langan QQS summasini hisobga olish imkoniyatini cheklab kelmoqda. Hisobga olinmagan QQS summasi tashish xizmatlari tannarxga kiritilishi xizmatlar narxlari oshishiga sabab bo’lmoqda. Masalan, 2023-2024-yillarda yo’lovchi tashish bilan shug’ullanuvchi 160 ta korxona tomonidan 177,2 mlrd so’mlik QQS imtiyozlaridan foydalanilgan. Imtiyoz bekor qilinishi natijasida mahalliy davlat hokimiyati organlari o’zlarining yo’lovchi tashish

tariflarini qayta ko'rib chiqishlari lozim bo'ladi. Aynan ushb taklifimiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-109-son qaror bilan tasdiqlangan 2024-yilda strategik yo'nalishlardagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasining 58-bandiga mos keladi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son Farmoniga asosan 2025-yil 1-yanvardan boshlab elektron onlayn-auksion savdolarida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan er uchastkalarini mulk huquqi asosida realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish bo'yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, soliq ko'rsatkichlari orasida soliq qarzdorligi mazmunan salbiy ko'rsatkich sifatida tahlil qilinadi va uning darajasi byudjetga yo'qotishlar sifatida baholanib, uni kamaytirish soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishga xizmat qilishi tabiiydir. Shu boisdan soliq qarzdorligi bilan ayrim muammolar va ularning ilmiy echimlari haqida ilmiy yondoshuvimizni keltiramiz.

2024-yilning tahlillariga qarasak, tadbirkorlik sub'ektlariga jami 19 192,2 mlrd.so'm (shundan bojxona bilan o'zaro hisobga olish orqali 4 228,7 mlrd. so'm) QQS qaytarib berilib, o'tgan yilning mos davri (13 428,5 mlrd.so'm)ga nisbatan 43 foizga oshgan. Soliq qarzi 7,7 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yil (5,4 trln.so'm)ga nisbatan 42,5 foizga, ortiqcha to'lov summasi esa, 17,3 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yil (13,1 trln.so'm)ga nisbatan 31 foizga, soliq tushumi 52,5 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davri (47,9 trln.so'm)ga nisbatan 10 foizga oshgan.

Realizatsiya qilingan tovar va xizmatlar uchun byudjetga to'lanmagan QQS summasi (sun'iy zachyot) ushbu tovar va xizmatlarni xaridori tomonidan hisobga olinishi natijasida soliq qarzi va ortiqcha to'lov summasi mos ravishda o'sib bormoqda. Soliq uzilishi koeffisienti va kameral tekshiruv doirasida tovar qoldiqlarini joyiga chiqib ko'rish (QQS qoplashdan tashqari) hamda soliq organida yo'q hujjatlarni talab qilish vakolati bekor qilingach:

kameral soliq tekshiruvi bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar o'tgan yil (3,2 trln.so'm)ga nisbatan 2,4 trln.so'mga yoki 74 foizga kamaygan.

QQS zanjiridagi uzilishlar (sun'iy zacet) ko'payishi hisobiga ichki bozordan kirim olish (zacet) 30,1 foizga (189,9 trln.so'mga) ko'paygan (629,7 trln.dan 819,4 trln.so'mga etgan);

44 foizida (66,5 mingta) to'lovga chiqqan QQS summasi tovar aylanmaning 1 foizdan ham kam bo'lgan;

QQS salbiy farq summasi 1 sentyabr holatiga 15 trln.so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 2,9 trln.so'mga oshgan.

Vaholanki, bugungi kunda QQS dan 7,7 trln.so'm soliq qarzi mavjud bo'lib ushbu to'lanmagan QQS summasi kontragentlar tomonidan hisobga olinishi natijasida ularning byudjetga to'lanadigan QQS summasini mos ravishda kamaytirgan yoki ortiqcha to'lovni vujudga keltirgan. Misol uchun "Reliable Sroy Invest" MChJ 2024-yil iyun oyida "Nadimstroygazdobicha" DMga 168,7 mlrd.so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilganligi bo'yicha EHF rasmiylashtirgan va 20,2 mlrd.so'm QQS hisobga olingan. "Reliable Sroy Invest" MChJda biror so'mlik qurilish materiallari xaridi mavjud emas. Hisoblangan 25,3 mlrd.so'm QQS byudjetga to'lanmagan. Shuningdek, ayrim korxonalar tomonidan juda ko'p miqdordagi tovarlarni realizasiya qilinmagan deb qoldiqda ko'rsatish, QQS bilan xarid qilingan va import qilingan qoldiqdagi tovarlar uchun QQS summasini qoplab berilgan korxonalar tomonidan ushbu tovarlarni realizatsiya qilingandan keyin hisoblangan QQS summasini byudjetga to'lanmay qolishi kuzatilmoqda.

Ma'lumot uchun 2023 va 2024-yillarda qoplab berilgan 464 mlrd.so'm QQS summasi byudjetga qayta hisoblangandan keyin to'lanmagan. – QQS summasini qaytarish o'tgan yilga nisbatan 43 foiz (5,7 trln.so'm)ga oshib ketishi hisobiga joriy yilda energiya ishlab chiqarish loyihalariga 1,7 trl.so'm qaytarib berildi. Ushbu loyihalar tomonidan asosiy vositalar importi amalga oshirilgan hamda qurilishi va o'rnatish ishlari to'liq yakunlanmagan (loyiha ishga tushmagan).

Ushbu muammoning echimi sifatida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchidan, kameral soliq tekshiruvi doirasida, soliq bazasini aniqlash uchun soliq organlarida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni soliq to'lovchidan talab qilib olish huquqini tiklash zarur, ikkinchidan, soliq qarzini

qoplash bo'yicha 2 oy muddat bilan ogohlantirish berish va ijrosi ta'minlanmagan taqdirda, shuningdek tovarlar etkazib beruvchilar ketma-ketligida kirimi mavjud bo'lmagan korxonalarga hisobvaraqlar fakturalarni rasmiylashtirishni cheklash kerak, uchinchi, QQS salbiy farq summasini qoplash yuzasidan arizani ko'rib chiqishda soliq to'lovchi va unga tovarlarni (xizmatlarni) etkazib berish bo'yicha operatsiyalar ketma-ketligida ishtirok etgan kontragentlar tomonidan QQS byudjetga hisoblanmaganda yoki to'lanmaganda (to'liq hisoblanmaganda yoki to'liq to'lanmaganda) rad etish lozim va to'rtinchidan esa, tovarlar qoldig'i hisobiga yuzaga kelgan QQS salbiy farq summasini qoplashni bekor qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda soliq tizimining muhim vazifalaridan biri soliq tizimining xalqaro savdo tashkiloti va boshqa moliyaviy institutlarning umumiy qoidalariga milliy manfaatlardan kelib chiqib, ayrim choralarni belgilab borish yoki milliy manfaatlarga mos bo'lsa uni qabul qilib borishdir. Shulardan biri sifatida Jahon savdo tashkilotining (JST) alkogol mahsulotlariga nisbatan aksiz solig'ini belgilash borasidagi takliflarining milliy iqtisodiyot manfaatlari jihatidan ko'rib chiqish va unga nisbatan soliq stavkalarini belgilash masalasi ham kun tartibidagi dolzarb masaladir. Shundan kelib chiqqan holda JSTga a'zo davlatlar bilan muzokaralarda yondashuvni aniq belgilash maqsadida mahalliy va import qilingan alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich quyidagicha birlashtirish taklif qilinadi. Ya'ni, aroq, konyak va tarkibida spirt miqdori yuqori bo'lgan boshqa alkogol mahsulotlari (viski, djin, tekila, liker, rom, brendi va boshqalar) uchun aksiz solig'i bo'yicha: mahalliy mahsulotlarga aksiz solig'i stavkasini kelgusi 2025-yil 1-yanvardan 10 foizga indeksasiya qilib, tarkibidagi 1 litr spirt uchun 44 ming so'm miqdorida belgilash; import mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkasini 2025-yil 1-yanvardan 25 foizga kamaytirib, 76 ming so'm (amalda 101,5 ming so'm) belgilash taklif etiladi. Bu esa respublikamizning JSTga kirishini tezlashtirishga imkon beradi, sifatli alkogol mahsulotlarining milliy iqtisodiyotga kirishini tezlashtiradi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni kuchaytiradi.

Respublikamizda soliqlarni yig'iluvchanligini oshirishning mexanizmlaridan biri bu er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ob'ektini to'g'ri belgilash bilan bog'liqdir. Buning ilmiy asoslarini quyidagicha keltirishga harakat qilamiz. Shu maqsadda kon-kimyo xom ashyosi hamda noruda qurilish materiallari guruhdagi ayrim turdagi foydali qazilmalarning soliq stavkalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ma'lumki, amalda noruda qurilish materiallarining qat'iy belgilangan minimal stavkalari tabiiy bezaktosh, marmar, granit va boshqalar uchun 1 kub metriga 5600 so'm, qum-shag'al aralashmasi uchun 1 kub metriga 4200 so'm qilib belgilangan. Vaholanki, marmarning kondan sexlarga sotish narxi 500 ming so'm tashkil etishini inobatga olib, 5 foizlik stavka qo'llanilganda kub metriga hisoblangan soliq 25 ming so'mga to'g'ri kelmoqda, o'z navbatida esa, granitning kondan sexlarga sotish narxi esa 1 mln so'mni tashkil etib, 5 foizlik stavka qo'llanilganda kub metriga 50 ming so'mga to'g'ri kelmoqda.

Biroq, 2024-yil soliq hisobotlarida marmar va granit xom ashyosining bir kub metri uchun o'rtacha 16 ming so'mdan, tabiiy bezaktoshdan bloklar uchun esa har bir kub metri uchun o'rtacha 11 ming so'mdan soliq hisoblangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur xomashyolar uchun alohida stavkalar belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek, viloyatlar kesimida qum-shag'al aralashmasining narxlari o'rganilganda, ularning karerdagi o'rtacha narxi 26 ming so'mni tashkil etib, 5 foizlik advalor stavkada soliq hisoblanganda 1 kub metriga 1,3 ming so'm soliq to'g'ri kelmoqda. Vaholanki, amalda 1 kub metri uchun qat'iy belgilangan miqdor – 4,2 ming so'mdan soliq undirilmoqda. Bu esa, 5 foizlik advalor stavka samarasiz ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini kam to'lash maqsadida 2024-yilda qazib oluvchilar tomonidan soliq hisobotlarida 1 kub metr qum-shag'alning narxi 550-2000 so'mgacha ko'rsatilgan, vaholanki qum-shag'alning karerdagi o'rtacha sotish narxi 26 ming so'mni tashkil etadi. Shu boisdan ham kon-kimyo xom ashyosi hamda noruda qurilish materiallari guruhidagi boshqa foydali qazilmalarning mahalliy byudjetdagi ulushini saqlab qolish maqsadida ular uchun belgilangan qat'iy stavkalar 10 foizga indeksasiya qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda, amaldagi soliq kodeksining er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'limi 452-moddasi (soliq stavkalari) "foyda solig'ini va qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash maqsadida qum-shag'al aralashmasini karerda realizasiya qilish bahosi 1 kub metr uchun 20 ming so'mdan kam bo'lishi mumkin emas hamda Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat'iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffisient belgilashga haqli" degan mazmundagi norma kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, amaldagi norma bo'yicha soliqdan qochish va soliqni kam to'lash holatlari kelib chiqmoqda edi, buning tahlilini yuqorida keltirib o'tgan edikki, natijada soliqlarning yig'iluvchanligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Qayd etish joizki, bugungi kunda hukumat farmon va qarorlari hamda Soliq kodeksi bilan soliq to'lovchilarga bir qator soliq imtiyozlari berilgan (3.7-jadval).

3.7-jadval

Jahon savdo tashkiloti talablariga zid bo'lgan soliq imtiyozlarini bekor qilinishining ilmiy asoslari tahlili⁷⁸

№	Normativ-huquqiy hujjatning nomi va Soliq kodeksi moddalari	Foydalanilgan soliq imtiyozlari (mlrd so'm)
